



Erkin
Vohidov

O'zbekim



Erkin Vohidov

O'zbekim




YANGI ASIR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50'zb)7

V – 89

Vohidov, Erkin

O'zbekim: she'rlar, dostonlar, hajviyalar, muxammaslar, tarjimalar. Erkin Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 400 b.

ISBN 978-9943-20-237-5

«Kamolot kutubxonasi» ruknida nashrga tayyorlangan navbatdagi kitobimiz o'zbek adabiyotining zabardast valili, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidovning she'r, doston, hajviya, muxammas va tarjimalardan tarkib topdi. Nashriyotimiz tomonidan shoirning «Zamin sayyorasi» hamda «Sharqiy qirg'oq» nomli she'riy to'plamlari o'quvchilar e'tiboriga havola etilgach, ko'p sonli she'riyat ixlosmandlari shoirning yirik hajmli ijodiy meroysi jamlangan to'plamni chop etishimizni so'rab murojaat qilishdi.

Aslida Erkin Vohidov she'rlarini saralashga hojat yo'q: qaysi satrini o'qimang, kitobga kiritgingiz, mutolaaga kirishgan o'quvchiga xoh katta yoshli, xoh bugungi davr farzandi bo'lsin, shoir ijodini taqdim etgingiz, she'rlar zamiridagi faqat so'z san'atkorigagina xos bo'lgan haqiqatlardan boxabar etgingiz keladi.

ISBN 978-9943-20-237-5

© Erkin Vohidov, «O'zbekim». «Yangi asr avlodi», 2017.



Faxriya

*Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
Ozbekim, jon o'zbekim.*



O'ZBEKISTONIM

Faxriya

Yurtim,
Seni yana oldim qalamga,
To'ying, shodiyonang bahona bo'lib.
Yana kelib qo'nding tonggi misramga
Falak nisor etgan durdona bo'lib.
Iqbol peshonamga bitgan oshyonim –
O'zbekistonim.

Toleyim bor ekan,
Senga hamnafas,
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,
Tug'yonli asrda senda tug'ildim.
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.
Jahon ichra mening tengsiz jahonim –
O'zbekistonim.

Maqsad manzilida dovon oshgan dam
Yo'lchi ham bir to'xtab olgandek nafas,
Marzagacha yetib borgan dehqon ham
Ortga boqib bir zum qilgandek havas.
Ellik bahor ko'rib hayot bog'ida
Umr kamoliga qo'l cho'zib inson,
Oltin darvozani chertgan chog'ida
Sarhisob qiladi umrin begumon.
Bosib o'tgan yo'li shunda odamga
Tuyiladi ming bir pog'ona bo'lib.
Ming bir dovon oshgan alp pahlavonim –
O'zbekistonim.



Asli ellik emas, ellik ming yoshing,
Kechmishing tarixlar nariyog'ida.
To'marisdek ona Kayxisrav boshin
Qon to'la sanochga solgan chog'ida,
Spitamen kamon tutib dastida
Maroqandni saqlab turganda uzoq,
Yovni adashtirib o'lim dashtida
Ko'krak ochib qah-qah urganda Shiroq,
Hali o'zbek emas, lekin olamga
Mashhur eding soq-u sug'd ona bo'lib.
Iskandarni majruh etgan kamonim –
O'zbekistonim.

Vahshat vodiysida kechdi asrlar
Aljabr ustodin tuqquncha yering.
Ilming yuksalguncha Beruniy qadar,
To Alisher qadar yetguncha she'ring,
Hayratga solguncha fan olamini
Farg'oniy chiqargan aniq hisoblar...
Tebransa ne ajab Toshkent zamini,
Bu yerga ko'milgan milliard kitoblar.
Farang-u Hind-u Chin, Iroq, Ajamga
Taralding Alqonun, Saydona bo'lib.
Buyuklar tan bergen buyuk dostonim –
O'zbekistonim.

Ming bora tiklanding, ming bor qulading,
Yovlar qamchisidan chekkanda ozor –
Alpomish singari o'g'on tilading,
Tilading Go'ro'g'li singari sardor.
Sen ham gullar terib umid bog'idan
Tole orzusida tuzding alyorlar.
Ammo bo'talaring qo'ng'irog'idan
Cho'llarda to'kilib qoldi oh-zorlar.

Umrинг egiz bo'ldi anduh-alamga
 Orzularing bari afsona bo'lib.
 Barchinning ko'ksida qolgan armonim –
 O'zbekistonim.

Zamin dardicha bor bir ayol dardi,
 Oyning dog'i balki uning dog'idan.
 Faryod olov bo'lsa olam yonardi
 Sharqlik juvonlarning chekkan ohidan.
 Zebuniso o'tdi tanho va mahzun
 Boshida o't bo'lib malika toji.
 Tun bo'lib yoyilar Qo'qonda har kun
 Nodirabegimning qirqilgan sochi.
 Ayol!
 To'rt devorda ko'milding g'amga,
 G'azallarda faqat jonona bo'lib.
 Barnodek, Anbardek dili so'zonim –
 O'zbekistonim.

Hali sokin tuman chulg'ab bag'rini
 G'aflat uyqusida yotardi olam,
 Umid qalamida «Quyosh shahri»ni
 Hali yozmagandi Kampanella ham.
 Najot ko'zi bilan mag'ribga boqib,
 Ko'hna Xorazmdan yo'l olgan karvon
 Yovmut sahrosida oylar uloqib
 Maskov tuprog'iga yetganda omon,
 O'zbeklar to'qigan shohi, gilamga
 Boqqanda zariflar hayrona bo'lib,
 Do'stlik ipak yo'li ochgan karvоним –
 O'zbekistonim.

Darvozangni ochding ma'rifat, fanga,
 Senga oshno bo'ldi Pushkin kabi zot.
 Lekin baxt-u iqbol kulmadi sanga,
 Hali olis edi sen kutgan najot.



Erk deya atalgan tabarruk shamga
Intilding bir umr parvona bo'lib.
Parvonadek kuyib o'rtangan jonim –
O'zbekistonim.

Dardingni kuyladi anhorlaringda
G'ijirlab aylangan ko'hna charxpalak,
San'ating munaqqash devorlaringda,
Lekin obodliging bo'idi Hapalak.
Parilaring tutqun bo'lib haramga,
Ulug' shoirlaring devona bo'lib,
Taqdir sahrosida zor-u sarsonim –
O'zbekistonim.

Ko'p ellarni kezdim, ko'p yurtlar ko'rdim,
Bir-biridan go'zal, bir-biridan soz.
Lekin Sharqda mash'al charog'on yurtim
Olamda tengi yo'q o'lkadir mumtoz.
Bunda do'stlik kuyin aytur har chechak,
Bunda baxtni qilur har bulbul navo.
Dillardagi azal bashariy tilak –
Buyuk birodarlik gulshani aro
Osiyoxon degan suluv sanamga
Oltin sep-u atlas so'zona bo'lib
Kullib turgan, yorug', munis makonim –
O'zbekistonim.

Yiroqdan eshitib surnay ovozin
Ko'chaga yugurgan bola singari,
Men ham qo'lga olib sibizg'a sozim
To'yingga shosharman eldan ilgari.
Tilak shu – qo'shig'im katta bayramga
Yetib borsa kichik to'yonas bo'lib.
Mening ham qolmasdi dilda armonim,
O'lkam, onajonim, yuragim, jonim –
O'zbekistonim.

O'ZBEGIM*Qasida*

Tarixingdir ming asrlar
 Ichra pinhon, o'zbegim,
 Senga tengdosh Pomir-u
 Oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.

So'y lasin Afrosiyob-u
 So'y lasin O'rxun xati,
 Ko'hna tarix shodasida
 Bitta marjon, o'zbegim.

Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,
 Al-Farob avlodidan,
 Asli nasli balki O'zluq,
 Balki Tarxon, o'zbegim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan
 O'ynatib shamshirlarin
 Necha qoon, necha sulton,
 Necha ming xon, o'zbegim.

Tog'laring tegrangda go'yo
 Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
 Ikki daryo – ikki chashming,
 Chashmi giryon, o'zbegim.

Qaysari Rum nayzasidan
 Bag'rida dog' uzra dog',
 Chingiz-u Botu tig'iga
 Ko'ksi qalqon, o'zbegim.

Yog'di to'rt yondin asrlar
 Boshingda tiyri kamon,



Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o'zbegim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen,
Erksevar qon, o'zbegim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,
Senga na otash, na sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbegim.

Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlariningda oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbegim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk
Qo'ydi narvon, o'zbegim.

Mir Alisher na'rasiga
Aks sado berdi jahon,
She'riyat multkida bo'ldi
Shoh-u sulton, o'zbegim.

Ilm-u she'rda shoh-u sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zor-u nolon, o'zbegim.

Mirzo Bobur – sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't,

Shoh Mashrab qoni senda
Urди туг'он, о'збегим.

She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbegin.

Yig'ladi furqatda Furqat
Ham muqimlikda Muqiyim,
Nolishingdan Hind-u Afg'on
Qildi afg'on, o'zbegin.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbegin.

Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbegin.

Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shomining
Shu'la afshon, o'zbegin.

Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon, o'zbegin.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,



Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbegin.

O'zbegin, deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbegin.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lek avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbegin.

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksi osmon, o'zbegin.

Qayga bormay boshda do'ppim,
G'oz yurarman, gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbegin.

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbegin, jon o'zbegin.

VATAN ISTAGI

Bu Vatanda bir Vatan
 Qurmoqni istaydir ko'ngil,
 O'zni ozod qush kabi
 Ko'rmoqni istaydir ko'ngil.

Bu Vatan timsoli bo'lsa
 Tong quyoshi shu'lavor,
 Shu'lalar qo'ynida charx –
 Urmoqni istaydir ko'ngil.

Ul Vatanga bayroq – insof,
 Tug'i sarhad, muhri – mehr,
 Sarhad uzra soqchidek
 Turmoqni istaydir ko'ngil.

Kim bu tuproq qadrin istar
 Aylamoq tuproqqa teng,
 Ko'ziga tuproq bilan
 Urmoqni istaydir ko'ngil.

Ul Vatan yelkanlarini
 Ma'rifat ummonida
 Qiblayi imon sari
 Burmoqni istaydir ko'ngil.

Bas, yetar yolg'on saodat,
 Yolg'on erk, yolg'on vatan,
 Hurriyat zavqini chin
 Surmoqni istaydir ko'ngil.

Qutlug' istiqlol kunida,
 Ey Vatan, bag'ringda shod
 Erkin o'g'loning bo'lib
 Yurmoqni istaydir ko'ngil.

1990



VATAN QADRI

Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib gulshanda gulni
Ko'ziga ilmas kishi.

Vah, bu ne g'aflatki inson –
Ko'ksida tutmish Vatan,
Kim Vatan ichra Vatanning
Shukrini qilmas kishi.

Yurt nedir, yurt dog'i nedir,
Yurtdan ayrılgan bilar,
Anglaguvchi yurt firoqin
Yurtda topilmas kishi.

Ey, vatandoshim, eshit
Bobur-u Furqat nolasin,
Besabab anduh tig'ida
Bag'rini tilmas kishi.

Bilma, farzandim, Vatan hajrini,
Lek qadrini bil –
Kim Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi.

1992

* * *

Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim xok olsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.

Jahon kengdir, falak kengdir,
Yurak kengdir, chu sen borsan,
Seningsiz ikki dunyo tor,
Seningdirman, seningdirman.

Menga begona ellarda
Nasib gar olsa yuz rohat,
Chekay bag'ringda ming ozor,
Seningdirman, seningdirman.

Agar shodliklaring ozdir,
Meningdirsan, meningdirsan,
Magarkim g'amlarim bisyor,
Seningdirman, seningdirman.

Bugun bor, erta yo'q jismim,
Va lek ruhim uchun mangu,
Sening manguliging darkor,
Seningdirman, seningdirman.

Sening ishqing bilan yondim,
Ketar jonimda bu otash,
Seningdirman, yana takror,
Seningdirman, seningdirman.

1992



VATAN SOG'INCHI

*Chet ellarda xizmat qilayotgan
o'zbek birodarlarimga*

Qay oliy makonga safar qilmayin
Qay yiroq sohilga eltmasin qismat,
«Assalom alaykum!» deya jilmayib
Bir o'zbek qondoshim qarshilar albat.

Bizlar Kolomboga qo'nganda sahar,
Ilk bor u qarshilab parvona bo'ldi.
Shunda rutubatli, badbo'y bu shahar
Ko'zimga charaqlab Farg'ona bo'ldi.

Madorasda tilmoch ul o'zbekzoda
Barobar so'zlardi sakkiz tilda ham.
U oq xalat qiyib dorushshifoda,
Afg'on bolasiga qo'yardi malham.

Nur qasrini tiklab Furot uzra u
Arab xonasiga yoqardi quyosh.
Paxta o'stirardi Nildan olib suv,
Qalbida Afriqo filicha bardosh.

Misrda Yusufdek bo'lib ko'rindi,
Yamanda u menga tuyildi Hotam.
Bu ayon tuyg'udir – na qilsa endi
Olovdek tashlanar ko'zga o'z odam.

Bukun olis yo'dan qaytganim chog'da
Ilk satrimda sizni qildim mukarrar –
Ey, siz, jondoshlarim, yurtdan yiroqda
Yurtning xizmatiga bog'langan kamar!

Bilaman, ne azob yuki hijronning,
 Ne darddur oy-yillar bo'lmoq intizor.
 Bilaman, sog'inchi O'zbekistonning
 Ko'zingiz tubida hamisha bedor.

U jahon ichida bitta jahondir,
 Bir ko'rgan umrbod qilgusi havas.
 Yerning tortish kuchin yengmoq osondir,
 Ona-Yer mehridan uzilib bo'lmas.

Do'stlarim, har qayda bo'ling salomat,
 Omon qayting uyg'a olis makondan.
 Tilagim, hech qachon, hech qachon qismat
 Bizni ayirmasin O'zbekistondan.

1986

SADOQAT

Keksa qarag'ayning
 Ildizin ochib,
 Tortdilar qo'sh arqon
 solib belidan.
 Lekin u tuproqqa
 panjasin sanchib,
 Sira qo'zg'almasdi
 Ungan yeridan...

Nihoyat, gurs etib
 yerga quladi,
 Butab, so'ng ko'tarib
 ketdilar,
 biroq –
 U o'z panjasida olib jo'nadi
 Yashagan yeridan
 Bir siqim tuproq.



TURKISTON BIR, VATAN BIR

Qadim ona bu tuproq
Turkiston bir, vatan bir.
Bizga jondan azizroq
Turkiston bir, Vatan bir.

Al-Beruniy yodi bor,
Yassaviy faryodi bor,
Qoshg'ariy ijodi bor,
Turkiston bir, Vatan bir.

Tangritog' – shamoili,
Jayhun, Talas va Ili –
Bobolarim manzili –
Turkiston bir, Vatan bir.

Farobiy cholg'usida,
Navoiy orzusida,
Shoh Bobur qayg'usida
Turkiston bir, Vatan bir.

Temur bobom tug'ida,
Shermuhammad ruhida,
Istiqlol shukuhida
Turkiston bir, Vatan bir.

Tojik – yuksak Pomirim,
Turkman – tutash tomirim,
Qirg'iz, qozoq – bovurim –
Turkiston bir, Vatan bir.

Mustafo Cho'qay joni,
Cho'lponning shahid qoni,

Qodiriyning armoni –
Turkiston bir, Vatan bir.

Yovlar pora qilgan tan,
Xomtalash bo'lgan Vatan.
Oh, bo'lurmi qaytadan
Turkiston bir, Vatan bir.

Ona yerga quloq tut,
Nidolar bo'lmas unut.
Ruhlar aytar: ona yurt
Turkiston bir, Vatan bir.

1992





16-FEVRAL 1999-YIL

Bu dunyoda yaxshi, yomon kunlar ko'rdim,
O'kinchim yo'q, mayli, yillar qaddim egsin.
Men hamon bir askaringman, ona Yurtim,
Sen tomonga otilgan o'q menga tegsin.

Hali komil atolmasman makonimni,
Bekam, odil sanolmasman zamonimni.
Lek kiprikda saqlayman bu davronimni,
Bu davronga otilgan o'q menga tegsin.

Yurtim, olis yo'lga chiqqan karvoning bor,
Karvoningga posbon – uyg'oq sarboning bor.
El dardida halovatsiz o'g'loning bor,
Shu insonga otilgan o'q menga tegsin.

Tong nurisan, Vatan, qalbim osmonida,
Erking azal ajdodlarning armonida,
Mehring abad avlodlarning imonida,
Shu imonga otilgan o'q menga tegsin.

1999

ONA TILIM O'LMAYDI

Notiq dedi:
«Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo'qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda».

«Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!»
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Kim darg'azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

«Va'zingni qo'y, birodar,
Sen aytganing bo'lmaydi».
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

– Hey, bu qanday aqida! –
Qo'lida tabarruk jom,
Go'zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil
Beranje so'rди nolon:
– Nahotki, farangi til
Yo'qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:



– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:
– Ozar tili guldek so'lmaydi.
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

Kamalakdek rango-rang
Bo'lsin deb san'at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo'lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo'qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o'tga tutashdi.
Bir sado jahon bo'ylab
Taraldi, tog'lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o'lmaydi!

1976

ONA TUPROQ

Nega inson yerni qutlug' der,
Tuproqni ham sanar muqaddas?
Yo'q, mo'tabar emas asli yer,
Tuproq o'zi tabarruk emas.

Dastlab o'sha yer uzra odam
To'kkanida halol manglay ter,
Gavhar undi ona tuproqdan,
Qutlug' bo'ldi muazzam bu yer.

O'z muborak tuprog'in inson
Yot nazardan asrab har nafas,
Uni quchib fido etdi jon,
Qoni bilan qildi muqaddas.

Yo'q, mo'tabar emas asli yer,
Qutlug' emas tuproq hech qachon.
Muborakdir inson to'kkan ter,
Mo'tabardir qutlug' toza qon.

1959



O'LKA

Bog'laringni sayr etganimda
Sen bor eding qalbda, Vatanim.
Bog' husniga she'r bitganimda
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so'zlar
Bunda o'sgan har bitta daraxt.
Nur emadi millionlab ko'zlar
Ko'kdan sening husningga qarab.

Jilmayadi o'zida yo'q shod
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak-etak olib koinot
Yulduzlarin sochar boshingdan...

1960

BAHOR MUSTAZODI

Gul faslida soz oldi yana ahli navolar,
kuy boshladi yona.

Ne tongki, go'zal bo'ldi jahon, yer-u samolar,
har tilda tarona.

Ko'k birla zamin bir-biriga oshiq-u ma'shuq,
bir-birga tutashgan,

Sochmoqda u boron ila jonbaxsh ziyolar,
ichmoqda bu qona.

Zumrad dalalar bag'riga o't qo'ydi shafaqgun
raqs etguvchi lola,

Yondirganidek bizni pari mohi liqolar,
o't nasli – jonona.

Gul boshin egib jilmayadir, baxtli kelinchak,
mashshotasi – oftob,

Bulbul tilida nola nadir, zavqli sadolar,
bu – savti zamona.

Men ham qalamim qo'lga olib o'y suradirman,
tashbeh qidirurman,

Yurt sha'niga yozmoq tilagim hamd-u sanolar
Shayx-u G'afurona.

Ey sen, Vatanim, menga o'zing bitta jahonsan,
bir o'g'ling erurman,

Jon boricha ko'nglimda senga sidq-u vafolar, –
sen menga yagona.

Men neki yozar bo'sam, o'zing boisi nazmim,
madhim senga doim,

Bitdim yana, jonim, yuragim
senga navolar, gul fasli bahona.

1980



NAVRO'Z NASHIDASI

Yurtim!

Ilhomimga sarchashma o'zing,
Birdek aziz menga yozing ham kuzing.
Bukun bahoringga she'r aytmoqchiman,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Yana olam bo'ldi yashil, serfusun,
Yana qizg'aldoqlar ochildi gulgun.
Bu yilgi ko'klaming o'zgacha butun,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Qattiq qishdan chiqding zax tortib, horib,
Yerdan chiqqan kabi boychechak yorib.
Bag'ringdan muz ketdi hamalga borib,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Qir yashil, bog' yashil, bo'stondir yashil,
Bahoriy libosda jahondir yashil,
Erk yashil, istiqlol, imondir yashil,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O'z Tug'ro, Bayrog'ing, Yurtboshing bordir.
Maqsading, g'ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Yosh chinorsan, o'zni tutib olarsan,
•Ilik uzildi•dan o'tib olarsan.
Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Bugun dalalarga qadalgan urug'
Inshoollo, rizq-u barakot to'lug',

Ey, umid o'lkasi, ertasi ulug' –
Vatanim, muborak bo'sin Navro'zing.

1992

O'LKAMDA BAHOR

Dalalar uyg'ondi, boychechak undi,
Zamindan qor ketdi, ko'ngildan g'ubor.
Yarq etgan toleday quyosh ko'rindi,
O'lksamda bahordir, o'lksamda bahor.

Qish uzoq cho'zildi, shukr, o'tdi-ya,
Boqiydek tuyilgan muzlar ketdi-ya,
Ivishiq kunlarning kuni bitdi-ya,
O'lksamda bahordir, o'lksamda bahor.

Bahorda yoshlikning totli bo'yи bor,
Bahor erk singari yorug' va zangor.
Yosh yurtim bahordek bo'sin beg'ubor,
O'lksamda bahordir, o'lksamda bahor.

Bahorning bahordek fe'llari bordir,
Momoqaldirog'i, sellari bordir.
Goh sarin, goh achchiq yellari bordir,
Chunki u bahordir, o'lksamda bahor.

Mayli-da, xush keldi, but keldi ko'klam,
To'kinlik, baraka-qut keldi ko'klam,
Inshooloh, deylik – qut keldi ko'klam,
O'lksamda bahordir, o'lksamda bahor.

1992



O'ZBEKISTON BOG'LARIGA QAYTIB KELDI BULBULLAR

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan
uyg'ondim,

Shohimardon tog'larida biryayradim, quvondim.
Bir-biriga navbat bermay qo'shiq aytdi bulbullar,
Shukr bo'lsin, bog'larimga yana qaytdi bulbullar.

Necha zamon noyob edi o'lkamda bu tarona,
Necha zamon bulbullarni sog'ingandi Farg'ona.
Tomigacha paxta ekkan elda netar bulbullar,
Osmonidan zahar yoqqan yurtdan ketar bulbullar!

Chamanzorlar shudgor bo'lsa bulbul qandoq yayrasin,
Erk qushchasi erk yo'q joyda qandoq qilib sayrasin?
Mana, bukun bog'larimga qaytib keldi bulbullar,
Hur Vatanga hur qo'shiqlar aytib keldi bulbullar.

Men ham endi qalamimni she'rilar uchun charxlayin,
Bu sehrli taronani g'azallarda sharhlayin.
Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan
uyg'ondim,

Shohimardon tog'larida bir yayradim, quvondim.
Chamanlarda sho'x sayrasin, zavqqa to'lsin bulbullar,
Qaytmas bo'lib vatanimga kelgan bo'lsin bulbullar.

1992

KEL, EY BOBUR, VATANGA...

Kel, ey Bobur, Vatanga,
Elda yoding, qadr-u shoning bor,
Tabarruk bul zaminingda
Hayoti jovidoning bor.
Sog'inching, orzuying,
Ko'zyoshing, armonlaring bunda,
Jahonga sig'magan
Shoir xayoling, bir jahoning bor.
Bu yurtning lolazoriga
Sochilgandir yurak qoning,
Shafaqlarda falakni
O'rtagan o'tli fig'onning bor.
Zamonikim, nizolardan
To'yib tarki Vatan qilding,
Muroding endi hosildir,
Zamoni al'amoning bor.
Eling, alhamdulillohkim,
Asoratdan xalos bo'lgan,
Go'zal yurt Andijoning,
Anda ruhing, anda joning bor.
Kel, ey Bobur, g'azal yoz,
Ot minib kez shoh Boburdek,
Necha Bobur kabi nasling
Bahodir, pahlavoning bor.

1993



BOQIY XOTIRA

O'ylayman, ochilsa har yil navbahor
Moviy kengliklarda alvon lolalar,
Bular lola emas, yot ellarda zor
Lolaga aylangan askar bolalar.

O'ylayman, oftob uyg'onib sahar,
Kunchiqar ufqiga tikkanda yalov,
Bu gulgun shafaqmas, osmonga qadar
Bevalar ohidan tutashgan olov.

O'ylayman, har kech shams yetsa zavolga,
Borliqning tugamas motami rostdir.
Tun emas, onalar egnida qolgan
To mahshar yechilmas qora libosdir.

Yur, bolam, Maydonga boraylik bugun,
Qo'lingda dona gul yanog'ingdek ol.
Bu gul sening baxting, shod kulging uchun
Fido bo'lgan bobong qalbiga timsol.

Yo'q, sen o'zing gulsan, vataning – chaman,
Ulg'ay, asl zoting unutma sira.
Bilki, qadr bilmak aslida – vatan,
Vatanning ma'nosi boqiy xotira.

1998

KUZATISH

Ma'sum ko'zlariningda sevinch bir olam,
Murg'ak ko'ngling ichra dunyo hayajon.
Bugun qo'ymoqdasan maktabga qadam,
Mustaqil Yurtimga tengdosh bolajon.

Otang g'ururlanar, onang bilmas tin,
Buvning bo'yleringdan yuz bor aylandi.
Yangi hayot senga muborak bo'lsin,
Ozod Vatanimning ozod farzandi.

Birinchi sentabr, birinchi nahor,
Birinchi qo'ng'iroq, birinchi ta'lif.
Osmoning beg'ubor, diling beg'ubor,
Baxtli kun dunyoga kelgan asalim.

Seni kuzatarkan, oyijon emas,
Farishtalar soching tarab turibdi.
Xayolimda shu bir xonadon emas,
Olam yo'llaringga qarab turibdi.

Oydin istiqboling, iqboling bilan
Ko'nglimning eng shirin xayolidirsan.
Niholsan, ertangi kamoling bilan
Umidlar yurtining timsolidirsan.

Ko'nglim to'la senga havas va ziyo,
O'zing o'z, so'zing so'z, mutelik abas.
O'zga til, begona maslag-u ma'vo
Endi senga aziz, mukarram emas.

Hur mamlakat sening, hur yurak sening,
Buyuk tarix sening, sening zamonang.



Inqilob zuryodi emas Vataning,
Qulluqdan boshlanmas milliy taronang.

Shukr, shundoq kunga yetkazdi taqdir,
Yorug' peshonangdan, kel, bitta o'pay.
Yuksaklarni ko'zla, qarchig'ay axir
Polopon bo'lsa ham zoti qarchig'ay.

1998

BIR NIHOL

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.
Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

2000

UZOQQA BORMADIK ANDISHA BILAN...

Uzoqqa bormadik andisha bilan,
Til topa olmadik hamisha bilan.
Odamzotga do'st ham yov bo'larkan til,
Ko'prik bo'larkan ham g'ov bo'larkan til.

Olisga yetmasdan o'chdi unimiz,
Chunki begonaga qoldi kunimiz.
Gul bo'l, tikanak bo'l – chamaningda bo'l,
Bulbul bo'l, qarg'a bo'l – vataningda bo'l.

1989

* * *

G'uncha ochilishin zor kutib, sahar –
Bulbul ko'zlarini uyqu olarkan.
Oshiq yor vasliga intilib yillar,
Yetganda tili lol bo'lib qolarkan.

Daf'atan chiqqanda tiyra go'shadan,
Nurga ojiz ekan odamzot ko'zi.
O'sha bulbul – menman, oshiq – o'shaman,
Men ko'zi qamashgan insonning o'zi...

1991



Barcha shodlik senga bo‘lsin

*Mayli, ostonangda yotsam,
Mayli, quvsang tosh otib,
Bor dilozorlik senga-yu,
Bor dilafgorlik menga.*



MUHABBAT BIRLA

Muhabbat birla chekkan –
G'urbating rohat bilan tengdur.
Muhabbatsiz va lekin
Ishrating kulfat bilan tengdur.

Unga jon-u jahonim
Boy berib olamda boydurman,
Sening, ey bemuhabbat,
Nusrating hasrat bilan tengdur.

Riyo ahlining aldoq –
Hurmatiga nafratim bordur,
Sening, ey do'st, menga
Nafrating shafqat bilan tengdur.

Muhabbat otashini
Hech qachon do'zaxga teng qilmam,
Nechunkim, menga nurli –
Tal'ating jannat bilan tengdur.

Kechib qo'y, oshiq o'lgach,
Ikki olam mulkidan, Erkin,
Muhabbat ichra barcha –
Zahmating davlat bilan tengdur.

1973



SEVGI OTASHI

Qon emasdur jism aro ul,
Shu'lasidur ishq o'tin,
Mo'y emasdur tan uza bul,
So'xta jonimdan tutun.

Bilmadim, ul otash ichra
O'rtanib bo'lgum ado
Yo samandardek chiqarman
O't arosidan butun.

Mumkin ermas xas ichida
Cho'g'ni pinhon aylamak,
Ishq solib jismimga yong'in,
Oshikor o'ldi bukun.

Ishq-u hajr olamga meros,
Bo'yla merosdur azal
Bizga Farhoddan fidolik,
Bizga Majnundan junun.

Ishq bir oftobdur munavvar,
Zarradan Zuhro qadar –
Ul quyoshning tegrasida
Aylanurlar besukun.

Yor sevib, olding sen, Erkin,
Bu jahondin ko'p saboq,
Bundan ortiq qayda maktab,
Qaydadir dorilfunun?

1973

BARCHA SHODLIK SENGA BO'LSIN

Barcha shodlik senga bo'lsin,
Bor sitam zorlik, menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga.

Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog'lik senga bo'lsin,
Barcha bemorlik menga.

Senga bo'lsin barcha husn-u
Menga bo'lsin barcha ishq,
Kori xunxorlik senga-yu,
Mehr-u poydorlik menga.

Bu jahoning rohatin ol,
Bor azobin menga ber,
Senga bo'lsin barcha orom,
Barcha bemorlik menga.

Ol o'zing koshonalarni,
Menga qo'y mayxonani,
Barcha xushyorlik senga-yu,
Barcha hummorlik menga.

Senga bo'lsin nurli kunduz,
Menga qolsin qora tun,
Barcha gulshan senga bo'lsin,
Bor tikanzorlik menga.

Sen shahanshohlikni olgin,
Menga qullik bo'lsa bas,
Bor jafokorlik senga-yu,
Bor vafodorlik menga.



Mayli, ostonangda yotsam,
Mayli, quvsang tosh otib,
Bor dilozorlik senga-yu,
Bor dilafgorlik menga.

Senga she'rni bitsin Erkin,
Yirtib otmoq o'z ishing,
Kasbi inkorlik senga-yu,
Aybga iqrorlik menga.

JON TUGAMAYDIR

Olamda ayol madhiga doston tugamaydir,
Chun ishq tugamas, ishqdag'i armon tugamaydir.

Nazm etdi tugal Hofiz-u Sa'diy-u, Navoiy,
Ne qoldi, demang, shoiri davron tugamaydir.

Gar arsayi ash'or esa ishq bahsiga maydon,
Maydonda chavandoz ko'p-u, maydon tugamaydir.

Husn ahli uchun bo'lmas ado noz-u adolar,
Ishq ahli uchun nola-yu afg'on tugamaydir.

Har neki yonar, yo'q bo'ladir, lekin ajabkim,
Mangu yonarak ishq o'tida, jon tugamaydir.

1993

GULNORINI O‘P...

Uyquda topsang nigoring,
 Asta gulnorini o‘p.
 Ochmasa chashmin, yumuq ul
 Chashmi xummorini o‘p.

Sen-ku uyg‘og‘ida vosil
 Bo‘magaysan la‘liga,
 Uyg‘onib achchiq so‘z aytmay,
 La‘li shahdborini o‘p.

Ro‘zgoring qora qilmay
 Zulfini ko‘ksingga bos,
 Ko‘ksingga botmasdan avval
 Kiprigi xorini o‘p.

Vasl uyi mangu emasdir,
 Ishq dami boqiy emas,
 Qomating yo bo‘lmasidan
 Qoshi zangborini o‘p.

Taqdir umringning xatiga
 Nuqta qo‘ymasdan burun
 Xatti birlan labga posbon
 Xoli raxdorini o‘p.

Yorning uyqusi g‘animat,
 Sen bu tun bedor bo‘l,
 Bir-bir aytmayman, dilingga –
 Xush nadir, borini o‘p.

Uyg‘onib so‘ng, mayli, Erkin,
 Dorga ossin yor seni,
 Ko‘zga surt sirtmog‘ini-yu,
 Tiz cho‘kib dorini o‘p.



BIZ ANGLAMAGAN JAHON EKAN ISHQ

Oshiqlik ishi yomon ekan-ku,
Oshiqqa baloyi jon ekan-ku.

Ishq xanda bo'lib ko'ngilga kirkach
Ko'ngilda to'la fig'on ekan-ku.

Vaslida quvonchi oshikoro,
Hijronda g'ami nihon ekan-ku.

Ishq dard-u azobi, hajri bir yon,
Rashk otashi bir tomon ekan-ku.

Avvalda jahon ko'zingga gulshan,
Oxirda va lek xazon ekan-ku.

Ishq olami o'zga olam erkan,
Biz anglamagan jahon ekan-ku.

Ko'ngilni berib qo'yibmiz oson,
Yor sevmaganing oson ekan-ku.

Har neki yonar, zamonki so'ngay,
Ishq otashi bezamon ekan-ku.

Bor bo'lsin omon u beomonim,
Dardi bila jon omon ekan-ku.

Bog'landim o'z ixtiyorim ila,
Erkin bo'llishim gumon ekan-ku.

1994

MENDA BOR ISHQ ICHRA G'AM...

Menda bor ishq ichra g'am,
Hajr ichra dard ul oyda yo'q,
Dardni dard bilmas kishiga
So'zlamoqdan foyda yo'q.

Ko'z yoshim ko'rganda soy ham
Sharqirab kulta ne tong,
Bor mening ko'ksim aro
Toshqinki, hech bir soyda yo'q.

Dard bilan qormish ilohim
Loyimiz taqdir azal,
O'zga dardin angiamoq lek
Biz qorilgan loyda yo'q.

Olam ahli ichra dildosh
Izlama, kezma jahon,
Zarga zor har yerda bordir,
Zorga zor hech joyda yo'q.

Mayli, zar sizlarga bo'lsin,
Menga zor ishq ichra bas,
Bu xazinam ahli dunyo
Ichra hech bir boyda yo'q.

1995



TOLA SOCH

Ul pari avlodidanmu, yo bashar farzandimu?
Habibiy

Ayt, bu soching tolasimu,
Jon ipin bir bandimu,
Yoki soching tolasiga
Jon ipim bog'landimu?

Tola-tola sochlaringdan
Dil yo'qotmish tinchini,
Yo bu tolang dil qushiga
Qil tuzoq monandimu?

Kecha chiqding soch uchiga
Paxtadan bog'lab pilik,
Hech qachon e'zozli paxtam
Shuncha ardoqlandimu?

Sochlaring ishqи, bilommam,
Menga rohat, yo azob,
Bu ilonning jonga solgan
Zahrimu yo qandimu?

Soch meni devona etgay,
Yo magar shoir qilur,
«Ul pari avlodidanmu,
Yo bashar farzandimu?»



UYG'OTMAGIL...

Tushda ko'rdim dilbarimni,
Ey sabo, uyg'otmagil,
Olma bir dam vasl shavqin,
Qo'y, meni qo'zg'atmagil.

Necha kunlar axtarurman,
Ko'zlarimda uyqu yo'q,
Uyquda topdim nihoyat,
Endi sen ajratmagil.

Sochlarin bo'ynimga bog'lab
Shod erurman bu kecha,
Qo'y, chamanlardan, sabo,
Gul atrini tarqatmagil.

Sevganim, xurshid jamolim
Vaslidan xushnud ko'ngil,
Sen quyoshni ko'zlarimga
Bir nafas ko'rsatmagil.

Lablarimda kulgu, go'yo
Tushda qand ko'rghan go'dak,
Qo'y, shakar labdin ayurma,
Sen meni yig'latmagil.

Gar yo'qotsam bu kecha men
Qayga borgum axtarib,
Tushda ko'rdim dilbarimni,
Ey sabo, uyg'otmagil.



SEVGI KELSA

Sevgi kelsa qaddi yo ham yosh bo'lur,
Sevgisiz jonona haykaltosh bo'lur.

Mehri yo'q dildorni quchma, toshni quch,
Tosh senga malham bo'lur, sirdosh bo'lur.

Sevgi faslida tikandan gul unar,
Sevgi ko'yida shamol farrosh bo'lur.

Ko'ngli yotlar bazmi jamshidi – azob,
Yor bilan bo'l, qum yesang ham osh bo'lur.

Chin muhabbat ming jafoga dosh berar,
Lek xiyonatga u bebardosh bo'lur.

Bevafolikni yashirsang, yer ko'mar,
Lekin osmonlarda bir kun fosh bo'lur.

G'urbat ichra botdi mag'ribga quyosh,
Ufq emas gulrang, bu qonli yosh bo'lur.

Ishq yo'lin firdavs yo'li deb anglagil,
Pok diling, Erkin, bu yo'lda bosh bo'lur.

1992

KIMNI ETMAS BU KO'NGIL SHAYDO

Dunyo ekan...

Ishq degan savdo

Bormi faqat mening boshimda?!

Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,

Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

Sevgi ilk bor tushdi-yu qalbga

Hayotimning bo'ldi mazmuni.

U qo'limga tutqazib qalam,

Ko'zlarimdan oldi uyquni.

Oldi butun fikr-u xayolim,

Ketdi dildan orom, halovat.

Sevgi butun borimni olib,

She'r zavqini qoldirdi faqat.

Borliq olam ko'zimga ming-ming

Go'zallikka to'lib ko'rindi.

Gullar menga oshiq bulbulning

She'r daftari bo'lib ko'rindi...

Ayb etmangiz,

Do'stlar, bu savdo

Bormi faqat mening boshimda?

Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,

Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

Ko'yida men tosh boshimni

Urmagan ostona yo'q,

Elda bor shunday masal:

Jon chekmasang jonona yo'q.



Sevgi vodiysida menga
Teng bo'lolgay qaysi Qays?!
Ko'nglim ochsam, ikki dunyo
Bu kabi afsona yo'q.

Shahr ichida holatimdan
Kulmagan bir oqil-u
Xilvat ichra menga ulfat –
Bo'lмаган devona yo'q.

Ne ajabkim, mast bo'libman
Ko'zlaringga termilib,
Yetti iqlimda bu yanglig'
May yo'g-u mayxona yo'q.

Ishq g'amin aytsam qalamga
Ich-etin kuydirdi ul,
Sevgidek o't yo'q jahonda,
Men kabi so'zona yo'q.

Oq qog'ozim, senga Erkin
Ochdi pinhon ishqini,
Sen bor-u men bor, qalam bor
O'rtada begona yo'q.

SEVGI SHUNDAY NAVBAHORKI

Sevgi shunday navbahorki,
U tikandin gul qilur.
Toshga jon-u til bag'ishlab,
Zog'ni ham bulbul qilur.

Sevgi shunday dard erurki,
Barcha bo'lg'ay mubtalo,
Mubtaloni neki qilsa
Telba bu ko'ngil qilur.

Sevgi shunday tangridirki,
Unga tengdur shoh, gado,
Qulni aylab shoh-u sulton,
Shohni bo'lsa qul qilur.

Sevgi shunday bir olovki,
Jonga undan yo'q omon,
Gulxanida o'rtab-o'rtab,
Bir kun oxir kul qilur.

Sevginingdir hukmi mutlaq,
Istasa shaydolarin
Chashmi giryonidan ummon,
Ohidan dovul qilur.

Sevgiga she'r bitding, Erkin,
Besabab ermaski, ishq –
Aylagach ko'ngulni ishg'ol,
She'r ila mashg'ul qilur.



SEVGI

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bo'g'ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to'rt satr,
Sirdoshiga asta ko'rsatib,
Qo'shni qizga bermagan kim bor.

Dastlab har kim qalam olgan on
Yonib seni kuylar begumon.
Maskan qurib har bir ko'ngildan,
Oshiqlarni qoldirib tildan,
Shoirlarni qilursan biyron.

Tushdim chog'i men ham domingga,
Ezgu hislar baxsh etding menga,
Hayotimga zar lavha bo'lding,
Ilk she'rimga sarlavha bo'lding,
Xayollarim ulfatdir senga.

Yuragimda his etdim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,
Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g'amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor...



NETAY

Men sevarman jondan ortiq,
Sevganim suymas, netay?
Ham sevib men sevmagan
O'z holima qo'ymas, netay?

Bul menga jonin fido aylar
Va lek men beiloj,
Men yonarman ishq o'tida,
Sevganim kuymas, netay?

Bul mening yonimda hargiz,
Erta-kech parvonadir,
Shafqat aylab men sari ul
Bir qadam qo'ymas, netay?

Bu yurak ohiga yetmay
Yonsa ko'nglim bir tomon,
Bir tomon dil hasratimni
Dilbarim tuymas, netay?

Boshim aylandi manim,
Do'stlar bu ishq savdosida,
Sevdi bul, men sevmadim,
Men sevdim, ul suymas, netay?



TUN BILAN YIG'LABDI BULBUL...

Tun bilan yig'labdi bulbul
G'uncha hajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib
Qolmish uning yaprog'ida.

Ko'z yumar bo'sam, ko'zim -
Oldida paydo gul yuzim,
G'uncha ko'z ochmog'i bor
Bulbul ko'zin yummog'ida.

Asta barg ostida tinglab
Yotgan ermissh sho'x sabo,
G'uncha bulbuldan muhabbat
Darsin olgan chog'ida.

Sevgi sahrosida qolmish
Necha Majnundan g'ubor,
Necha Farhod gardi yotgay
Bisitunning tog'ida.

G'unchadek chehrangga Erkin
Jon fido etgay, sanam.
Qatra qonidan gul unsin
To muhabbat bog'ida.

BIR GO'ZALKIM

Bir go'zalkim, husnidan el
Lol emish, hayron emish,
Ishqi birlan dillar obod,
Xonumon vayron emish.

Nuqtadek bir xoli bormish
G'uncha labning ustida,
Ul biri oshkor emishdir,
Ul biri pinhon emish.

Sangi dilning hasratida
Qancha dillar dard chekib,
Ko'zlarining g'urbatida
Qancha ko'z giryon emish.

Barcha shaydolarning ohi
Jam esa mahshar bo'lib,
Xuni dil ko'z yoshlaridan
Bir buyuk to'fon emish.

Qilgay ermisht mutribi ishq
O'z maqomini iroq,
Shul sabab ohangi ushshoq,
Giryayi afg'on emish.

Ko'yida yotmisht ko'ngillar
Misli singan ko'zgudek,
Vohki, har bir parchasida
Ul ruhi tobon emish.

Ul go'zal olmoslik ermisht,
Kim parilar zotidan,
G'oyibona oshiq Erkin
Tolibi davron emish.



SURMA

Aslida kim qarardi
Yotganda xor surma,
Bo'ldi aziz, ko'ziga
Surtganda yor surma.

Ko'zda qaro na iz bul,
Tun dog'idan asarmu,
Mayxona kezdim-u yo
Mastonavor surma.

Yor ko'ziga yetishmak
Savdo ekan-ku dushvor,
Yonib ko'mir bo'libdi
Bechora zor, surma.

O'rtańma, kuyma ortiq
Jismim qaro ekan deb,
Ishq yo'lida qarolik
Taqdirda bor, surma.

Ming yil yotib seningdek
G'am tog'ining tagida,
So'ng mayli bo'sam oxir
Tolega yor, surma.

Yor ketdi-yu, qolibdir
Yo'l o'rtasida Erkin,
Ko'nglida surma-yu ko'z,
Ko'zda g'ubor surma.

BIR QADAM

Ikkimizning o'rtamizda
 Yo'l, diloro, bir qadam.
 Shunchalar mushkulmi qo'ymoq
 Senga, zebo, bir qadam.

Ko'zlarimning nuri bo'ldi
 Yo'lga poyandoz, kel.
 Sen qasam ichdingmi yo, deb –
 Qo'yamam aslo bir qadam.

Men seni Zuhro-yu Oy deb
 Iltijo qildim va lek
 Sen yiroqsan, garchi menga
 Oy-u Zuhro bir qadam.

Parda ichra oftobim,
 Yonida men nurga zor,
 Tashnaman, qirg'oqdadurman –
 Bunda daryo bir qadam.

Ne ilojkim, sevgi rasmi
 Shul ekan taqdir azal,
 Hech pisand ermas masofa,
 Mushkul, ammo bir qadam.

Intazorlik telba qildi,
 Telbalikka yo'q iloj,
 Jonidan kechgan kishiga
 Ikki dunyo bir qadam.

Bas, shikoyat qilma, Erkin,
 Jur'at aylab yo'lga chiq,
 Senga bir odim Samarqand,
 So'ng Buxoro bir qadam.

1976



SAMAR BO'LG'AY

Seningsiz menga kom yo'qdir,
Asal ichsam zahar bo'lg'ay.
Sening birlan shirin so'zim,
Zahar yutsam shakar bo'lg'ay.

Yuzingga bir umr boqsam
To'yurmi ko'z, qonurmi dil,
Na undan belgi paydo-yu,
Na bundan bir asar bo'lg'ay.

Ikki yor vaslini istab
Ikki ishq so'zin eshitsam,
Ikki ko'zim ko'r-u, ikki
Qulog'im, mayli, kar bo'lg'ay.

Ko'zing uchganda ko'nglimni
Olib kipriklaringga qo'y,
Qosh-u mujgonlaring ko'nglim
Qushiga bolu par bo'lg'ay.

Tirilsa nogahon Farhod,
Yuzingni ko'rsa ko'zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil
Ko'yingda darbadar bo'lg'ay.

Habibim band etar ko'nglim,
Tabibim pand etar doim,
Bilolmasman, bu savdoda
Na sudu na zarar bo'lg'ay.

Muhabbat nogahon dilda
Yozib kurtak, ochibdir gul,
Umidvor Erkinning, jono,
Bu guldan bir samar bo'lg'ay.

RASHKIM

Seni yotlar tugul hatto –
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.

Ko'zim yongay senga nargis –
Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.

Degaylarki, charos-u
Ol gilos olmish labingdan rang,
Labing tegsa hasad qilgum
Gilos birlan uzumdan ham.

Seni jonim dedim yolg'iz,
Seni qalbim dedim tanho,
Chimirding qosh, pushaymonman
Qo'pol aytgan so'zimdan ham.

Visol onida ko'z ochsa,
Ne tong, tongdan ko'ngilda ranj,
Judo qilgay meni oy yuz,
Xumor ko'z yulduzimdan ham.

Senga o'n to'rtda bog'landim,
Hanuz erkin bo'lolmas dil,
O'zim dog'man, aql kirmas,
To'zimsiz o'ttizimdan ham.



SHOHIGUL

Otashin gul uzdim, ol, bu –
Shohigullar shohi gul.
Gul sochiq yo'llarda bo'lsin
Gul yuzim hamrohi gul.

Shohigul ermas bu, o'tlug' –
Yuzlaring hijronida,
Intizor bog' ko'ksidan
Chiqqan fig'on-u ohi gul.

Ishq elining qatra-qatra
Qonidan ungan chechak,
Sevgining oshiq ko'ngillarga
Olovli chohi gul.

Bilgali ko'nglingni, kirsam
Bog'ing ichra har zamon,
Shohigulga yolvorurman,
Sirlaring ogohi gul.

Bu jahon gulzorida
Har bir chechakning o'rni bor,
Xoh tikandir, xoh pechakdir,
Xohi yaproq, xohi gul.

Gul emas, Erkin qo'lingga
Tutdi o'tdek qalbini,
Otashidan qo'rqma, ol,
Ol, kuymagaysan, Mohigul.

1967

FIROQ HAQIDA

Sen yiroqda,
Yoring yiroqda,
O'rtanadi joning firoqda,
Tugab borar bardosh – saboting,
Uchay desang, yo'qdir qanoting.
Sevar yoring vasliga mushtoq
Kechalaring o'tadi uyg'oq...
Ammo g'amdan boshingni bukma,
Shahlo ko'zdan yoshingni to'kma.
Dilbar, buni firoq dema hech,
Yorim mendan yiroq dema hech.
Chunki ora kirib joningga,
Bag'ring bir kun kelar yoningga.

Seni nohaq
Ranjitdi yoring,
Yo o'zgadan rashk etdi yoring.
Nolishingga qulq solmadi,
Izhoringdan ko'ngli qonmadi.
Ketdi boqmay hatto qayrilib...
Sen buni ham dema ayriliq.
Dil o'rtama, yig'lama aslo,
Sen bu hijron zulmati aro
Pok sevgingni aylagin chiroq, –
Visol bilan almashur firoq.

Sen sevasan,
Sevmaydi yoring,
Yor ko'ngliga yetmaydi zoring.
Sevganiningni yoki bilmaydi,
Yo bilsa ham ko'zga ilmaydi.
Ayriliqda yonasan biroq –
Sen buni ham atama firoq.

Chunki sevging bo'lsa agar chin
Hijronlarni qilar chilparchin.
Ishon faqat, hech tolmay ishon,
Ishonch bo'lsa chekinar hijron...

Yoring bo'lsa
Yoningda doim,
Yoring bo'lsa – ko'rkam, muloyim,
Har oningni kechirsang birga,
Birga bo'sang butun umrga,
Hayot qurib ulab jonga jon,
Yashasang-u yillar yonma-yon –
Ammo bo'lsa ko'ngillar yiroq,
Dunyoda yo'q bundan zo'r firoq.
Bu firoqqa sira yo'q davo,
Bu firoqqa yo'liqma aslo!

1961

QARO QOSHING

Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
Qilur qatlima qasd qayrab –
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,
Qanot qoqmoqqa qo'ymsan.
Qarab qo'ygil qiyo,
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

ISHQ ISTILOSI

Ko'ngul mulkini toroj –
Aylagan ishq istilosidir.
Na bo'lgay oxiri, bu
Istiloning ibtidosidir.

Degaylar, do'stlikdan –
Boshlanur ishq, aksi ermasmi,
Biz endi do'st, dedi yor,
Oh, bu sevgi intihosidir.

Baland parvoz etar yor –
Dil qushi, ko'zlarni dom aylab,
Uni sayd aylamoq yo
Har ko'ngilning muddaosidir.

Nechun husn-u sadoqatni
Egiz tug'mabdi bu olam,
Tabiat qasdidir yoki
Bu ham bitta xatosidir.

Ko'ngil dardini aytib
Yig'lamasman ko'cha-yu ko'yda,
O'zi ko'nglimga dard solgan,
O'zi bu dard davosidir.

Topindim yor – sanamga men
Muhabbat sajdagohida,
Biling, dinsizlar osiymas,
Muhabbatsizlar osiydir.

Jafo qil, mayli, dilbar,
Vasl umidin ko'ymagay Erkin,



Yotar yo'lingda ko'nglim –
Bir shirin so'zning gadosidir.

1968

DILDA ISHQ DARYOCHADIR...

Ahli she'r balki kitobim
Nazmi ishq deb ochadir,
Yo'q, kitobim sevgining
Devoniga debochadir.

Ko'zlarining orzusida
Tuzdim navo, zebo sanam,
Nastarin ko'z ochib aytsin,
She'ri ham zebochadir.

Balki u zebocha ermas,
Balki u bir g'unchadir,
Husning oftobida ammo
Kun sayin zeb ochadir.

Voh, ajab, nomingni aysam
Lol bo'lur til ham ko'ngil,
She'r ipi nogoh qalamning
Ignasidan qochadir.

Erkining devonidan hech
To'lmasa ko'ngling, ne tong,
Tilda she'r bir qatra bo'lsa,
Dilda ishq daryochadir.

1968

UZUM

Termular shabnamli yaproq –
Ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab
Tong sahar giryon uzum.

Oftob mashshotasi
Tok sochini nurdan tarab
Zangining bo'yniga osmish
Shodayi marjon uzum.

Toqi ishkom misli osmon,
Har taraf yulduz sochur.
Voh ajab, bu ne sinoat,
Yer uzum, osmon uzum.

Tark etib ko'shkin, savatga
Qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichida
Bo'ldi sargardon uzum.

Kimki oshiqlikni da'vo
Aylasa shuldir jazo.
Oqibat xum ichra bo'ldi
Mahkumi zindon uzum.

Xum ichida necha yil
Xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir
Bir piyola qon uzum.

Bir qadah gulgun sharob
Tutdim senga, bir ho'plading,
Toleyimdan voladurman,
Baxtidan hayron uzum.



Ey diloram, senga Erkin
Tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil
Qon bo'ldi bu devon – uzum.

1967

NA QILSIN

Ishq ahlidir parishon,
O'zga bino na qilsin.
She'r ahlidir devona,
Kibr-u havo na qilsin.

Husn asli bevafo-ku,
Gar unga bo'ssa mag'rur,
Husn ahlining o'zida
Sidq-u vafo na qilsin.

Ishq ofatiga oshiq
Dil amri birla kirkay,
Dard ila shod ekan ul,
Malham, davo na qilsin.

Ko'rsat o'zingni – shu bas,
Ko'nglimda boshqa o'y yo'q.
Ayb etmagil tikilsam,
Ko'zda balo na qilsin.

Yor vaslidan topolmas
Erkin diligiga taskin,
Afsus demakdin o'zga
U mubtalo na qilsin...

1968

SHIRIN

Dilkusho do'st, dilrabo yor –
Birla kechgan dam shirin.
Do'st-u yor birlan hayot-u
Siynayi olam shirin.
Sevgi zavqi bir tomon-u
Boda kayfi bir tomon,
Qay bri ortiq shirindir,
Qay birisi kam shirin.
Ikki gulgun chehra bo'lsa,
O'rtada gulgun sharob,
Men uchun maydin ham ortiq
Suhbati hamdam shirin.
Bu jahonda, deydilar,
Har kimda bor bir o'zga ta'b,
Menga may, bulbulga tong
Gul bargida shabnam shirin.
Sevgining dardi faqat
Beishq uchun begonadir,
Ishqi yor bo'lsa firoq –
Chekkanda hatto g'am shirin.
So'yla, do'st, gulgun sharobning
Kayfidan ortiq na bor?
Bo'sadan lablarda qolgan
Jon suvidek nam shirin.
Ey gulim, sevgim haqi,
Maydan meni qilma judo,
Menmi, ul ortiq dema,
Sen ham shirin, ul ham shirin.

1967



KO'ZING

Hajrdan tor bu ko'ngilga
Shu'la afshondir ko'zing,
Yo magar ko'nglim yo'qolgan
Tor shabistondir ko'zing.
Ham qorong'u kechadir ul,
Ham yorug' kunduz menga,
Ko'zlarimda kecha-kunduz
Chun namoyondir ko'zing.
Husn ahli ichra tengsiz
Sen-ku xoqonsan o'zing,
Sehr mulki ichra tanho
Shoh-u sultondir ko'zing.
Turfa bu jodularingga
Termulib lolmen bukun,
Ko'zlarim hayronlig'iga
Nega hayrondir ko'zing?
Hislarimning yelkanida
Bir adashgan yo'lchiman,
Sevgi bo'ronin yuborgan
Cheksiz ummondir ko'zing.
Ko'zlaring yulduzmi, yo'q,
Yulduz erur har uchquni,
Qorachig' kuygan quyosh-u
Moviy osmondir ko'zing.
Yor ko'zin ummon deb aytding,
Unga suv to'kmoq nechun? –
Bas, ani ko'rganda, Erkin,
Nega giryondir ko'zing?

1967

BANDI ZULF

Voh ajabkim, zulfingga dil
Qayta-qayta bo'ldi band.
Necha-necha band bo'lishdan
Ul yemabdir zarra pand.
Ishq so'zin takror etibdir
To'tidek har dam tilim,
Chunki bu til lablaringdan
To'ti yanglig' so'rdi qand.
Shafqat istarman dilingdan,
Gul yuzingdan bir visol,
Ko'zlariningdan may so'rarman,
Lablaringdan no'shxand.
Sunbuling gar dom erursa,
Doimo men band bo'lay,
Dard esa ishqing, bo'lay men
Bir umriga dardmand.
Hajr kuydirgay emishdir,
Vasl o'ldirgay emish,
Keñ, meni kuydirma, o'ldir,
Menga o'lmoq ne pisand?
O't yoqib ketding yurakka,
Men tiyarman ko'z yoshim,
Chunki istarman, bu gulxan
Doim o'lsin sarbaland.
Tashlading band aylab avval
Ne uchun Erkin dilin,
Yolda qolmish ohu yanglig',
Bo'ynida tori kamand.

1967



DOSTONGA YOZ

Kel, muhabbat lazzatin
Ta'rif etib dostonga yoz,
Turfa gullardan tikib,
Har baytini bo'stonga yoz.

Sevgi nazmiga jahonning
Gulistonni yetmagay.
Nur qalam birlan muhabbat
Sharhini osmonga yoz.

Lolagun aylab yana
Mag'rib-u mashriq ufqini,
Bir g'azal vasliga baxsh et,
Bir g'azal hijronga yoz.

Ta'rifi ishq dardiga
Etgin yurak qonin siyoh,
Dilga yoz dilbar so'zin,
Jonon so'zini jonga yoz.

Dardni sen har kimga aytib
Oh-u faryod etma ko'p,
Kuysa joning, jonajoning,
Shavqi jon jononga yoz.

Bahrasiz oldida, Erkin,
Ochma ko'ngil daftarin,
Neki yozsang, dil so'zini
Anglagan insonga yoz.

1967

VISOL SOG'INCHI

Yor vaslini sog‘insam
Sayr etaymu bog‘-rog‘,
Bog‘-rog‘ sayr etganimdan
Ko‘nglim o‘lmas chog‘rog‘.

Xushlamas hijronda ko‘nglim
Lolazor sayrini ham,
Chunki bag‘rim lolaning
Bag‘ridan ham dog‘rog‘.

Gar sog‘inchim sharhin aytsam
Yondirar Farhod o‘zin,
Yo ochay Majnunga dardim,
Ul-ku mendan sog‘rog‘.

Dardlashurga do‘s^t qani-yu,
Dillashurga yor qani,
Topganim ul oshnorozdir,
Bul esa o‘rtog‘rog‘.

Intizorlik dardin, Erkin,
Haddi yo‘q, poyoni yo‘q,
Yor ozor topmasin deb
Men qo‘sharman «rog‘-rog‘».



LOLA SAYLI

(*Badiha*)

Taklif etdim tong bilan
Dildorni lola sayliga,
Boshim osmonlarga yetdi
Yor deganda «mayliga».

Keng jahon bo'ldi munavvar
Lutfidan, evoh, qani,
Sidqi dildan yursa dilbar
Doim oshiq mayliga.

O'yladim shu tong, necha yil
Dasht-u sahrolar kezib,
Taklifi sayl aylamabdir
Ne uchun Qays Layliga!

Bu xayolim yorga aytsam,
Kuldi-yu, berdi javob:
Ahli ishq ham boqqay albat
O'z zamonin zayliga.

Lola terdik dasta-dasta
Kech bilan qaytdik shahar,
Yo'lda bir-bir tarqatib
Erkin muhabbat xayliga.

XAYOL

Kechalar kipriklarimda
 Tarki xob aylar xayol,
 O'z hayotimdan o'zimga
 Sarhisob aylar xayol.
 Qissa aytur moziydin goh,
 Ertadan afsona goh,
 Goh savol aylar ko'ngilga,
 Goh javob aylar xayol.
 Ko'kda suzgan oyni ko'zga
 Bir kichik fonus etib,
 Pirpirab yonguvchi shamni
 Mohi tob aylar xayol.
 May to'la jom ichra to'fon
 Mavjini paydo qilur,
 Tong shafaq alvonini
 Gulgun sharob aylar xayol.
 Ming asrlar kori holin
 Qilgay u bir soniya,
 Lahzaning mazmunini
 Ming bir kitob aylar xayol.
 Neki zabit etmish shuur,
 Bois xayol o'lsa, ne tong,
 Dilga parvoz ayla deb
 Mangu xitob aylar xayol.
 Bu shitob asrim xayolga
 Etdim-u tezlikni baxsh,
 Bilmadim, asrimni olg'a
 Yo shitob aylar xayol.
 Bor ekan inson qo'lida
 Orzu yoqqan chiroq,
 Bu chiroqni, o'yla, bir kun
 Oftob aylar xayol.



Men xayolni she'rga soldim,
O'yparast bo'lma va lek,
Besamar bo'lsa seni
Bir kun xarob aylar xayol.
Bo'lgan, Erkin, har nafas
Ezgu xayolga oshino,
Pok esa niyat, seni
Olijanob aylar xayol.



QUYOSH

Dilbarim husniga ko'kda
 Mahliyo bo'lsin quyosh,
 Mahliyo ermas, ko'yida
 Bir gado bo'lsin quyosh.
 Ko'rmasa bir dam jamolin
 Men kabi zor yig'lasin,
 Abr ichiga berkinib
 Motamsaro bo'lsin quyosh.
 Gar havas qilsa nigorim –
 Husniga, barq ursin ul,
 Rashki kelsa kuysin-u
 Yonsin, ado bo'lsin quyosh.
 Ul kecha yor vasliga
 Yetdim deganda otdi tong,
 Qildi dildordan judo,
 Yuzi qaro bo'lsin quyosh.
 Deydilar, ishq otashidan
 Oftob ham taft olur,
 Gar isinmoq istasa
 Qalbimga jo bo'lsin quyosh.
 Bor ishonchim, bir kuni
 Yongay quyosh Qutb uzra ham,
 Muz yuraklarga va lekin
 Noravo bo'lsin quyosh.
 So'nmasin olam charog'i,
 Tinmasin nur chashmasi,
 To muhabbat umridek
 Umri baqo bo'lsin quyosh.



YOSHLIGIM

Yoshligim, kel, kuyga to'lgan
Qalbim oltin sozi bo'l,
Men qo'shiq aytay to'lib,
Bir lahza jo'r ovozi bo'l.
Dilga oqsin baxtli umrim
Kuy bo'lib, ohang bo'lib,
Sen uning «Oromijon»i,
«Gulyor»u «Shahnozi» bo'l.
Orzu-istikdin-ku shodon
Dilga bog'absan qanot,
Bu tilak osmonining
Doim baland parvozi bo'l.
Ketmagin aslo, hayotim
Gulshanin tark etmagil,
Bir umr men birla qolgin,
Bu ko'ngil hamrozi bo'l.
Yoshligim dostoniga men
Shu'ladin yo'ndim qalam,
Ey sahar ufqi, uning sen
Zarvaraq qog'ozi bo'l.
Yoshligim, sen menga bergen
Kuch, shuuring, g'ayrating
Xalq-u yurtga baxsh etolsam,
Shunda mendan rozi bo'l.

1959 – 1967

SEVGINI TORTIB BO'LURMU...

Sevgini tortib bo'lurmu
Tosh-u tarozu bilan,
Mehrni o'lchab bo'lurmu
Zar bilan, inju bilan?

Ayt, qachon ko'nglimga solding
Ishq o'tin, ey sohira,
Dil o'zi bog'lardim, yo
Bog'lading jodu bilan?

Men senga ko'nglimni ochdim,
Ha deb ayt, yo yo'q deb ayt,
Buncha qiyaysan dilimni,
O'rtama kulgu bilan.

Nega senga tik qarolmam,
Ko'zlarining oftobmi, yo
Oftob aksin ko'zga solding
O'ynashib ko'zgu bilan.

Vasl umidin tark etolmay
Intilar ko'nglim senga,
Umrini oshiq hamisha
O'tkazur orzu bilan.

1968



SENGA BAXTDAN TAXT TILARMAN

*Sen g'anisan, menda bisyor ehtiyoj.
Nodirabegim*

Senga baxtdan taxt tilarman,
Toledan boshingga toj,
Mulki husningga omonlik,
Toj-u taxtingga rivoj.

Toj-u taxt tashbehidan sen
Ko'hna deb kulsang netay,
Sen axir shohi jahonim,
Men qulingman, ne iloj?

Ne ilojkim, davlatim yo'q,
Ganji mehrimdan bo'lak,
Bul evazdan ko'z to'laydur
Qatra-qatra dur xiroj.

Ko'zlarim aylar hamisha
Arzi muhtojlik senga,
Ayt-chi, jonim, bormi senda
Ko'z yoshimga ehtiyoj?

Ko'p nasihat tinglab Erkin
Qilmadi hech tarki ishq.
Bor masalkim, ish yurishmas
Sohibi gar bolsa koj.

GULMIDI, RAYHONMIDI, JAMBUL

Gulzor ichida gulmidi,
rayhonmidi, jambul,
Yo jambul-u rayhon-u gul
uzguvchi sanam bul.
Valloh, bu sanam, odam emas,
necha so'z aytsam,
Odam deya bir boqmadı,
e voh, ne odam bul?
Chaqmoq kabi bir lahza
nasib etdi visoli,
Endi menga yor turk go'zali
hajrida g'am bul.
Izlab necha kun shahrida
ovora bo'libman,
Istanbul emas, oshiq uchun
jonga sitam bul.
Shul yoshda yonib sevgini
nazm etsa ne aybkim,
Erkin yuragi ishq o'tida
kuyuchi sham bul.



DILDORGA NOMA YOZDIM

Gul bo'ylarini bog'dan keltirgan ey shabboda,
Dildorga noma yozdim, yetkur uni havoda.

Yetkur uni va lekin, ko'ngliga qayg'u solma,
Sharhi dilim etarda bo'lsin tiling navoda.

Hasrat to'la so'zingdan ozor topar nigorim,
Ramzi ishora birlan qilgin uni ifoda.

Gulbargi lolani elt, qo'ygin qadah yoniga,
Yuz hajrida yurak qon misli qadahda boda.

Bargi xazonni olib yoniga qo'ygin-u ayt:
Bu oshig'ing yuzi deb hijron degan baloda.

Gul shoxidan tikan uz, gulbargi lolaga sanch.
Ko'ksimga tig' uraymi, hech qolmadi iroda.

Sahro g'uboridan elt, hozirligimni bilsin
Men dashti Karbaloni kezmoqqa ham piyoda.

Bir tola kiprigimni eltib oyog'iga qo'y,
Bedor ko'zim yo'lida har shom ila saboda.

Dildorga noma yozdim, yetkur o'zing, men ojiz,
Gul bo'ylarini bog'dan keltirgan ey shabboda.

SIR AYTAR G'UNCHAGA G'UNCHA...

Sir aytar g'unchaga g'uncha,
Ko'ngil ko'ngilni angraydir.
Kabutarni kabutar o'pgay-u
Gul gulni tanlaydir.

Misoli ikki yulduzni
Qo'shar taqdir yigit, qizni,
Agar yor anglamas bizni,
Iloj ne, sho'r bu manglaydir.

Chamanlar ichra rang tanlab,
Parivashlar bo'yaydir lab,
Mening yorim labin, yo rab,
Yurak qonimga ranglaydir.

Qoshi ham o'smadan zangor,
Dema zangor, erur zangbor,
Nechukkim qon to'kib xunxor
Qilichlar bo'yla zanglaydir.

G'am-u hajr-u jafolarda
Yonar bulbul navolarda.
U bulbulmas, samolarda
Mening dodim jaranglaydir.

1993



OYNING O'N BESHI QORONG'U

«Umrini oshiq hamisha
O'tkazur orzu bilan».
Oyning o'n beshi qorong'u,
O'n beshi yog'du bilan.

Sevgida ko'ksingga tomgan
Ko'z yoshingdan foyda yo'q,
Ishq axir shunday olovki,
O'chmagay u suv bilan.

Zahmati ishq dard erursa,
Zahmati she'rdur davo,
Chunki, og'uning shifosi,
Deydilar, og'u bilan.

Barcha zahmat menga bo'sin,
Mayli, doim men yashay
Bu ajib totli azob-u
Bu shirin qayg'u bilan.

Yoshligim – umrim nahori,
Ishqu she'rsiz ne hayot?
Tongni yolg'iz g'aflat ahli
O'tkazur uyqu bilan.

Yorni men jonim deb aytsam,
Iltifot deb o'ylama,
U yashar mensiz va lekin
Men tirikman u bilan.

1968

KEKSALIK GASHTI

Qarilik gashtini maqtashdan ko'ra,
 Muxbir bolam, uni bizlardan so'ra.
 Mana, biz bu gashtni surayotirmiz,
 Ertalab inqillab turayotirmiz.
 Og'riqdan qaqshagan belimiz silab,
 Kavushimiz sudrab, chunon imillab,
 Belimiz changallab yurayotirmiz,
 Qarilik gashtini surayotirmiz.
 Bilakdan kuch ketgan, ko'zdan esa nur,
 Pashshamizni zo'rg'a qo'rayotirmiz.
 Bir mahal «oq» urib qillardik huzur,
 Endi «valokardin» urayotirmiz.
 Kelar ichimizdan xo'tsiniq chuqur,
 Asqar tog' edik-ku, nurayotirmiz.
 Ko'namiz, ne iloj, shunga ham shukr,
 Harqalay ko'z tirik, ko'rayotirmiz.
 Qarilik gashtini surayotirmiz.
 Qarilikni havas qilmagin, bolam,
 Yomon ko'rinati ko'zingga olam.
 Qariganda achib qolarkan odam,
 Ba'zan bobov bo'lib hurayotirmiz.
 Qarilik gashtini surayotirmiz.
 Qarilik gasht emas, yulg'unli dasht ul,
 Qarilik tikandir, yoshlik esa gul,
 Yoshlikka ne yetsin, u o'zi ma'qul.
 Yoshlik xazinadir, qarilik – bir pul.
 Yigitlarga aytar nasihatim shul:
 Yosh yoshlikda yoshlik gashtini sursin,
 Keksalik ham kelar, uni ham ko'rsin,
 Hozircha qarishga shoshmasdan tursin –
 Belangisi qursin, yo'tali qursin.
 Agar ma'qul bo'lsa faxriy degan nom



Barcha nishonimiz olib, bir oqshom
Yoshligini bizga qarz berib tursin.
Qarilik gashtini maqtashdan ko'ra,
Muxbir bolam, uni bizlardan so'ra.

1996

MUBORAKBOD

Ikki yonbag'irdan tushgan qo'sh irmoq
Birikib soy bo'lib oqqani kabi,
Qamar ko'zgisi-yu quyosh shu'lasi
Uchrashib oy bo'lib boqqani kabi.

Qarchig'ay kiftida tutash qo'shaloq
Qanotin falakda qoqqani kabi,
Zaminda uchrashib oftob bilan suv
Zamin ko'ksiga gul taqqani kabi.

G'ijjak torlarida uchrashgan simlar
Kuy bo'lib dillarga oqqani kabi
She'r uzra tutashgan qalam va qog'oz
Yuraklarga olov yoqqani kabi.

Bu kun ikki yurak – ikki kabutar
Bir sevgi navosin chalmoqda xassos.
Ikki chamanzorning ikki chechagi
Bir yangi gulshanga solmoqda asos.

Bu gulshan uyingiz muborak bo'lsin,
Muhabbat to'yingiz muborak bo'lsin.

1996



* * *

Siz mening osmonim, mohitobimsiz,
Mohitobim emas, oftobimsiz,
Ishonchim, quvonchim, yupanchim, yana
Sog'inchim, o'kinchim, iztirobimsiz.

Siz mening qalbimsiz, qalbimdagi she'r,
Bitmoq orzu qilgan bosh kitobimsiz.
Sevgim, umrim, yana umrim davomi,
Baxtim, rohatimsiz va azobimsiz.

Sizdan shodlik ko'trib ko'zlarimda nur,
Alam cheksam mayli, shunga ham shukr,
Bu dardli dunyoda yaxshiki borsiz,
Borligingiz uchun sizga tashakkur.

1998



Inson o'zing

*Bo'lmasin subhing qaro,
Bor bo'l mudom borliq aro,
Ozni etgil doimo
Inson o'zing, inson o'zing.*



INSON*Qasida*

Sobit-u sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing.
Mulki olam ichra bir
Xoqon o'zing, sulton o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams – dil taftingdadur,
Sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
Bog'bon o'zing, posbon o'zing.

Bu yorug' dunyo nadur?
Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur,
Mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shoh-u gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Sen balo, ham mubtalo,
Xayr ila kin, rost-u riyo,
Fitnagar olam aro
Fatton o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,
Piri adovat gohida,



O'z diling dargohida
Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

Xormisan yo gulmisan,
Tojdormisan yo kulmisan,
Chug'zmisan, bulbulmisan,
Nodon o'zing, xushxon o'zing.

Bu hayot o'rmon ekan,
Jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan,
Sirtlon o'zing, jayron o'zing.

Bu hayot ummon ekan,
Ummon abad gardon ekan,
Qatradek sarson ekan,
Sarson o'zing, gardon o'zing.

Mash'ali fikrat – sening,
Ham changali vahshat sening,
G'ayrat-u g'aflat sening,
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qilding-u oyda xirom,
Ham yerda qon to'kding harom,
Ushbu holingdan mudom
Xandon o'zing, giryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,
Chiqding funun osmoniga,
Bu jahon ayvoniga
Arkon o'zing, vayron o'zing.

Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog'i arz obod erur
Sendin agar imdod erur,
Yo'qsa u barbod erur,
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,
Tavrot, Zaburdin yuksalib,
Boymisan yoki g'arib,
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,
Irq, qon talash, imon talash,
Shulmi insondek yashash,
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Mamlakatga mamlakat,
Millatga millat bo'lsa qasd,
Qilg'uvchi so'ng oqibat
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onayizoring – zamin,
Tanho yo'g'-u boring – zamin,
Xasta bemoring – zamin,
O'g'lon o'zing, darmon o'zing.

Bag'rida yotguchi – sen,
Ne'matlarin totguchi sen,
Tig' bo'lib botguchi – sen,
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otguvchi – sen,
Zuhroni uyg'otguchi – sen,



Uyquda qotguchi – sen,
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.

Kelding olamga, demak,
Yetmas uni so'rmak, yemak,
Yerni etmog'ing kerak
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

So'zga ham poyon bo'lur,
Yozsam yana devon bo'lur.
Rustami doston bo'lur,
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,
Bor bo'l mudom borliq aro,
O'zni etgil doimo
Inson o'zing, inson o'zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun
Yozding dilingdan bir tugun,
Sen kim-u ne dahri dun,
Byron o'zing, nodon o'zing.

1973

O'ZBEK NAVOIYNI O'QIMAY QO'YSA...

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Aldangani, alla bo'lgani shudir.
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salsa bo'lgani shudir.

El komil bo'lmasa yurt emas ulug',
Beqadr mahalla bo'lgani shudir.
Qalb to'la nur xalqning rizqi ham to'lug',
Ombor to'la g'alla bo'lgani shudir.

O'zbek o'zligini anglasa bekam,
Uning «Barakalla» bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo'lgani shudir.

1971 – 2000



DO'ST BILAN OBOD UYING

Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham,
Do'st qadam qo'ymas esa,
Vayronadir koshona ham.

Intizor har uy dilovar
Dilkusholar bazmiga,
Gar oyoq qo'ysa qabohat
Yig'lagay ostona ham.

Yaxshi do'stlar davrasida
Ochilursan har zamon,
Ko'rknii shoda ichra topgay
Marvarid durdona ham.

So'rma mendan, kim diloro,
Do'stmi yo jonona deb,
Do'st mening ko'nglimdadir,
Jonimdadir jonona ham.

Qochma rostgo'y do'stlarning
Koyish-u ozoridan,
Qaddi rost shamning tilidan
O'rtanur parvona ham.

Do'st qidir, do'st top jahonda,
Do'st yuz ming bo'lsa oz,
Ko'p erur bisyor dushman
Bo'lsa u bir dona ham.

Kim senga hamroz emasdир,
Beg'araz deb o'ylama,
Gohi dushmanlik qilurlar
Qo'l siqib do'stona ham.

Do'sti sodiq yo'q ekan deb
O'rtanib kuyma va lek,
Mehr uzin keng ochsang, Erkin,
Do'st bo'lur begona ham.

1967

YAXSHIDIR ACHCHIQ HAQIQAT

Yaxshidir achiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga mendek
Aldanib qolg'on yomon.

Umrizimiz aldoq jahonda
Aldanib o'tgay, va lek
So'nggi qiyngalg'on yomondir,
So'nggi qiyngalg'on yomon.

Aytgali achchiq azobing
Bo'lsa dildosh yaxshidir,
So'z demay o'tli alamni
Joningga solg'on yomon.

Jonga solg'on ham na sozdir,
Elga so'ylab men kabi
Shoiri devonayi ishq
Nomini olg'on yomon.

Gar qilich kelsa boshingga,
Qo'rqlama, Erkin, rostni ayt,
Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon.

1988



DO'STLARIMGA

Nasiba va Anvar uchun

Ko'ngil, och do'stlaringning
Vasfiga sen nazm daftarni,
Qalam gul shoxidan, ko'ngil,
Siyoh qil mushk anbarni.
Quy, ey sokiy, qadahni,
Bu kecha hattoki osmon ham
Labo-lab kosada maydek
Ko'tardi mohi anvarni.
Falak yulduzdan o't yoq mish
Bukun to'yning qozoniga,
Somon yo'lin shakar aylab,
Cho'michdek tutdi Hulkarni.
Bu oqshom ne uchun raqs
Etmasin sayyoralar xandon,
Muzayyan bir uzukka
Qo'ndirib pokiza gavharni.
Bu osmon necha ming yil
Charx urib ko'rmabdi bir bora
Bahor gulzorida o'sgan
Bu yanglig' toza gullarni.
Jahon gulzorlarin kezding,
Bukun baxtdan quvon, do'stim,
Nasib etmish senga, Anvar,
Bahor gul yuzli dilbarni.
Hayot jomin ko'tar, do'stim,
Tilak qil, sevgi bor bo'lsin,
Sira tark etmasin bu baxt
Nasiba birla Anvarni.

1967

YOSHLIGIMDA..

Yoshligimda kelgan omad
Men uchun omad emas,
Yoshlik andoq baxt erurkim,
O'zga baxt hojat emas.

Neki tole bo'lsa, ko'rsam
Deyman ulg'aygach yoshim,
Yoshligimga, chunki baxtni
Qadr etish odat emas.

Tong quvonchi birla yayrab
Nurga chulg'angan chog'im
Men uchun shomi g'aribon
Vaqt emas, soat emas.

Yoshligimda, ne taajjub,
Bilmasam do'st qadrini,
Chunki yolg'izlik, g'ariblik
Men uchun holat emas.

Tut qadah, do'stim, tilarman
So'nggi qatra lazzatin,
Kim, bu lazzatsiz hayot ham,
Boda ham rohat emas.



DO'STGA BIZ SOG'AR UZATDIK...

Mehnat-u zahmatda kechdi
Subh birla shomimiz,
Sidqdin chiqdi yomonga
Oqibatda nomimiz.

Do'stga biz sog'ar uzatdik,
Ol, dedik, do'stlik uchun,
Zahr ila to'l dirdi ul do'st,
Vah, ko'targan jomimiz.

Biz yurakda mehr-u shafqat
Go'shasin tiklab edik,
Qaysi uyga soya soldi
Bu ko'targan tomimiz?

Qaysi do'stning arpasin biz
Xom o'rib qo'ygan edik,
Boshimizga urdi-ku, oh!
Pishmagan bu xomimiz!

Olam ahli ichra biz ham
Bosh tutib yursak edik,
Noumid shayton, demishlar,
Kelgay ul ayomimiz.

Ey, olis avlod, bilursan
Biz kim-u armon nedir,
Bir zamon yetsa qo'lingga
Dardli bu payg'omimiz.

1988

QO'LLAR

Qasida

Taningda kamtarin a'zo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir,
Mudom mehnat uchun paydo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Jahonda toki bunyodsen
Ki, nomi odamizodsen,
Yurakdek tinmagan aslo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Hayot deb yerdan uzsang ham,
Najot deb ko'kka cho'zsang ham,
Tiriksan to senga oshno
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Zamin bunyodi bu qo'llar,
Uning barbodi bu qo'llar.
Saodat ham buyuk savdo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

G'azal baxsh etgan olamga,
Ajal keltirgan odamga
Bu tig'dir, bu guli ra'no,
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Sevar yorga gul uzgan ham,
Ochiq kaftini cho'zgan ham
Tilab xayr-u zakot tanho,
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Jahon da'vosini etgan,
Jahondin lek ochiq ketgan,



Iskandar ilki beda'vo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Kulol aylantirar charxin,
Qaro loy san'at o'lgay chin,
Bujur, lek san'ati zebo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Tutibdur igna jonona,
Bo'libdur she'r so'zona,
O'zi oltin, ishi tillo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Ajab, nozik bu barmoqlar
Terib misqol qilur tog'lar,
Jahonda eng buyuk kimyo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Diyorim bir saxiy soqiy,
Orol unga mayi boqiy,
Sir-u mavjli Amudaryo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Qo'yib nuqta qasidamga,
Boqarman tonggi olamga,
Quyoshdan shu'lalarmu yo
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Salom, oftob, salom, dunyo,
Salom, she'rim, seni tanho
Yurakmas aylagan insho,
Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

1975

JON TALASH

Jon bilan dil o'rtasida
 Bo'ldi ul jonon talash,
 Ne ajab, o'zbek uyida
 Doimo mehmon talash.

Mulki dil jon xayli birlan
 Yor taloshini qilur,
 Qay zamon bo'l mish ikki el –
 O'rtasida xon talash?

Jon-u dil xunrezlik aylab
 Bo'ldi oxir tilka jon,
 Dil esa majruh, anorning
 Donasidek qontalash.

Jon-u dil qildi talosh-u
 Bunda keldi ming balo,
 O'rtada men mubtalo-yu
 Zor-u sargardon talash.

Bu talosh vasfini bitsam
 Lolazor bo'lgay zamin,
 So'zlarim anjumi sig'may
 Lavhayi osmon talash.

Bilmam, ul oy jon-u ko'ngil –
 Birla kelgay, yo ketur,
 Vahki, qolmoq birla ketmoq
 O'rtasida jon talash.

Jon-ku, bir parvonadur,
 Erkin, uni hech o'ylama,
 Ishq bozorida bo'lsin
 Sen bitar devon talash.

1973



* * *

Ajab, yoshlikni ne qildim –
Faqat orzuda o'tkardim.
Hayot oldinda deb bildim,
Shu pok tuyg'uda o'tkardim.

Hamisha nenidur kutdim,
Hamisha yo'iga ko'z tutdim,
Umrning yarmini o'tdim,
Shirin uyquda o'tkardim.

Qo'nib chekkamga oq tola,
Bo'libman qirq yashar bola,
Ki, yoshlik ketdi, men vola,
Nahot, behuda o'tkardim?

Sovir bir kun yurak qonim,
Kelar osudalik onim,
Ajab tug'yonli davronim
Nechun osuda o'tkardim?

Sevib, bilmay sevish rasmin,
Tilab hijronda yor vaslin,
Muhabbatning shirin faslin,
Ko'ring, qayg'uda o'tkardim.

Qolib borliq o'zi birlan,
Boqib hayrat ko'zi birlan,
Kunim she'r dil so'zi birlan
Yoniq joduda o'tkardim.

Bas ey, bas, chekma afsus, dil,
Hamon orzu qil, orzu qil,
Umid – nur, qirqni men qoyil,
Faqat yog'duda o'tkardim.

1976

SAKKIZINCHI MART

Bukun o'zgachadir jilvayi olam,
 Bukun o'zgachadir borliqda xanda.
 Bukun ko'zlarimga go'yo quyosh ham
 Shafaq gulxanida tarang chirmanda.

Bukun tong egnida atlasdan ko'ylak,
 Shafaqqa o'ralgan qizlarday gulgún.
 Ilk bora ko'z ochib chiqqan boychechak
 Sanamlar qo'liga intizor bukun.

Bukun go'zallikning qutlug' ayyomi,
 Qizlarning ko'klamga mosligidir bu.
 Yuraklar limmo-lim muhabbat jomi,
 Bahor kelganining rostligidir bu.

Ha, bukun elda ham, dilda ham bahor,
 Shodlik xandalari falakka tutash.
 Bukun ertalabdan yigitlar qator,
 Attor do'konida atirlar talash.

Otaxon chollar ham tavoze bilan
 Yetmish yillik yorin sizlab turibdi.
 Bukun shoirlar ham o'z bisotidan
 Eng yaxshi baytlarni izlab turibdi.

Ovora bo'l mang, ey, hassos shoirlar,
 Ayol tasviriga ojiz erur she'r.
 Chunki yor zulfining bir tolasiga
 Tashbeh topa olmay o'tgan Alisher.

Sevgi asrorini izlamay qo'ying,
 Topilmas narsani qidirmoq nechun?
 Muhabbat sirini bilolmay o'tgan
 Karbalo dashtida ovora Majnun.



Ming yilcha muqaddam Hofizi Sheroz
Bir go'zal xoliga bo'lgandi banda.
Tasavvur qilolmam, ne der edi u
Bukun anjumanda o'zi bo'lganda.

Balki aytar edi u bir loyiq so'z,
Balki tashbehlari bo'lar edi fosh.
Chunki, ko'zingizga teng qaysi yulduz,
Yuzingiz oldida nimadir quyosh?

Siz, axir, siynasi samoni quchgan,
Sizning izmingizza zamin-u zamон.
Siz oy kemasida oy bo'lib uchgan,
Yorur chehrangizdan olam charog'on.

Bukun o'zgachadir jilvayi olam,
Bukun o'zgachadir borliqda xanda.
Bukun ko'zlarimga hatto quyosh ham
Shafaq gulxanida tarang chirmanda.

Bukun ayyomingiz muborak qilib,
Zumurrad sepini yoyibdi bahor.
Bahoriy qizlarning husniday to'lib
Olam go'zalligi bo'lsin barqaror.

BOLALAR

Sizlar – ota,
 Biz – bola bu kun,
 Bizdan – salom, sizlardan – alik.
 Ammo erish tuyilar nechun
 Endi sizga bizning bolalik!
 Siz ham, axir, bola bo'lgansiz,
 Ko'zingizda porlagan hayrat.
 O'yngansiz, sho'xlik qilgansiz,
 Qalbingizni qiynagan g'ayrat.
 Ayting,
 Yo siz gohi-gohida
 Qoidani buzmaganmisiz?
 Tirmashib yo o'rik shoxiga,
 Ko'k g'o'ralar uzmaganmisiz?
 O'zboshimcha nomini olib,
 Cho'milmaganmisiz anhorda?
 Yalangoyoq, to'g'ri yo'l qolib,
 Yurmaganmisiz hech devorda?
 Sizlar – ota,
 Biz – bola bu kun,
 Sizdan hay-hay, bizdan – to'polon.
 Nega sizga har narsa mumkin,
 Nega bizga har ish qatag'on?
 Chiqirlaydi devorda soat,
 Sekundlarni qiladi hisob.
 Sizga uning borligi – rohat,
 Bizga uning sirligi – azob.
 Magnitofon sizlarga – kerak,
 Qo'ndirmoqni istamaysiz gard.
 Bizlar uni ochib ko'rmasak,
 Dilimizdan tarqamaydi dard.
 Toshoynaga koptokni ursa,
 Sinarmi yo sinmasmi – qiziq.
 Oshpichoqni tuproqqa suqsa,



Unarmi yo unmasmi – qiziq.
Bizlar bu kun koni xatoning,
Ne ish qilsak, bari ziyondir.
Xatolarsiz lekin dunyoning
Butunligi o'zi gumondir.
Sizlar – ota,
Biz – bola bu kun,
Bizdan – salom, sizlardan – alik,
Bizni hadeb tergaysiz nechun,
O'zingizda yo'qmi bolalik?
Ishonasiz gohi ertakka:
Bir marta tan berib qo'yinglar, –
O'xshab ketar bizning ermakka
Siz o'ynagan ba'zi o'yinlar...
Biz gohida shokolad uchun
Yashirmaymiz, bo'lamiz ayyor.
Axir, siz ham shon-shuhrat uchun
Nimalarga bo'lmafsiz tayyor?
Bizlar danak talashsak bog'da
Xipchin olib quvasiz bizni.
Sizlar amal talashgan chog'da
Kim turg'izar burchakka sizni?
Sizlar – ota,
Bizlar – bolamiz,
O'zgarishda deydilar olam.
Bir kun sizga yetib olamiz,
Bolalikka qaytasiz siz ham.
Oshno bo'lar sizga xayolot,
Bizga esa...
Biz – oilalik....
Bolalik – bu asli kamolot,
Kamoli umr esa – bolalik.

1977

HOFIZGA

Ming Samarqand, ming Buxoro
Hadya etgum xol uchun,
Lek nigorimda havas yo'q
Mulk-u davlat, mol uchun.

Senga yulduzli samoni
Sovg'a aylarman desam,
Nozlanib, o'ldimmi, deydi,
Bu cho'tir ro'mol uchun.

Gar hiloldan sirg'a taqmoq
Istasam, aytur sanam:
Zormidim jezdan yasalgan
Hiylayi a'mol uchun.

Ul parivash chehrasini
Oyga etgandim qiyos,
Bir umr uzr aytadurman
Bu xato timsol uchun.

Hajrda qaddimni dol
Etding, desam, bergay javob:
Kim qo'yibdur sevgini
Qaddi bukilgan chol uchun.

Yor istig'nosidan
Olmasman-u, kuydim va lek -
Lobarim oldida nazmim
Bu qadar behol uchun.

1967



BOLALIK

Tuproq ko'chalarydan chopgan bolalik
Yillar changi ichra asta yo'qoldi.
Bolalik ketdi-yu, sho'x suhbatlarda
Uni kula-kula eslamoq qoldi.

Jilg'alar oshiqar daryo bo'lgani,
Giyohlar bo'y cho'zar doim quyoshga.
Ertaning ishqida yillar oshdim-u
Orzu qanotida yetdim bu yoshga.

Qancha intilganman, kursi qo'ymasdan
Dadam javonidan olguncha kitob.
Qancha izlanganman, murg'ak fikrning
Minglab savoliga topguncha javob.

Bolalik!
Men seni bir umr qalbda
Ona suti kabi saqlay muqaddas
Va lekin ertangi kunimdan kechib,
Senga qaytmoqni hech qilmayman havas!

1957

YOLG'ON HAQIDA

Gar hakim o'salga tasallo bergay,
So'zi yolg'on bo'lsa, Olloh kechirgay.
Ayrilgan do'stlarni qovushtirgan zot
Aldasa, tadbiri gunohdan ozod.
Xunuk xotiningga ayt, yuzing – oftob,
Bu asli yolg'onmas, gunohmas, savob.
Rost-u yolg'onlarning hisobi bordir,
U dunyo, bu dunyo javobi bordir.
Yolg'onchi olamda gunohimiz ko'p,
Kechiruvchi tanho Parvardigordir.
Jahonda yolg'on bor, lekin eng yomon –
Elni jaholatga boshlagan yolg'on.
U xalq yuragiga otilgan o'qdir,
Unga ikki olam mag'firat yo'qdir.

2000





Shoir qalbi

*Shoir qalbi go'yo anor,
She'ri uning sharbati.
Bo'lmas ekan she'r ahlining
Oz qalbiga shafqati.
Tinmay ezar, ezar uni
Ammo shoir biladi –
Piyolasi to'lgan kun
Paymonasi to'ladi.*



DEBOCHA

Istadim sayr aylamoqni
Men g'azal bo'stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.

She'riyat dunyosi keng,
Gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,
Har ko'ngil arzini aytur
Neki bor imkonida.

Ey munaqqid, sen g'azalni
Ko'hma deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qelgan inson qonida.

Toshga ham shirin g'azal
Baxsh aylagay otash va jon,
Shavq o'ti yonsa agar
Shoir - g'azalxon qonida.

Rost, g'azal avjida barcha
Oy ila Zuhro emas,
Ko'p erur somonchilar ham
She'riyat osmonida...

Do'stlarim, shoir demang,
Erkin g'azal shaydosidur,
Yosh deng-u ma'zur tuting
Sahv o'lsa gar devonida.



BAG'ISHLOV

Ey sen, latif do'st, bu senga
Umrим kitobidir,
Umrим kitobi ne, olis
Yo'l sarhisobidir.
Bu yo'l ravon emas, uning
Past-u balandi ko'p,
Jon rishtasidek misralar
Yo'lning tanobidir.
Bir shahr nomi Ibtido,
Bir shahr Intiho,
Jonimda ikki shahr aro
Yo'l iztirobidir.
Sen kim eding, kim bo'lding, ey,
Dil, deb so'raydi dil,
She'r asli dil savoliga
Dilning javobidir.
Umrим agar bog' bo'lsa, siz
Bog'bonisiz, elim,
Tutdim, oling, – o'z bog'ingiz
Sharbat, gulobidir.
Yoshing necha deb so'rmangiz,
Yoron-u ahli dil, Erkin
Vatan yoshi mening
Yoshim hisobidir.

1999

SAMARQAND

Otashin barq yondi gulrang
Charxning mehrobida,
Charx urar ko'nglim xayolning
Otashin girdobida.

Subhidam oftobi ko'kning
Gumbazida yondi, yo
Yondi bu firuza gumbaz
Subhidam oftobida.

Tong emas bu, tongda bo'ssam
Men xayol obida g'arq,
Tong qilibdir chunki ko'nglim
Bu xayoldek obida.

Ko'hna shahrim, tarixingni
Ko'z yumib qilsam xayol,
G'arq ko'rindi mazlum elning
Ko'z yoshi selobida.

Bu saroylar g'ishti elning
Ashki birlan xokidan,
Rang-u bo'yog'i qorilmish
Qayg'uning zardobida.

Chulg'anib sokin xayolga
Jim yotar sog'onalar.
Ne ko'rар Mirzo Ulug'bek
Besh asrlik xobida?

Keng falakni quchdi inson,
Lek ming yil o'tsa ham
Ilk muallimdir Samarqand
Ilmi aflok bobida.



Bosh egib ustoz Ulug'bek
Qoshida turdim bu tong,
Charx urib ko'nglim xayolning
Otashin girdobida.

TONG LAVHASI

Ufqlarga qo'yib gulasta,
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho'qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.

Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu,
Tongotar deb qo'ydi sarlavha.

1956

* * *

Men jilg'aman,
Daryo bo'lib to'lgim keladi.
Ona yurtim,
Senga o'g'lon bo'lgim keladi.
Bugun senga
Faqatgina she'r bag'ishladim.
Kerak bo'lsa,
Jonni fido qilgim keladi.

1953

TOG' BILAN SUHBAT

Deyman: Bulutlarga chulg'angan, oppoq
 Tumanli boshingga quyosh to'kar nur.
 Kimsanki, qarshimda yuksalib mag'rur,
 Uzoq-uzoqlarga boqasan, o'rtoq?
 Aks sado der: – Tog'!..

Deyman: G'orlaringga qo'yganman qadam,
 Ulkan qoyalaring quchib o'tganman.
 Ustingdan necha bor uchib o'tganman.
 Kimmanki, shunchalar yuksak irodam?
 Aks sado: – Odam!..

Deyman: Quvonchingga tor kelur jahon,
 Tongdan boshlanarkan bag'ringda gurung.
 Nimadir shunchalar faxring, g'ururing,
 Ayt, nelar qilibdi qo'yningda makon?
 Aks sado der: – Kon... .

Deyman: Fanlar sari shaxdam yo'l oldim,
 Porloq istiqbolim ko'z tutar menga.
 Ishon, bir kun yana kelaman senga.
 Ammo kim bo'lib – shu fikr-u xayolim.
 Aks sado: – Olim... .

Tilagim shu, o'rtoq, haqlisan butkul,
 Ilmlar tog'i bor qarshimda hali,
 Javohirlar to'la bag'ring ochgali
 Quchog'ingga yana kelaman, kutgil!
 Aks sado der: – Kel!

1956



* * *

Do'stlarimni hayron qoldirar
Ba'zan ishqiy she'rlar yozganim.
Hazilkashlar qo'ymasdan so'rар:
– Kuylaganing qaysi nozanin?

Yo'q dey desam, kulgi bo'laman,
Aldamoqni hech ko'rmayman ep.
Ne ham derdim, hazil qilaman,
Shoir hali izlanishda, deb...

1957

* * *

Tinglayman ko'p o'zbek so'zlarin
Xorazmcha talaffuzini.
Xush ko'raman u yer qizlarin
«Qo'ysangiz-a» degan so'zini.
Ular buni aytsa muloyim,
Tillaridan asal to'kilar...
Xorazmlik qizlarni doim
«Qo'ysangiz-a» degizgim kelar.

1957

MAJNUNTOЛ

– Qubbon sohilida qomating bukib,
Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib,
Nimalar haqida surasan xayol,
So'yla, majnuntol?

Yo tongda bir go'zal chiqdimi suvga,
Nigohing tushdimi ko'zi ohuga?
Seni band etdimi labidagi xol,
So'yla, majnuntol?

Ko'l uzra oqqushlar parvoz etdimi,
Va yo o'ylaringni olib ketdimi,
Sochlaringni silab o'tganda shamol,
So'yla, majnuntol?

Tunda oy aksini ko'rdingmi suvda,
Balki kutmoqdasan uni behuda,
Yo'qsa nega ma'yus ko'rinding, ne hol,
So'yla, majnuntol?

– Yo'q, fikrim band etgan oqqushlar emas,
Sabo yo parivash boqishlar emas.
Na suv ko'zgusida ko'ringan hilol,
Na chehrasi ol!

Xayolim boisi boshqadir butun,
O'tmishning bu g'amli qissasi uzun.
So'rading, so'ylayin, mayli, quloq sol,
Qalbga tugib ol!

«...Jondan sevar edi bir-birin ular,
Qalbda to'liq edi shirin orzular.
Yigit – o'ktam edi, qiz – sohibjamol,
Xulqda barkamol.



Ular shu bog'larda o'ynab-kulardi,
Og'ushim ularga maskan bo'lardi,
Bunda o'tkazardi oshiqlar visol –
Damlarin xushhol.

Anov chamanlarda gul terardilar,
Anov tosh ustida oltirardilar.
Ikki qalb go'yo qo'sh kabutar misol,
Tillarida bol...

Ammo ushalmadi shirin orzular...
Bir kecha so'nggi bor uchrashdi ular.
Oh, sevgi gulshani etildi poymol,
So'zlamoq mahol...

Hamon yodimdadir u g'amli ko'zlar,
Shu oqshom aytilgan alamli so'zlar:
«Ota...», «boylik...», «taqdir...», «nikoh...»,
«qari chol...»
Va «Xayr, xush qol!..»

Uzoq o'tirdilar shu tun ikki yor,
Ayriliq shomida vafoli nigor.
Yigitga qoldirdi ishqidan timsol –
Shohi dastro'mol...

Shu bo'ldi – ularni topmadim zinhor,
So'radim, izladim – ko'rmadim bir bor.
Qaydadir sevganlar, ne kechdi ahvol –
Bilmayman alhol».

Gar so'rsam javobsiz chayqalur bu ko'l,
Daragin keltirmas yellar ham butkul.
Bog'da gul bosh chayqar, men bergen savol
Qarshisida lol...

So'radim, daf'atan jim qoldi bog'lар,
So'radim, cho'kkanday tuyildi tog'lар.
So'radim, chor atrof ma'yus, bemajol –
Ko'rindi behol...

Jondan sevar edi bir-birin ular,
Qalbda to'lig' edi shirin orzular.
Bu bir sevgi edi, ulug' barkamol,
Oh, ketdi uvol...

Sen bukun sohilda kezib yurganda,
Dildoring yoningda xanda urganda,
Shu kechmish hislari dil mulkin darhol
Qildilar ishg'ol.

Fikrimni band etgan ishq qissasi bu,
Va ishq qissasining alqissasi bu –
Shu sevgi haqi ham sendagi iqbol
Topmasin zavol!

1958



QUBBON KO'LIGA

Sado deydi: Sochlarin yoyib,
Nechun quyosh kezar parishon?
Tong chiqar-u kech bo'lar g'oyib.
Ne izlab u kezadi jahon?

Aks sado der: Bunda bir zamon
Yo'qotmisht u oyinasini...
Bexabarsan, ey ko'li Qubbon,
Quyosh hamon izlaydi seni.

1958

BULOQ

Buloq ona-Yer siynasidan
She'r singari qaynab oqadi.
Suvning kumush oyinasidan
Mehrim bo'lib quyosh boqadi.

To'yib ichdim, suv bilan go'yo
Dilga singdi yurt muhabbati.
Tashnaligim qondi-yu, ammo
Yana ortdi qalb harorati.

1958

PO'LAT

U dastavval oybolta bo'ldi,
So'ng zambarak bo'lib quyildi.
Qilich ham u,
miltiq
va nagan,
U bomba ham bo'lib portlagan.
Lekin olgan jahonni faqat
Pero bo'lib quyilgach po'lat.

1959

YO'LLAR

Yillar osha bir yosh o'sarman,
Yo'llar osha bir bosh o'sarman.
Men sayr etgan gul vodiylarda
Chechaklarga yondosh o'sarman.
Bog'lar o'tgan, qir oshgan yo'llar,
Ufqlarga tutashgan yo'llar,
Jimir-jimir nuqralar taqib,
Nur emibsiz quyoshdan, yo'llar.
Sayr odativ qo'yarmidim men,
Olkam kezib to'yarmidim men,
Kezmay turib, sayr etmay turib
Uni shuncha suyarmidim men!

1959



XAYRLI KECH

Tilak qadrin bilar odamlar,
Yaxshi niyat qilar odamlar.
Do'stga tungi orom oldidan
Xayrli kech tilar odamlar.

Xayrli kech – hikmatli istak,
Bu istakni buyurmish yurak.
Xayrli kech – farahli tuning
Osoyishta, tinch bo'lsin, demak.

Yer yuzida yashagan inson
Mayliga, u qayerlik bo'lsin,
Tinch mehnatda kunlari shodon,
Kechalari xayrli bo'lsin.

1959

* * *

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor.
Yuksak cho'qqilardan boshlangan bahor
Shalolalar bilan intilar pastga.
To'shab sohillarga jilvakor gilam
Daryo bo'lib oqar Amu, Siriga.
Bahor o'lkasining qon tomiriga
Sharqirab kiradi fusunkor ko'klam.

1959



YO'Q, HALOVAT ISTAMAYMAN

Yo'q, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim.
To'lqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug'yonim.

Bo'ronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi.
Daryolarning girdobiga
Ko'krak urgim keladi.

Tinchlik bilmas odatimdan
Ozor cheksam mayliga.
Olov bo'lib bir dam yonsam,
So'ng o'chsam ham mayliga...

Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim.
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo'qdir bardoshim.

1960



SHE'R KECHASI

Navbatim kelmoqda,
So'zlayman men ham,
Eng yaxshi she'rimni izlayman men ham.
Qani,
Kuylarimning eng sozi qani?!
Ko'nglimning eng dilbar ovozi qani?!
Bir-bir varaqlayman yodim daftarin,
Meni ma'zur tuting, aziz do'stlarim!
Quvnoq davrangizda o'qib bergali
Eng yaxshi she'rimni yozmabman hali.
She'rlar chamani keng,
Umrim ham uzoq,
Gullar terajakman quchoq va quchoq.
Ammo bir gul mening yuragimdadir,
Bir she'r yozmoq mening tilagimdadir.
Bu she'rnii izlayman aqlimni tanib,
Bu she'rnii kuylayman otashda yonib.
Bu she'r ishqil bilan yashayman mudom,
Bu she'r ishqil bilan ko'nglimda ilhom.
Bu she'rga band butun ezgu hislarim...
Meni ma'zur tuting bu gal, do'stlarim,
Quvnoq davrangizda o'qib bergali
Eng yaxshi she'rimni yozmabman hali.
Va lekin men uni bitmagunimcha,
Bitib sizga taqdim etmagunimcha –
Bir nafas halovat bilmasman aslo,
Tinmasman,
tinmasman,
tinmasman aslo!

1960

SHE'R HAQIDA SHE'R

(*Hazil*)

She'rim, mana, bitding nihoyat,
Tunim uyg'oq o'tdi qoshingda.
Bitding dedim, sevinma faqat,
Qancha ish bor hali boshingda.

Hali seni yo'nib, tarashlab
Yuz martalab o'chirmog'im bor.
Qayta-qayta g'ijimlab tashlab,
Takror-takror ko'chirmog'im bor.

Axir bir kun mavsuming yetib,
Kirganida g'o'za shonaga,
Asta sening qo'lingdan tutib
Yetaklayman gazetxonaga.

Ilhom dilga bog'lagan qanot,
Shaxdam-shaxdam tashlaymiz odim,
Bizga aylab «shirin» iltifot,
Qarshi olar adabiy xodim.

Seni asta yonimdan olib,
Hayajon-la tutaman unga.
She'rmi? – deya u qovoq solib
Ko'zoynagin qo'yar burunga.

O'qib chiqar, tortmaga tashlar,
O'z ishini ettirar davom.
Endi, she'rim, shu kundan boshlab,
Sen meniki emassan tamom.

Hech kim seni she'r demas endi,
Hech kim demas qo'shiq yo g'azal.
Sen kuy, ilhom, shavq emas endi,
Bunda sening noming «material».



Urinmagin endi behuda,
Uchmoq uchun bog'lama qanot.
Orom olib shirin uyquda
Muharrirning tortmasida yot.

Yoz haqida bitilgan bo'lsang,
Shoshma, hali qish kelguncha tur.
Baxting kulib, yil o'tgach, arang
Yarning chiqsa, shunga ham shukr.

Hali seni, she'rim, necha bor
G'urbatlarga yetaklar taqdir.
Bunda qancha... muxlislaring bor,
Hali seni qilurlar tahrir.

O'zgaradi qancha kaloming,
O'zgaradi qanchalar lavhang.
Yozilganda «Tong» bo'lsa noming,
«Oqshom» bo'lar balki sarlavhang.

So'ng olamga yoygali qanot,
Elni o'zga qilgali «shaydo».
Quyosh yanglig' bir kuni – hayhot!
– Gazetada bo'lursan paydo.

O'z nomimdan taniyman arang,
Lol turaman sening qoshingda.
Navbat bilan tanqidchi akang
Yong'oq chaqar endi boshingda.

Tahlil aylab ters-u o'ngingdan,
Ikkimizni qiladi behol.
Xo'p do'pposlab, tanqid so'nggida
Ijodimga tilaydi kamol.

1961

YOSHLIK

Yoshlik!

Seni kuylamagan kim,
 Ertaklarining so'ylamagan kim,
 Qariganda o'ylamagan kim,
 O'ylab yana kuylamagan kim?
 Bitmoq bo'ldim men ham senga bayt,
 Yosh yurakning haqqi bormi, ayt?
 Yoshlik, asli mening o'zimsan,
 Keng olamga boqqan ko'zimsan.
 Yozgan she'rim, aytgan so'zimsan,
 Kecham, ertam, ushbu ro'zimsan.
 Bitmoq bo'ldim sen uchun ash'or,
 Ammo o'zni kuylamoq dushvor.
 Yoshlik – gul-u gulg'uncha ekan,
 Bu gul olam turguncha ekan,
 Yoshlik – behad tushuncha ekan,
 Poyoni yo'q garduncha ekan.
 Bitmoq bo'ldim men unga doston,
 Uylarimga topmadim poyon.
 Yoshlik, dildan shavq ketgani yo'q,
 Yurak seni tark etgani yo'q,
 Yurak seni tark etgani yo'q,
 Demak, qadringga yetgani yo'q.
 Yoshlik, seni kuylab bilurman,
 Ammo bugun yoshlik qilurman.
 Yoshlik – ishq-u oshiqlik mayli,
 O'zi Majnun, ham o'zi Layli,
 Subhi olam uning tufayli.
 Mayli, unga bitmasam mayli,
 Na bir g'azal, na bir musaddas,
 Uning o'zi she'r dan muqaddas.

1961



* * *

Aytib bo'ldim so'nggi qo'shiqni,
Jo'nab ketdi quyosh ham asta.
Alvon ko'yak kiygan ufqning
Etagida qoldi guldasta.
Quchoq ochar farahli bir tun,
Ko'z oldimda yana bir chaman –
Xayrli kech –
Tong bilan, do'stim,
Yana bir she'r o'qib beraman.

1960

OLIMLAR VA SHOIRLAR

Qancha ilhom kerak, ishq, orzu-tilak
Insonni fazoga uchirmoq uchun.
Qancha bilim kerak, tafakkur kerak
Buni she'r, dostonga ko'chirmoq uchun.

Olimni band etar yulduzli osmon,
Cheksiz fazo ilmi shoir xayolin.
Ha, bu shunday zamon, ajoyib zamon,
Olimlar – shoir-u, shoirlar – olim.

1961

TERANLIK

Shoira ZULFIYAgA

Teranlikni qidirmadim ummonlardan,
Insonlardan topdim uni, insonlardan.
Teranlik bu – nur yog‘ilgan yuzlardadir,
Teranlik bu – o‘ychan boqqan ko‘zlardadir,
Teranlik bu – aytilmagan so‘zlardadir.
Mayingina chimirilgan qoshlardagi,
Nuqra-nuqra qirov qo‘ngan sochlardagi,
Bo‘ronlarda egilmagan boshlardagi
Teranlikning ta’rifiga so‘z bormikan?..
Mash’um yillar dilga solgan ozoridan,
Onalarning hasratidan, oh-zoridan
Odamlarning yuragida ummoni bor,
Ummonlarning sokinligi, to‘foni bor.
U yillarning zilzilasi ko‘kraklarda,
Mash’um urush dog‘i hali yuraklarda.
Qassos qalbdan oqqan eng pok tilaklarda,
Umidlarda hayot qadar teranlik bor,
Ko‘ngildagi sabot qadar teranlik bor.
Teranlikni qidirmadim ummonlardan,
Insonlardan topdim uni, insonlardan.

1961



SHOIRA SAIDA ZUNNUNOVAGA

Hech otash dil bul yoniq
Dilcha bo'lurmi, hay-hay,
Hech biyron til bu jonso'z
Tilcha bo'lurmi, hay-hay.

Bu yurakning tug'yoni
Vulqoncha bo'ldi, qaydan?
Qo'shiqlari daryoyi
Nilcha bo'lurmi, hay-hay.

Nasrda buncha shiddat,
Nazmda buncha san'at,
She'r bundoq qirq yorilgan
Qilcha bo'lurmi, hay-hay.

Ikki o'n yetti yosh-u
Bir o'n olti ko'ribsiz,
Mazmunda lek har kun
Yilcha bo'lurmi, hay-hay.

Saida so'zi borliq
Olamni o'rtaganda
Qanoatda Said Ahmad
Filcha bo'lurmi, hay-hay.

1976

QIZALOQ*Singlim FERUZAga*

Qo'g'irchoqdan bir zum nari ketmasdan
Erkalar, bag'rige bosar qizaloq.
Hayot nima – hali idrok etmasdan,
Go'dakligiga ham aqli yetmasdan,
Ona bo'laman deb o'sar qizaloq.

Taajjub, kim solmish uning ko'ngliga,
Kirmoq qayda hali hayot yo'liga,
Ona allasiga qonmasdan hali,
Ertaga shu uyga beka bo'lgali
Supurgi tutadi jajji qo'liga.

Halitdan onalik mehr-shafqatin
Dilingga soldingmi, erka qizaloq?
Tatib ko'rmay hali hayot zahmatin,
Mushfiq onalikning bor mashaqqatin
Bo'yningga oldingmi, erka qizaloq?

Gulzor yashagandek g'uncha qatida,
Tomchida quyoshning jamolin ko'rdim.
O'ylasam, o'y bitmas hayot haqida,
Shu jajji qizaloq tabiatida
Tabiatning buyuk kamolin ko'rdim.

1961



SHOIR UMRI

(*Parodiya*)

*«Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,
Bir shoir umrini yashadim chindan.
She'riyat ko'kida tik parvoz etdim,
Parvozim balanddir uchqur lochindan». **Sayyor***

«Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,
Bir shoir umrini yashadim chindan».
Qancha qog'ozlarning boshiga yetdim
Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.

Do'stlarim, ortiqcha kamtarlik nega,
Kelajak o'n yilni ko'rdim oldindan.
Vaqt kelar, yetarman Pushkin yoshiga,
O'shanda... Pushkin ham chiqmaydi mendan.

1961



SAMARQAND KECHASI

Munajjim tasbehidan to'kilgan donalardek
 Osmon uzra sochilib yarqiraydi yulduzlar.
 Oy sham-u tegrasida uchgan parvonalardek
 To sahar javlon urib pirpiraydi yulduzlar.

Qaddini kamon etib, yuzda tabassum izi,
 Kecha sukunatiga quloq tutar yangi oy.
 Nogahon eshitilsa chaqaloqning yig'isi,
 Yana bir Ulug'bek deb o'ylab qoldi, hoynahoy.

Samarqand yulduzları la'l imikan, durdona,
 Naqsh olmalar singari terib olgim keladi.
 Har biri so'ylar ekan qadimdan bir afsona,
 Sahargacha ko'z yummay quloq solgim keladi.

Ana Hulkar – yetti qiz imlar meni yiroqdan,
 Oydin ko'chalar bo'ylab shu'lalarda oqurman.
 Ulug'bek qadam qo'ygan bu muqaddas
 tuproqdan,
 Ulug'bek nigoh tikkan yulduzlarga boqurman.

Bu kecha ko'k ummoni mash'allarga to'lug'dur,
 Hilolga qo'ngan yulduz suzar go'yo yelkanda.
 Qadimiy shahrim uzra kezaman, dilda g'urur,
 Yulduz to'la osmonni ko'targancha yelkamda.

1961



SURAT

Qayerdadir ko'rganman uni,
Bir daqiqa bo'lganman ulfat,
Eslolmayman, ammo, qay kuni,
Qay daqiqa, qay dam, qay holat.
Ko'zlarida ajib muammo,
Tilsiz surat boqar menga jim.
E, u o'sha... Topildi go'yo
Unut bo'lgan bir bo'lak umrim.
Ko'z oldimdan o'tadi bir-bir –
Allaqanday tumanli, xira –
Xayolimning qay burchidadir
Yo'qolmoqchi bo'lgan xotira.
U kunlarni tiklar xayolim,
Yodga kelar barcha, barchasi...
Odamlar,
Siz mening hayotim,
Har biringiz umrim parchasi.

1961

KOSMONAVT VA SHOIR

– Ayt-chi, shoir, uchar bo'lsang fazolarga,
 Ko'char bo'lsang Oy, Hulkar-u Zuhrolarga,
 Yo'nga Yerdan nimalarni olar eding,
 Sen kemangga nimalarni solar eding?
 – Uchar bo'sam agar cheksiz fazolarga,
 Ko'char bo'sam Oy, Hulkar-u Zuhrolarga,
 Ona-Yerdan bir kaft tuproq olar edim...
 Olar edim lola, nargiz, sunbullardan,
 Qarqunoqlar, sa'valardan, bulbullardan,
 Archalarning yaprog'idan olar edim,
 Majnuntollar butog'idan olar edim.
 Tiyonshonning qora ko'zli ohulari,
 Chamanlarda bol izlagan asalari,
 Boshim uzra parvoz etgan qarchig'ayim,
 Bog' ko'chadan minib o'tgan qora toyim
 Yerda qolsa, uchmoqqa hech rozimasman,
 Fazolarga ko'chmoqqa hech rozimasman.

– So'yla, shoir, sira chek yo'q tilagingga,
 Uchar bo'lsang, hamroh etib yuragingga
 Ona-Yerdan nimalarni olar eding?..
 – Ayta bersam, sira chek yo'q tilagimga,
 Uchar bo'sam, hamroh etib yuragimga
 Ona-Yerning muhabbatin olar edim,
 Go'zal o'lksam tabiatin olar edim.
 Olar edim bahor-u qish, kuz, yozini,
 Olar edim irmoqlarning ovozini,
 Suhbatlarning g'ulusini olar edim,
 Sho'x qizlarning kulgusini olar edim.
 Kuylarning ham eng dilbari, eng sozini,
 Navosini, gulyorini, shahnozini,
 Olar edim chapandozin ham bayotin,
 Hofizlarning tongda aytgan munojotin,



Navoiyning, Fuzuliyning she'rlarini
Olar edim, olar edim men barini.
Bularsiz men uchmoqqa hech rozimasman,
Fazolarga ko'chmoqqa hech rozimasman.

1962

ASABLAR

Asablar, asablar, asablar...
Sababsiz sochilgan g'azablar,
Gunohsiz chekilgan azoblar.
Ko'z yoshlar... Bariga sabablar
Asablar, asablar, asablar.

Asablar kimlarni qulatmas,
Asablar uyquni yo'latmas,
Qalbni hech shodlikka to'latmas,
Odamzot temirmas, po'latmas!
Asablar kimlarni qulatmas!..

Asabga so'z bermang, odamlar,
G'azabga yo'l bermang, odamlar,
Umr-ku shunchalar qisqadir,
Shuni ham qilmaymiz biz qadr.
Asabga so'z bermang, odamlar,
Azobga yo'l bermang, odamlar!

1962

YURAK VA AQL

Ikki kuch bor – Yurak va aql
 Ikki yonga tortuvchi meni,
 Ular bundoq bo'lsa noahil,
 Qay birining tutay izmini?

Meni bir yon boshlasa aqlim,
 Boshqa yonga yetaklar yurak.
 Bilolmayman, qay biri haqli,
 Qay biriga ishonmoq kerak?

Aql mening har qadamimni
 Solmoq bo'lar tarozu-toshga,
 Har daqiqa tergaydi meni,
 O'xshama deb ko'cha bebosha.

Yurak esa unga so'z bermas,
 Bu dunyoda faqat o'yna der.
 Bilmas,
 Sira bilgisi kelmas
 Qonun nadir, qoida nadir.

Yor ko'yiga chorlasa biri,
 Yur deb har kech aylasa xitob,
 Biri uyg'a yetaklab kirib,
 Qo'llarimga tutqizar kitob.

Aql aytar:
 Sevding, o'sha qiz,
 Ayt-chi, senga qilurmi vafo?
 Yurak faqat sev der, sevgisiz –
 Yashamoqdan bormi hech ma'no?!

Aql menga qilar nasihat:
 «Yosh joningni o'rtama bekor».



Yurak bo'lsa yon deydi faqat,
Hayot bizga berilar bir bor.

Aql deydi:
She'ringdan ne naf,
Mashqlaringdan lazzat olar kim?
Yo'q, der menga, o'tirma o'ylab,
She'r yoz deydi nodon yuragim...

Aql cheksiz fazoga hokim,
Aql hokim olam yuziga.
Borliq unga bo'ysunar,
Lekin
Yurak kirmas uning so'ziga.

Shundan bir yon boshlasa aqlim,
Boshqa yonga yetaklar yurak.
Bilolmayman, qay biri haqli,
Qay biriga ishonmoq kerak.

Aybli emas bunda irodam,
Ma'zur tuting, do'stlar, siz meni.
Aql qancha haqli bo'lsa ham,
Tutar boldim yurak izmini.

U baxsh etgan otashda yondim,
O'zi boldi menga rahnamo.
Unga,
Faqat unga ishondim,
Yurak meni aldamas aslo!

1962

MAY SHE'RI

May – bahor qizining
 O'n sakkiz yoshi,
 Uning ajib noz-u
 Adolari bor.
 Boshida gulchambar
 Porloq quyoshi,
 Chamanda bulbuli
 Shaydolari bor.
 Baxmal ko'ylagida
 Guldan tugmalar,
 Shalolalar aytgan
 Navolari bor.
 Zulfi sunbulini
 Yuvgan chashmalar,
 O'pib taroqlagan
 Sabolari bor.
 Qiyo's topolmayman
 Bahor husniga,
 Yashil libosida
 Na soz bu jahon!
 Cheksiz vodiylarning
 Zumrad tusiga
 Rashk-u havas bilan
 Boqadi osmon.
 Men ham bog'lar aro
 Sayr etib bu dam,
 Lolalar bazmiga
 Qo'shilgim kelur,
 May – bahor haqida
 She'r aytib men ham,
 Xushxon bulbullarga
 Jo'r bo'lgin kelur:
 Bahor kelar qayta-qayta,



May qayta-qayta,
Shoirlar ham charchamaydi
Madh ayta-ayta.
She'rlar ko'pdır,
She'rlardan ham «Bahor»u «Yoz», «May»,
Men endi yozmay.
Qayda deysiz!
Gul bog'larga yetaklab bahor,
Lola terib bersa menga
Etaklab bahor,
Qancha yozsang oz, deb tursa,
Yoz deb tursa May,
Bo'lurmi yozmay?!

Garchi bahor qayta kelur,
May qayta kelur.
Yangi qo'shiq olib, yangi –
Kuy ayta kelur,
Qancha bahor ko'rgan bo'ssam
Men shu yoshgacha,
Har yil bahor boshqachadir,
Biz ham boshqacha!
May – bahor qizining
O'n sakkiz yoshi,
Uning ajib noz-u
Adolari bor.

Boshida gulchambar
Porloq quyoshi,
Chamanda bulbuli
Shaydolari bor.

1962

* * *

Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.
Sayr etaylik, kel, birga, jonon,
Ko'nglim seni istar yagona.

Qo'llarimdan tut o'zing, dilbar,
Oydin yo'lga yetakla meni.
Oshiq bo'lib, ishon, shunchalar
Sevmagandim hech qachon seni.

Ajab, ortiq sarmastman bukun,
Ko'kragimga siqquday olam.
Bu kun lim-lim to'lmish lolagun
Ishq mayiga ko'ngil piyolam.

Kel, yulduzlar to'shalgan yo'ldan
Yetaklasin bizni muhabbat.
G'amlaringni chiqar ko'ngildan,
Shod kunlarni eslaylik faqat.

Sayr etaylik, kel, birga, erkam,
Rozi ketsin bizdan umrbod –
Shodlik uchun yaralgan olam,
Sevmoq uchun berilgan hayot.

1961



GO'ZALLIK

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko'rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to'kar hamon.
Yerni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

1962

CHUMOLI

G'ayrat kamarini beliga bog'lab,
O'zidan kattaroq cho'pni ortmoqlab,
Manzilga tez yetmoq yolg'iz xayoli –
So'qmoq yo'ldan borar Chumoli.
Atrofiga boqmas, ishlar uzun kun,
Ko'pning xirmoniga qo'shmoq uchun don...
Yo'q, Odam ajdodi bo'lмаган maymun,
Chumolidan tarqalgan inson.

1962



* * *

She'r bitdi, ko'chirdim oqqa,
Bir bor qayta o'qib chiqdim ham.
Endi biror sirdosh o'rtoqqa
Sira bo'lmas o'qib bermasam.

Men she'rimni muhabbat sirin
Saqlaganday oshiqlar pinhon –
Tutolmayman dilda yashirin,
Netay ko'ngil ko'tarsa tug'yon.

Shuning uchun pishib yetmayoq
Ilhomimning ilk mevasini –
Senga tutdim, ayb etma, o'rtoq,
Yaqin oldim ko'ngilga seni.

1962





CHASHMA QOSHIDA

Xayriddin SALOHga

Qaytar edim tog' sayridan,
Ko'p edim tashna.
Horg'in edim, yo'lda birdan
Uchradi chashma.

Jilvalanib oqar edi
Muzdek zilol suv.
Suv labidan boqar edi
Shahlo ko'z suluv.

Yetib bordim, kuylab berdi
U sho'x, xush ovoz.
Qiz rozini so'ylab berdi
Qo'lidagi soz.

U kuyladi, men tingladim,
Men kuyladim – u.
Seni mangu saqlar yodim,
Ko'zlari ohu!

Qalbda hamon o'sha yoz-u
O'sha ko'k chashma.
O'sha soz-u o'sha noz-u
O'sha karashma.

1962

KUTISH SOATLARI

«Nisbat qonunining
 Bordir haqiqati.
 Lahzaning ma'nosi
 Dunyo qadar keng.
 Kutish soatlarin
 Bir daqiqasi
 Visol onlarining
 Bir yiliga teng.
 Kutish soatlari
 Qilur bag'rimni xun,
 Betoqat kutganda
 Gohi ertani,
 Deyman,
 Vaqt tanobin bursam,
 Uzun kun –
 Bir lahzadek o'tsaydi, qani!
 Naqadar mushkuldir
 Intizorlik dardi.
 Insonga bo'yusunmas fursat yaxshiyam, –
 Umrim bir necha bor qisqa bo'lardi
 Kutish soatlarin olib tashlasam.
 Yo'q,
 Bu mumkin emas!
 Yashamoq toti,
 Lazzati mo'tabar bizga har soat.
 Axir, odamzotning
 Butun hayoti
 Kutish onlaridan iborat.
 Qo'l ishga,
 Bosh o'yga,
 Orzuga band dil,
 Istiqbol yo'lliga ko'zni tutganmiz.



Biz axir million yil,
Balki milliard yil
Baxtli shu kunlarni kutganmiz.
Hayot boqiy ekan,
Kutish ham boqiy,
Mehnat,
Ijod bilan o'tgan dam halol.
Qanchalar zo'r bo'lsa vasl ishtiyoqi,
Shunchalar lazzatli bo'lg'usi visol.

1963

CHIRCHIQ

Olimona sochlar parishon,
Tinmay chekar,
Balki vaqt ziq.
Boshi uzra yulduzli osmon,
O'ya cho'mgan kimyogar Chirchiq.
O'ya cho'mgan, ko'zi oldida
Jonlantirar kuni kechasin.
O'ya cho'mgan, u xayolida
Istiqlolning tuzar rejasin.
Olim Chirchiq o'ylar tun bo'yи,
Tinmay chekar,
Vaqt juda ziq.
Erta tongdan korjoma kiyib,
Ishga tushar mehnatkash Chirchiq.

1963

OLIMLARNING RAFIQALARIGA

Siz mohi tobonsiz, malaksiz, pari,
Eng ulkan dahrıylar topingan sanam.
Siz buyuk davrimning fidoiylari,
Ahli donishlarga eng munis hamdam.

Olimning uyini charog'on etgan
Mehr-u shafqatingiz, yurak taftingiz.
U olam kitobin bitgan chog'ida,
Yelkasida bo'lgan iliq kaftingiz.

Sevgan yoringizga jon fido aylab
Parvona bo'lursiz kecha-yu kunduz.
Sizning nomingizni olsa ne ajab
Osmon jadvalida bir talay yulduz.

Kimyogar yangi bir zarra kashf etsa,
Bu ijod boisi bo'lgan, hoynahoy –
Stolning chetiga siz qo'yib ketgan
Bir chaqmoq qand bilan bir piyola choy.

Yulduzlar ko'yniga samoviy yo'dan
Parvoz qilar ekan buyuk tafakkur,
Olimlar zehnining charog'i bo'lgan
Munis ayajonlar, Sizga tashakkur.

1963



TO'RTLIK

Tolib YO'LDOSSHGA

She'rning sozi – to'rt satr,
To'rt ajoyib – zo'r satr.
Shoir odam o'zini
To'rt satrda ko'rsatur.

1963

XOTIRA

Do'stim,
Xotirangdan qilma shikoyat,
Yoddan chiqarmoq ham yaxshi odatdir.
Yoddan chiqarmoq ham bir saodatdir,
Unutmaslik dardi og'ir nihoyat.
Vaqtida unutsang,
Orom topar jon,
Qalb ko'tarib yurmas ortiq jafoni.
Mana men,
Yillarki, bir bevafoni
Esdan chiqarolmay kuyaman hamon.

1963

KIPRIKLARIM

Kipriklarim ikki saf bo'lib,
Bir-biridan yashaydi yiroq.
Bedorligim to'sib vasl yo'lin,
Kipriklarim chekadi firoq.

Men tun bo'yи toshdan gul o'yib,
Ko'zim yumsam tongda bemajol,
Meni asta uxlatib qo'yib,
Kipriklarim aylarmish visol.

1964

DARYO OQSHOMI

Bulutlarning etagida zar,
Amu uzra to'r tashlar quyosh.
Daryo sokin, uxlар to'lqinlar,
Uxlar, qo'yib qirg'oqlarga bosh.
Tovlanadi ufq atlasda,
Baliqchilar ovdan qaytadi.
Yelkanlarni tebratib asta
Ona daryo Alla aytadi.

1964



XORAZM QOVUNI

Dasturxonda Xorazmning
Qirqmasidan bir tilim,
Yulduzli ko'k sahnidagi
Hilolaga o'xshaydi.
Bu qirqmalar bizga atab
Sharbat to'la limmo-lim –
Muqaddas yer tutgan oltin –
Piyolaga o'xshaydi.
Ne piyola, shu zaminim
Qalbi deyman har birin,
Ona-Yerning tomiriga
Bandi payvand etilgan.
Saxovatli Amudaryo
Suvlaridan simirib,
Bobodehqon qo'llarida
Oro topgan, yetilgan.
Ta'riflamay mazasini, –
Totib ko'ring siz bir bor,
Hazoraspning boli kabi
Labingizda erigay.
Qirqma agar bo'lsa arzir
Toleyidan minnatdor,
Unga Vatan nasib bo'lmish
Amudaryo yeriday.
O'zbek eli farzandiman,
Faxrlansam arziydi
Qirqmasiga bol tomizgan
Dehqon bilan barobar...
Bu she'r asli qovun so'ygan
Bog'bon otam qarziydi,
«Ma'qul» desa, boshim bo'lur
Osmon bilan barobar.

1964

BIR TOMCHI YOSH

Cho'qqidan bir kichik tosh yumalasa,
Tog'ni qulatgudek suron qiladi.
Ko'zingdan bir tomchi yosh yumalasa,
Tog'day yuragimni vayron qiladi.

Agar ko'ksim uzra qulasa birdan,
Tutmoqqa qodirman tog'lar toshini.
Hayhot, ko'tarolmam kipriklaringdan
Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini...

1964

OYGA

– Osmon qizi – suluv oydirman,
Ko'k sahnida oltin yoydirman.
Tunlar fonus tutib qo'limga
Termulaman sening yo'lingga,
Menga kelib yetarmisan deb,
Yerga olib ketarmisan deb.
– Tun qo'ynida porlagan oysan,
Meni imlab chorlagan oysan.
Senga borib yetganim bo'ssin,
Yerga olib ketganim bo'ssin.
Lekin bunda bor bir parivash,
Qarashidan dillarda otash.
Yuzi uning mohi tobondir,
Ko'zi uning ofati jondir.
U qarshingda ko'rsatsa chiroy,
Ko'kka qaytib ketmaysanmi, oy?

1964



BOSH TEBRATAR SOAT KAFGIRI...

Bosh tebratar soat kafgiri,
Der: qadrimni bilmas odamlar.
Sekundlarim gavhar har biri,
Nega parvo qilmas odamlar?!
Bosh tebratar soat kafgiri,
Shoshil, odam, o'tmoqdadir on.
Har narsaning bo'lar oxiri,
Bosh tebratib qolma so'ng, inson!

1964

KUN O'TGANDA

Fursat degan sekundlar
Qanotida uchadir.
Kecha «bugun» bo'lgan kun
Bugun mana «kecha»dir.

O'n ikki shoxli daraxt
To'kdi bitta yaprog'in.
Shamol uchirib ketdi
Kalandarning varog'in.

Qaytmas bo'lib o'tdi kun,
Yetolmaydi yugurgan.
«Kecha»dan o'z haqini
Olib qoldi ulgurgan.

O'tgan kundan she'r qoldi,
Ko'k bo'yи xirmon qoldi.
Birovga olam quvonch,
Birovga armon qoldi.

1964

INSON VA FURSAT

Soat qilib, zanjir o'tkazib,
 Bog'lab oldik fursatni qo'lga.
 Ammo fursat bo'y sunmadi hech,
 Yurmadi biz istagan yo'lga.
 Bizlar uni qo'zg'almas qilib
 Mixlab qo'y dik devorlarga ham.
 Ammo fursat bizdan yulqinib
 Chop a berdi oldinga ildam.
 To'xtatmoqqa urindik qancha,
 Toshlar osdik, ammo bo'l madi.
 Sahar payti chirillaganda
 Yostiq bosdik, ammo bo'l madi.
 Mahkam qilib oltin zanjirin,
 Qisib oldi bilagimizdan.
 Quloqlarni berkitdik, lekin
 Sado berdi yuragimizdan.
 Uyga qochib berkinganlarni
 «Chiq-chiq», deya tortdi baridan.
 Boshin yopib burkanganlarni
 Yulib oldi to'shak bag'ridan.
 Vaqt ni qildik maydalab soat,
 Parchaladik sekundlar qadar.
 Chop a berdi va lekin fursat,
 Qola berdik dod deb orqada.
 Nihoyat, biz fursatni quvib,
 Qamchi soldik g'ayrat otiga.
 U har qancha yelib, yugurib
 Yetolmadi inson zotiga.
 Bizdan ortda surgalmasin deb,
 Bizlar bilan chiqsin deb yo'lga,
 Soat qilib,
 Zanjir o'tkazib
 Bog'lab oldik fursatni qo'lga.

1964



* * *

Ko'cha o'rtasida bir siniq shisha
O'tgan-ketganlarga solar o'zini.
Ko'cha o'rtasida bir siniq shisha
Qaragan odamning olar ko'zini.
Shofyorlar tushirar qora oynasin,
Yo'lovchilar chetga burar yuzini.
Ko'cha o'rtasida bir siniq shisha –
Tengsiz mo'jiza deb o'ylar o'zini.

1964

* * *

Bolalarni shaytonlardan qo'rqtitmangiz,
Bobov keldi, deb ko'rpga berkitmangiz,
To ulg'ayib, duch kelganda «bobov»larga,
O'xshamasin itdan qo'rqqan soqovlarga.

Bolalarni shaddodlikka o'rgatmangiz,
Rahmsizlik, bedodlikka o'rgatmangiz.
To ulg'ayib, duch kelganda insonlarga,
O'xshamasin andishasiz shaytonlarga.

1964

JON SHIRINMI, QAND SHIRIN

Aytish qiyin, do'stim, daf'atan,
Shirinlikda nima ziyoda.
Go'dak uchun ona ko'ksidan
Shirin narsa yo'qdir dunyoda.

Yillar o'tib, yoshiga monand
O'zgaradi har bitta inson.
Bolalikda shirin bo'lsa qand,
Qariganda shirin bo'lar jon...

1964

VOKZALDA

Sukunatdan siqlsa ba'zan
Halovatga o'rganmagan jon,
Izlab toshqin hislarga maskan,
Yo'l olaman Vokzalga tomon...
Bu dargohda hech tinmas g'ulu,
Bu dargohda hech so'nmas chiroq.
Bunda yondosh shodlik va qayg'u,
Bunda yondosh visol va firoq.
Bunda so'zlar inson nigohi,
Qalb urishin eshitar odam.
Goh shodlikdan qichqirib, gohi
Uf tortadi Paravozlar ham...
Nechog'lik boy tuyg'uga inson!
Vokzal shohid bari, bariga.
Shuncha shodlik, shuncha hayajon,
Shuncha ko'z yosh va shuncha tug'yon,
Shuncha umid va shuncha armon
Qanday sig'ar uning bag'riga?!

1964



* * *

Fursat – oltin,
Sen ko'krak kerib
Oltiningni sochib borasan.
Fursat quvar,
Unga chap berib,
So'rog'idan qochib borasan.
U yetolmas,
Yoshsan – abjirsan,
Qolmay kelar lekin orqangdan.
Qochma yigit,
Vaqt kelar, birdan –
Fursat mahkam tutar yoqangdan.
Foyda bermas
Ming tavbang u kun
So'rар ekan fursat sarhisob.
Benaf o'tgan
Hayoting uchun
Vaqt oldida berursan javob.

1962

INSONIYAT TARIXI

(Sharq afsonasi)

Soylar kelur kumush tog'lardan,
 Gul bo'ylari – chaman bog'lardan.
 Yer ko'ksidan oqar buloqlar.
 El naqlidan chiqar saboqlar.
 She'r quyilib yurakdan kelur,
 Ertak ezgu tilakdan kelur...

1

Juda qadim zamonda,
 Qobiliston tomonda
 Bir podsho o'tgan ekan
 Davron surib jahonda.
 Butun umrin kechirib
 Kayf bilan, safo bilan,
 Ishi bo'lмаган ekan
 O'tkinchi dunyo bilan.
 Yillar o'tib, nihoyat,
 Yoshi yetgach bir joyga,
 Barcha ulamo ahlin
 Chaqiribdi saroyga.
 Debdi: «Olamga kelib
 Olam nedir bilmadim,
 Odam bo'lib yashadim,
 Odam nedir bilmadim.
 Qirq yil podsholik qilib
 Umrim o'tdi g'aflatda.
 Qolganini ilmga
 Sarf qilurman albatta.
 Shuning uchun farmonim:
 Barcha bilimni to'plab,
 Odam ahli yaratgan
 Barcha ilmni to'plab,



Insoniyat tarixin
Jam qilib kitob yozing.
Yozganda ham batafsil
Va lekin shitob yozing».

2

Olampanoh podshoning
Farmonin bajo etib,
Qirq faslda qirq olim
Qirq tuya kitob bitib,
Karvon bilan podshoning
Saroyiga eltmishlar.
Ta'zim bilan keltirib
Shohga taqdim etmishlar.
Demishlar qullaringiz
Yuragining qoni bu,
Insoniyat tarixin
Eng qisqa bayoni bu.
Hayrat ichra debdi shoh:
Ko'p yozibsiz bunchalar.
Insoniyat tarixi
Uzunmidi shunchalar?
Kimga darkor shuncha gap,
Sanjob qiling, ulamo,
Ko'pi bilan bir tuya
Kitob qiling, ulamo.

3

Yana ulug' podshoning
Farmonin bajo etib,
Insoniyat tarixin
Qirq bor muxtasar bitib,
Qirq donishmand saf chekib
Saroy tomon yurmishlar.
Podshoning qarshisida
Ta'zim qilib turmishlar.

Olimlarga debdi shoh:
 Rahmat sizga, ulamo,
 Bularni ham o'qishga
 Umrim yetmaydi ammo.
 Shuning uchun, azizlar,
 Tafsilotni kam qiling.
 Bor ilmni yig'ing-u
 Bir kitobga jam qiling.

4

Qaytib yana qirq olim
 Qirq oy tun-kun o'tirmish.
 Qirq tuyalik kitobni
 Bir kitobga keltirmish.
 Ular yana saf chekib
 Yo'l oglanda shoh tomon,
 Shoh o'lim to'shagida
 Yotar ekan bu zamon.
 Kitobni ko'rib debdi:
 Rahmat sizga, ulamo.
 Bir kitobni o'qish ham
 Endi menga muammo.
 Olimlarga boqibdi
 Podsho ma'yus ko'z bilan:
 «Mazmunin aytib bering
 Ikki og'iz so'z bilan.
 Eshitib o'lar bo'lsam
 Qolmas edi armonim».
 Olimlar donishmandi
 Shunda debdi: xoqonim,
 Odamlar tug'iladi,
 G'am chekadi, o'ladi.
 Insoniyat tarixin
 Mazmuni shu bo'ladi...



SHE'R VA SHAXMAT

Katak qog'ozdag'i to'rt yo'l she'r kabi
Shaxmat donalari saf chekkan qator.
Nayzador fili-yu shahsuvor aspi,
Tug'bardor farzini hujumga tayyor.

Shaxmatni she'r bilan qiyos ayladim,
Bilimdon o'quvchim, qilma e'tiroz.
She'r axir emasmi shaxmatdek qadim,
Shaxmatda yo'qmi yo she'riy ehtiros.

Go'zallik, nafosat, kurash va san'at
She'r ila shaxmatga azaliy udum.
Ming yillik umrida ular beshafqat
Doimo shohlarga boshlagan hujum.

Shaxmat ko'p o'ynalgan, she'r ko'p yozilgan,
Odatiy yurishlar hammamizga yod.
Bobolar o'ynagan usullar bilan
Ular nabirasin qilib bo'lmas mot.

O'yin ermak emas she'r ham, shaxmat ham -
Aqlilar kurashi, tuyg'ular jangi.
Bu jangda qo'yilgan har bitta qadam
Odil-u haq bo'lsin, go'zal va yangi.

Men orzu qilaman, to'rt yo'l she'r bitib,
Elga manzur qilsam aqalli bir bor.
Shaxmatni ilk bora ixtiro etib
Quvongan hindidek edim baxtiyor.

Shaxmat abadiydir, she'r abadiy,
Yurish tugamas-u so'z bo'lmas tamom.
Shaxmat taxtasida, she'r maydonida
G'oyalar kurashi etadi davom.

YANGI YIL GULDASTASI*O'qituvchilarimga*

Bu kun men chamanlardan
Bolaligimni eslab,
Saharlab shudring kechib,
Quvlashib o'tgim kelur.
Yigirma yetti bahor
Chechaklarin saralab,
Aziz ustozlarimga
Dasta gul tutgim kelur.
Navbahor quyoshidan
Nur emgan nihol kabi
Sizning shuuringizdan
Men ham bahramand bo'dim.
Do'stlarim Murod, O'tkir,
Tal'at, Mirjamol kabi
Kattakon oilada
Men ham bir farzand bo'dim.
Ustozlarim, men sizning
Bir parcha yuragingiz,
Aziz boshingizdag'i
Bir tola oq mendandir.
Ozgina oqlay olsam
Umid-u tilagingiz,
Qarshingizda bosh egib
Ta'zim qilmoq mendandir.
Siz mushfiq ona bo'lib,
Bo'lib mehribon padar,
Go'dak boshimni silab,
Ertamni o'yladingiz.
O'ttiz ikki harfdan
Osmon ilmiga qadar
Murg'ak ongimga quyib,



Hayotga yo'lladingiz.
Yangi yil kelar ekan
Dil uyin qilib obod,
O'ylayman, toshqin suvdek
O'n yil oqib o'tibdi.
Siz meni kuzatgan yil
Maktabga kelgan avlod
Bugun uchirma bo'lib
Qanot qoqib turibdi.
Qayda bo'lmay, ne qilmay,
Mudom sezib turaman,
G'oyibona siz meni
Qilmoqdasiz imtihon.
Qalam olsam qo'limga,
Dastlab sizni ko'raman.
Urinaman, she'rlarim
Bo'lmasin deb parishon...
She'r yozdim yangi yilning
Muborak ayyomida,
Har bitta misrasiga
Mehrim payvasta bo'lsin.
Bu she'rim qahratonning
Ayozli oqshomida
Otashqalb shogirdlardan
Sizga gulasta bo'lsin.

1964

UCHI TUGUK DASTRO'MOL

Qo'shnik ishga ketayotir saharlab,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.
Yo rektorga aytmoqchidir muhim gap,
Kechqurunga go'sht kerakdir ehtimol.

Kim biladi, balki zarur kiritmoq
Ilmiy kengash qaroriga yangi band,
Yo do'stiga qilmoqchidir qo'ng'iroq,
Olmoqchidir bolalarga xo'rozqand.

Balki... yana boshqa ming bir xil sabab,
Unutmasin deb parishon bu xayol,
Qo'shnik ishga ketayotir saharlab,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,
Bitmas ish yo'q, oshiqmasin yuraging.
Inson umri axir yeldek o'tadi,
Bosh ko'tarib atrofingga qaragin.

Qara, bahor sep yozibdi olamga,
Qara, g'uncha gul shoxini egibdi.
Yasanishni unutmay deb bayramga,
Balki u ham ro'molchasin tugibdi.

Bu dunyoda kim betashvish, kim beg'am,
Har insonning bir boshida ming xayol.
O'ylab ko'rsam, miyamizning o'zi ham
O'n to'rt milliard uchi tuguk dastro'mol.

Odam yashar zamon yukin orqalab,
Serg'alvaroq kechasidan buguni.
Orom bermas ko'kragida betinch qalb
Bamisoli dastro'molning tuguni.



Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,
Muhim gap ham, qo'ng'iroq ham, xo'rozqand.
Ammo seni ertangi kun kutadi,
Erta yana dastro'molning uchi band.

Bugungidek yana sahar turasan,
Ajratasan keraklarning keragin...
Sochlaringda bir tola oq ko'rason
Birinchi bor sanchganida yuraging.

Taqdir deylar, bilmam nadir taqdiring,
Balki oltmis, balki yuzga kirgan chol...
Boshing uzra unsiz yig'lar kampiring,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Hayot asta so'nar ekan ko'zingda,
Yurak sendan hisob so'rар o'sha kun.
Bo'lganmi hech ixtiyoring o'zingda,
Biror soat yashadingmi betugun?

O'yla, do'stim, kelmay turib o'sha dam,
Isrof qilma yosh yurakning kuchini.
Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan,
Tugib qo'ygin dastro'molning uchini.

1966

SO'NGAN YULDUZLAR

Koinot qa'ridan
Million yil yurib,
Bukun derazamga
Qo'ngan yulduzlar!
Ming yillar ilgari
Taratgan nurin,
Ming yillar ilgari
So'ngan yulduzlar!
Kim aytar sizlarni
Umri bitgan deb,
Hamon ko'k sahnida
Porlab turibsiz.
Jozibalar bilan
Ko'zlarni tortib,
Imlab, o'zingizga
Chorlab turibsiz.
Sizga termilurman
Kechalar bedor,
Ajib qismatingiz
O'ylab qolurman.
Necha asrlarga
Umri poyidor
Buyuk ustozlarim
Yodga olurman.
Ular ham siz kabi
Yongan bir zamон.
Yonib ado bo'lgan
Sizlardek, ammo
Avlodlar yo'llini
Yoritar hamon
Ular qachonlardir
Taratgan ziyo.

1964



G'UNCHA

Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan,
Bag'ring nechun tuguncha?
Pinhon siring bayon et,
Ko'ksingni qilma ko'p qon,
Bu yoki ishq atalgan
Bizga ayon tushuncha?
Sevmoq uyat emasdir,
Har kimda bor bu savdo,
Qo'y, ko'p qizarma, g'uncha,
Boshingni egma buncha.
Bo'ldingmi men kabi yo
Bir bevafoga oshiq,
Ayt, sevganiningni senga
Parvosi yo'qmi uncha?
Gulgun yanog'ing uzra
Bir tomchi yosh ko'rарman,
Kel, birga dardlashaylik,
Uy-uyda yig'laguncha.
Men ham axir seningdek
Izhori ishq etolmay
Ko'ksimda dudi ohim
Dashtlar aro kuyuncha.
Ey g'uncha, sabr aylab
Umidi vasl qilg'il,
Hijron-u yor jafosi
Bizga faqat buguncha.

1962 – 1967

SARV

Kecha oydin, mavjli dengiz,
 Kuy to'qir bedor sarv,
 Oy kelib sarv uzra qo'ndi,
 Bo'ldi oyruxsor sarv.
 Ikki sarvning o'ttasida
 Men turibman lol-u gung,
 Bir tomon sarv qadli dildor,
 Bir tomon dildor sarv.
 Lol-u gungman, boisi sarv,
 U seni ko'rgan kecha
 Yerga kirmabdir, taajjub,
 Bu qadar beor sarv.
 Bir boqishda oshiq o'lmak
 Bul ajablik demagil,
 Bir ko'rib qaddingga mangu
 Bo'ldi-ku xushtor sarv.
 Bo'y cho'zib har yon qaraydur,
 Bundaman deb ayt, sanam,
 Qomatingni bir ko'rarga
 Kechadin xummor sarv.
 Men-ku yor vasliga keldim
 Sarv tag'in xilvat bilib,
 Erta tong olamga so'ylab
 Qilmagin oshkor, sarv.
 Lablaridan bo'sa izlab
 Jon suvin topdim bu kech.
 Sarv tagida baxtli bo'ldim,
 Ham bu baxtga yor sarv.
 Soch-u qadding yodin Erkin
 Gar unutsa bir nafas,
 Unga sunbul sirtmog' o'lsin,
 Mayli, bo'lsin dor sarv.

1967



KIPRIGINGDAN O'Q UZIB

Kiprigingdan o'q uzib
Ko'ksim aro zahm aylading,
Dilni zabt etmoqqa balki
Choh o'yib lahm aylading.
Tashna ko'nglim ichmasin deb
Ko'z yoshimdan qatra ham,
Ashk soyining yo'liga
Kiprigim dahm aylading.
Sen o'zing kirding ko'ngilga
G'am sipohin boshida,
G'aflat uyqusida erdim,
Ayt, nechuk fahm aylading?
Sen ko'ngil mulkini toroj,
Qalb uyin vayron etib,
Pora qildingmu tanimni,
Jonima rahm aylading.
Oshiq o'lding, ey ko'ngil,
G'am lashkaridan qo'rqlmagil,
Bari chopku oldda, Erkin,
Ne uchun vahm aylading?

1967

KECHA VA KUNDUZ

Yorug' dunyo bor ziyyosin teng
Taqsim etgan kecha, kunduzga.
Nur qadriga yetmay tun, uni –
Sochdi oyga, minglab yulduzga.
Shundan oyning yuzi dog' ekan...
Yulduzlar ham xuddi munchoq yosh.
Kunduz esa barcha nuridan
Yaratibdi birgina quyosh.

1965

KUY AVJIDA UZILMASIN TOR

Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo'lmay umrini zinhor
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo'ldan tushib sinmasin qadah,
Lab tekkanda to'kilmasin may.
To'xtamasin urib turgan qalb,
Boshlab qo'ygan qo'shig'i bitmay.

1964

YULDUZ

Sarlavhasin topmay gohida
She'rim uzra qo'yaman yulduz.
Posbon bo'lsin she'rim boshida
O'sha yulduz kecha-yu kunduz.

Zuhro kabi yaraqlab tursin
Tunlar o'zim yumganda ko'zim.
Hech so'nmasin, charaqlab tursin,
So'nganda ham mening yulduzim.

1964



OG'RIQLI SAVOLLAR

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan og'ayni,
Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og'ayni,
Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami bo'lмаган,
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo'lмаган,
Imonni ham, vijdonni ham qurban qilgan halqum deb,
Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?

El mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,
Ko'kragida na himmat-u, na g'ayratdan asar bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor,
Umrida hech qilgan emas mulkdan o'zga bir niyat,
Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?

Ey, ko'ngilda mojarolar orzu qilib yotgan jon,
Tangring – amal, martabadir, payg'ambaring –
shuhrat, shon.

Bu davlatga o't ko'yasan, yo'qotasan xilqatdan,
Gar hokimlik tegar bo'lsa senga yangi davlatdan.
Quruq gapdir senga Vatan, xalq-u ozod, istiqbol,
Sening uchun istadimmi yurtimga men istiqlol?

Mudom kurash azobini fidoyilar ko'rganlar,
Inqiloblar hosilini muttahamlar o'rganlar.
Siz ham bugun panadasiz, jangga bizni qayraysiz,
Biz bu jangda shahid bo'lsak, avvalo siz yayraysiz.
G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na'ra – uningni,
Ko'rарманми зулуклардан ozod bo'lgan kuningni?

1991

QALAM

Ulfatimdir sham yanglig'
Kechalar tanho qalam,
Men-ku she'r Majnunidirman,
Sarvqad Laylo qalam.

Ahli she'rga to qiyomat
Ulfat o'imakdir azob,
Ne iloj etsin, boshida
Bor ekan savdo qalam.

Rost, qalam timsoli she'r,
Timsoli tig', timsoli haq,
Boshini ming kesdilar,
Bosh egmadi aslo qalam.

Yor, diyor mehrini kuylab
Umrimiz bo'lgay ado.
Men na istisno erurman,
Sen na mustasno, qalam.

Yangrasin Erkin so'zing,
Aslo tiling lol o'lmasin.
Dast ko'tar davron yukini,
Etma qadding yo, qalam.



BARG

Ikki qoshing o'sma birlan
Bo'ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg.
Titramog'im boisi ul
Bargni tebranmog'idir,
Yoki ohimdanmu titrar
Bo'yla nozik hisli barg.
Barg dedim, ammo bilolmam,
Qay biri xushbo'y ekan,
Ikki mushkin sunbuling yo
Ikki rayhon isli barg.
O'smali qosh dema, zumrad –
Naqsh etilgan sajdagoh,
Kam bukun mehrobga ixlos,
Lek bu ko'p muxlisli barg.
O't yuzingning shu'lasidan
Bu qoraygan qoshmi yo
Subhi bayzodek gul uzra
Shomi savdo tusli barg.
Voh ajab, o'z nargisiga
Banda bo'lmish, ne iloj,
Indamay kiprik – tikan
Zahmin chekar nomusli barg.
Ikki barg ta'rifin Erkin
She'rga salsa tong emas,
Ul biri tashbehli barg-u
Ul biri tajnisli barg.

1967

DAVRON YUKI

Aylanur inson boshidan
Ming asr osmon yuki,
Dona bug'doy uzra go'yo
Sangi tegirmon yuki.

Dona bug'doy dema, bu bosh
Necha ming olamcha bor,
Bor uning har nuqtasida
Necha ming davron yuki.

Hazrati Inson qoshida
Sajdaga bosh egdi charx,
Chunki inson qalbida ishq,
Boshida urfon yuki.

Nur qadam birlan yelar
Cheksiz fazo bo'ylab zamin,
Yelkasida beshta qit'a,
To'rt buyuk ummon yuki.

Ko'k tarozu pallasidur,
Bu zamin bir tosh anga,
Charx posangisida
Yuz ming tuman inson yuki.

Shuncha yuk mushkul emas,
Lekin ezar Yer siynasin
Begunoh ko'ksiga tomgan
Qatra-qatra qon yuki.

Yer uza yuksalmish Inson
Bir qo'lida nur – charog'.
Bir qo'lida bor uning
Mahshar bila to'fon yuki.



Ey tabiat, ona-Yer,
Sen ber madad, tark etmasin
Hech qachon Odam dilin
Vijdon yuki, imon yuki.

Bas, xayolga cho'kma, Erkin,
Bitmagay olam o'yi,
Keng jahon sig'gan ko'zingni
Bosdi tong mujgon yuki.

O'CHIRG'ICH

She'riyatning timsoli – qalam,
U haqda-ku, she'rilar behisob.
Ey shoirlar, bitganda kitob,
Eslab qo'ying o'chirg'ichni ham.

Usiz bo'imas she'ringiz ravon,
Usiz qilmas satrlar xanda.
Siz qalamga she'r ataganda,
O'chirg'ichga bag'ishlang doston.

1963

DUTORIM TORI IKKIDUR...

Dutorim tori ikkidur:
 Biri quvnoq, biri mahzun
 Ki, baytim satri ikkidur:
 Biri dilxush, biri dilxun.

Nigorim chashmi ikkidur:
 Biri yag'mo, biri jodu,
 Bu jodudan ikki ko'zim
 Biri Sayxun, biri Jayxun.

Jahonda ikki dilbarning
 Biri sensan, biri Laylo,
 Jahonda ikki oshiqning
 Biri menman, biri Majnun.

Jahonda ikki yulduz bor:
 Biri sensan, biri Zuhro,
 Misoli ikki nuqtamning
 Biri ostin, biri ustin.

Jahonning mehri ikkidur:
 Biri sensan, biri oftob,
 Tarozu pallasi ikki:
 Biri yerdur, biri gardun.

Makoni ikki lochinning –
 Biri qoya, biri osmon,
 Qanoti ikki shoirning –
 Biri o'lka, biri ochun.

G'azal bitmakda sachrabdur
 Ko'zimdan yosh, dilimdan o't.



Shu bois ikki satrimning
Biri qatra, biri uchqun.

Kelib bog' sayridan Erkin
G'azalga to'lqin izlardim,
Kirib keldi ikki do'stim:
Biri Sayyor, biri To'lqin.

SHOHLAR ORZUSI

Amal tegmaganlar ichidan bo'zlab,
Martaba zavqini totsam, der ekan.
Amalga minganlar yuksakni ko'zlab,
Qadamni kattaroq otsam, der ekan.

Sardor vazirlikni har kun tush ko'rib,
Vazir iloj topsa shohni o'ldirib,
Yarim kun bo'lsa ham taxtga o'ltirib
Shon-shavkat ganjiga botsam, der ekan.

Shoh nima istaydi, unga nima kam?
Ulus g'avg'osidan boshi to'la g'am,
Tinch kulba bo'lsa-yu yovg'on ichsam ham
Biror dam xotirjam yotsam, der ekan.

1990

SHE'R AZIZ OLAM ARO

She'r aziz olam aro
Menga tiriklik, jon qadar,
Jon nedir oshiq uchun,
Jondin aziz jonon qadar.

She'rdan ayru tonglarim
Yaldo tuniday zim-ziyo,
She'r bilan tunlar charog'on
Xurshidi tobon qadar.

She'r o'zi jonon emasmu,
Yondirar hijronida,
Gohi boqsa bir qиyo,
Boshim bo'lur osmon qadar.

Kimki oshiqdur jahonda
She'rga bo'lgay mubtalo,
Ishq uchun tengdur gadodan
To buyuk sulton qadar.

Shoh Bobur Hindu sori
Yurdi-yu, shoir va lek
Yig'ladi Farg'onadin to –
Mulki Hindiston qadar.

She'r zulolidan simirdim
Bir piyola to'dirib,
Voh, ko'rindi menga har bir
Qatrasи ummon qadar.

Nuqta ko'y nazmingga, Erkin,
Muxtasarlik so'zga zeb,
Yo'qsa, tong otguncha she'ring
Bo'lg'usi doston qadar.



HOFIZGA

Ming Samarqand, ming Buxoro
Hadya etgum xol uchun,
Lek nigorimda havas yo'q
Mulk-u davlat, mol uchun.

Senga yulduzli samoni
Sovg'a aylarman desam,
Nozlanib, o'ldimmi, deydi,
Bu cho'tir ro'mol uchun.

Gar hiloldan sirg'a taqmoq
Istasam, aytur sanam:
Zormidim jezdan yasalgan
Hiylayi a'mol uchun.

Ul parivash chehrasini
Oyga etgandim qiyos,
Bir umr uzr aytadurman
Bu xato timsol uchun.

Hajrda qaddimni dol
Etding, desam, bergay javob:
Kim qo'yibdur sevgini
Qaddi bukilgan chol uchun.

Yor istig'nosidan
O'lmasman-u, kuydim va lek –
Lobarim oldida nazmim
Bu qadar behol uchun.

YO'Q EMISH ORZUDA AYB...

Saydi ishq so'lgan ko'ngilga
Qo'y mangiz behuda ayb.
Bo'lsa bandi domi sayyod,
Yo'q erur ohuda ayb.

Bandga tushgan bu ko'ngildur,
Menda, ayting, ne gunoh,
Dil qushiga dom qo'ygan
Ul ikki joduda ayb.

Jodu ko'zlar bandi yolg'iz –
Sen emas, tutqun yurak,
Avval-oxir ko'hna meros
Ishq degan tuyg'uda ayb.

Ey ko'ngil, o'z mayling ila
Bo'lding ishq domiga band,
Izlama endi bahona,
Demagin u-buda ayb.

Sevgi dardidan mening ham
Bo'ldi rangim kahrabo,
Yo'q iloj, ne naf o'kinmak
Bo'lmasa ko'zguda ayb?



KERAK BO'LSA

Men bor, senga bir haqgo'y –
Devona kerak bo'lsa,
Yo'qman, tili qand nodo'st
Parvona kerak bo'lsa.

Istarmi safo ko'ngling,
Bor unda saroylarga,
Kel bunda, esang dardlik,
G'amxona kerak bo'lsa,

Hamdam o'zim, ey oshno,
Malham so'zim, ey oshno,
Ikki ko'zim, ey oshno,
Hayrona kerak bo'lsa.

Bergum na kerak senga,
Jon senga, yurak senga,
Zardobga to'lib ketgan
Paymona kerak bo'lsa.

Bog'imni makon etgan
Ey siz gala boyqushlar,
Ko'ksimga qo'ning, Sizga
Vayrona kerak bo'lsa.

Vayron chamanim vodiy,
Ko'ksimda uning dodi,
Faryodga qulog'ing och,
Farg'ona kerak bo'lsa.

Naylay, bu og'ir so'zlar,
Quvmang meni, ey do'stlar,
Oqillar aro bitta
Devona kerak bo'lsa.

QILURMAN TAVBALAR

Qilurman tavbalar, garchi
 Tazarrulik gunohim yo‘q.
 Gunohim yo‘qligiga lek
 Netay, isbot, guvohim yo‘q.

Eshitmas el fig‘onimni,
 Kelar olmoqqa jonimni,
 Olurga lek yonimni
 Mening bir xayrixohim yo‘q.

Na so‘z derman ochib og‘iz,
 Zabonsiz, kimsasiz, yolg‘iz –
 Kelib cho‘kdim qoshingda tiz
 Bo‘lak sendin panohim yo‘q.

Ishonching – menga rizq-u ro‘z
 Zabun holimga solgin ko‘z,
 To‘karga yosh, deyarga so‘z
 Ham oh tortarga ohim yo‘q.

Bu bandangda xatolik bor,
 Xatolik – jonfidolik bor,
 Shu bois ko‘p judolik bor,
 Gadolik bor-u johim yo‘q.

Qaro qoshingga bo‘lmay zor,
 Qorayguvchi ne shomim bor?
 Yuzing yod etmayin zinhor
 Oqarguvchi sabohim yo‘q.

Bu sarson yo‘lda behamroh,
 Topolmam manzili dilxoh,



Muhabbatdan bo'lak, billoh,
Illohim, sajdagohim yo'q.

Bu olamdan uzib ko'ngil,
Yonib ketsam, vujudim kul,
Unar ishq bog'ida bir gul
Bu kuldan, ishtibohim yo'q.

1991

SHOIRLIK

Ustoz Mirtemirni izlab

Shoirlilik – bu shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir.
Shoirlilik – jigarni ming pora etmak,
Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.
O'zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
Elga qurbon qilib, eng so'nggi karra
Armon bilan demak: «Ey ona yurtim,
Kechir, xizmatingni qilolmay o'tdim».
Shundoq yashar asli sohibi ijod,
Shundoq yashab o'tdi Mirtemir ustod.

1980

RAQQOSA

Bazm aro noz birla jonon o'ynasa,
Ne ajab, jismim aro jon o'ynasa.

Silkinib gullar chamanda uyg'onur,
Qarsi barmoq birla xandon o'ynasa.

Oq nilufar suvda oqqandek erur,
Oq kiyib sokin xiromon o'ynasa.

Nogihon ko'nglimda yongay ming chiroq,
Nur sochib xurshidi tobon o'ynasa.

Davrada o'ynar pari, andoq bo'lur,
Oy to'lib yulduzli osmon o'ynasa.

Ko'lda oqqush raqsi bundoq bo'lmagay,
Buncha bo'lmas tog'da jayron o'ynasa.

Oncha mushkoro emas gulshan aro
Yel turib jambul-u rayhon o'ynasa.

Ko'z suzib ko'zimni hayratga solur,
Mast qilur boshimni maston o'ynasa.

Raqsini sog'indi jon, oh kelsa-yu
Dil uyida bo'lsa mehmon, o'ynasa.

Zarra armon qolmagay ko'nglimda, yor –
Qolmayin ko'nglida armon o'ynasa.

1995



YOD ETING

Qurbon bo'lgan askar nidosi

Men qaro tuproqda yotgan
o'g'lingizman, yod eting,
Intizor ruhim tilovat birla
yo'qlab shod eting.

Qolmisham olisda beqabr-u kafan,
benom-nishon,
Xotirimga ko'nglingizda
bir makon bunyod eding.

Har bahor qutlug' zafar
ayyomida sayr etsangiz,
Lolalarga termuling, pokiza
qonim yod eding.

Men hayotda bir farax ko'rmay
hayotdan ajradim,
Baxtingiz qadrin biling, anduhingiz
barbod eting.

Jangga kirdim, jon fido etdim
Vatan tuprog'i deb,
Mehri jonimda tirikdur,
siz uni obod eting.

Men olis ellarda qolgan
o'g'lingizman, yod eting,
Intizor ruhim tilovat birla
yo'qlab shod eting.

YOSHLIGIMDA..

Yoshligimda kelgan omad
Men uchun omad emas,
Yoshlik andoq baxt erurkim,
O'zga baxt hojat emas.

Neki tole bo'lsa, ko'rsam
Deyman ulg'aygach yoshim,
Yoshligimga, chunki baxtni
Qadr etish odat emas.

Tong quvonchi birla yayrab
Nurga chulg'angan chog'im
Men uchun shomi g'aribon
Vaqt emas, soat emas.

Yoshligimda, ne taajjub,
Bilmasam do'st qadrini,
Chunki yolg'izlik, g'ariblik
Men uchun holat emas.

Tut qadah, do'stim, tilarman
So'nggi qatra lazzatin,
Kim, bu lazzatsiz hayot ham,
Boda ham rohat emas.

1977



UCH BALODAN SAQLASIN

Uch balodan saqlasin,
Charxi balokash bo'lmasin,
Do'st mehrsiz, dardsiz ulfat,
Yor jafokash bo'lmasin.
Dil agar payvand erursa
Ne jafo chekmak firoq,
Hech ko'ngil sevgan ko'ngil -
Yonida yakkash bo'lmasin.
Sevgi barq-u otashida
O'rtanishni g'am demam,
Oshiqona bu dilim
Bebarq-u otash bo'lmasin.
Yuzta jonim bo'lsa har bir
Kokilingga bir pilik,
Tolasiga o'zgalarning
Ko'ngli chirmash bo'lmasin.
Neki dard bor, neki kulfat
Bu jahonning kunjida,
Men bo'lay yuz ming giriftor,
Lek mahvash bo'lmasin.
Men yoniq qalbimni tutdim
Senga kaft uzra qo'yib,
Ol uni, o'ynab va lekin
O'tga tashlash bo'lmasin.
Yorni oftob deding, Erkin,
Kuymagin hijronida,
Oftob goh berkinur,
Bundan diling g'ash bo'lmasin.

1967

UYATCHANLIK

Bu qaltis dard,
 Ziyrak bo'ling,
 Belgilari ayondir:
 Bosh sal egik, qo'l ko'krakda,
 Til chuchuk, yuz alvondir.

Ularga ko'p duch kelganman,
 Ko'nglim darhol sezadi.
 Uyatchanlar odob bilan
 Yuragimni ezadi.

Mana, unga qarang!
 Xushro'y,
 Mo'mingina boladir.
 Poraxo'rmas, qo'lingizni
 Qaytarolmay oladir.

Do'kondor ham ko'p uyatchan,
 Qizil qog'oz qasdida
 Bosh ko'tarmas.
 Ikki ko'zi
 Peshtaxtaning ostida.

Bu – otadir,
 Aslida u
 Otalikka yarolmas.
 Dada, deya chopib kelgan
 Bolasiga qarolmas.

Hamkasbim bor –
 Sohib ziyo,
 El dardini tuyolgan.



Lekin haq so'z aytmoqqa u
Kattalardan uyalgan.

Bu amaldor ko'tarilgan
Kimilargadir suyalib.
Tramvayda yurmaydi hech
Xaloyiqdan uyalib.

Unga sira ish tushmasin,
Bag'ring qonga bo'yalar.
«Xo'p» degani tortinadi,
«Yo'q» degani uyalar.

Muloyim zot sehrgardir,
Naqd qurbanbi bo'lasiz.
Kulib turib pichoq ursa,
Rahmat aytib o'lasiz.

Uyatchanlik ega shundoq
Kishi bilmas quvvatga.
Bir uyatchan butun elni
Qo'yaolar uyatga.

Biz ulardan kulsak, ichda
Ular bizdan kuladi.
Bu kasalni yo'q qilmasak
Juda uyat bo'ladi.

1988

* * *

Inson fe'li ajabdan ajab,
Yo'qdir unga mezonsiz olam.
Yulduzlarni o'lchar botmonlab,
Qarichlaydi cheksizlikni ham.

O'zi ega, o'zi qul mangu
O'zi topgan aqidalarga,
Ne dey, hatto mangulikni u
Bo'lib chiqqan daqiqalarga.

Daqiqadan soatlar yig'ib,
Kunlar tuzib oy jam qiladi.
Yirlamaydi umr o'tdi deb,
Yil o'tdi deb bayram qiladi.

Ko'paysa-da ajinlar harchand,
Oqarsa-da yillardan boshi,
Quvonadi – ko'paydi farzand,
Sevinadi – ulg'aydi yoshi.

Bu tugamas orzu-havasda
Bor umidbaxsh imonga asos.
Inson o'lmas.
Asta va asta
Farzndlarga o'tadi, xolos.

1989



KO'RSATKICH BARMOQ

Umring tahlikada, qo'rqib yashading,
Yonmading, tutundek burqsib yashading.

Barmoqlaring ichra baridan ko'proq
Senga xizmat qildi ko'rsatkich barmoq.

Labga bosding, shiftga ishora qilding,
Ko'pni tilsiz qilding, bechora qilding.

Bir zamon ko'rsatkich barmoqni qo'llab
Omon qolding, dorga do'stingni yo'llab.

Endi oshkorlikdan kuyib turibsan,
Barmoqni chakkangga qo'yib turibsan.

Sirsiz hayot senga bag'oyat mushkul,
Yuragingda yashar itoatli qul.

Tilaysan, Beriya tirilib kelsa,
Norasmiy guruhlar qirilib ketsa.

Bu kunlar tillarga bo'lsa-yu qarmoq,
Yana kuchga kirsa ko'rsatkich barmoq.

1989

TILAK

Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim,
Elga sochgan bo'lsa borini doim,
Himmati bor bo'la turib, ilohim,
Qo'lidan davlati ketmasin uning.

Kim umrida sira bilmagan tinim,
Mehnatsiz bir lahma turolmagan jim,
G'ayrati bor bo'la turib, ilohim,
Belidan quvvati ketmasin uning.

Bir ishga qasd qilib shoir yo olim,
Xayol surib – keyin ne bo'lur holim –
Qudrati bor bo'la turib, ilohim,
Dilidan jur'ati ketmasin uning.

1976



PUSHKIN

Men ilk bor maktabga qo'yganda qadam,
Ilk bor alifbodan olganda ta'lim,
Menga olam aro yuz ochgan olam –
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

Hali men anglamay Alisherni ham,
Gyote ruhi hali bo'lmasdan hokim,
Xayolim beshigin tebratgan onam –
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

Ulg'aydim, kengaydi ufqi hayotning,
Dunyo ko'rkin ochdi ulug'vor, azim.
Ko'zlarimga qilgan keng olamni keng –
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

Murg'ak dilga tushib she'rning havasi
Bayon etganimda ilk ko'ngil arzim –
Menga madad bo'lgan otash nafasi –
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

Hali yo'lim olis, hayot hali bor,
Hali bu dunyodan ko'p mening qarzim.
To tirik ekanman takror va takror
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

Shoir bo'sam bir kun elga munosib,
Meni shoirim deb atasa xalqim,
Navoiy devonin ko'ksimga bosib,
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

1974

SHOIR

Husniddin SHARIPOVga

Shoirlarga hayron bo'lmanq,
Shoir xalqi turfaroq.
Gohi mag'rur, gohi diltang,
Goh hazin, goh tumtaroq.

Unga bir pul mansabi ham,
Unda mansab bo'lmaydi.
Sevgisi ham, g'azabi ham
Chegarani bilmaydi.

Oqil odam g'am, azobdan
Yonib fig'on bo'ladi.
Shoir esa iztirobdan
Zavq qiladi, kuladi.

Boshqalarga dam olish kun,
Ta'til oyi berilar.
Shoir yangi tashbeh uchun,
O'lgan bo'lsa, tirilar.

Boshqalar o'z dil dardini
Boshqalarga to'kadi.
Shoir dardi yuragining
Tublariga cho'kadi.

Shoirlarga hayron bo'lmanq,
Shoir xalqi turfadir.
She'r olami bu olamning
Evaziga tuhfadir.

Orom bilmas shoir qalbi,
Chunki orom zavq emas.



Mana, shiftga qarab qoldi,
Xalal bermang bir nafas.

Xayoliga band u hozir,
Ikki dunyo begona.
Biroz go'dak, biroz... shoir,
Birozgina devona.

1968

SHOIR QALBI

Shoir qalbi go'yo anor,
She'ri uning sharbati.
Bo'lmas ekan she'r ahlining
O'z qalbiga shafqati.
Tinmay ezar, ezar uni
Ammo shoir biladi –
Piyolasi to'lgan kun
Paymonasi to'ladi.

1968

DEVONA HAQGO‘Y

Yana sening to‘ning yelkangda,
Sig‘may qolding bu dargohga ham.
Labda achchiq qimtilgan handa,
Tashqariga qo‘ysan qadam.
Tuqqaningga yoqmas to‘g‘ri gap,
Shuni anglab yetmagan bo‘lsang,
Bu dunyoda shuncha yil yashab
Diplomatlik atalgan adab
Ko‘chasidan o‘tmagan bo‘lsang, –
Ko‘ngildagi gapingni qachon
Kimga qanday so‘zlamoq kerak,
O‘zingga ne foyda, ne ziyon,
Anglamagan bo‘lsang gar, demak –
Ayb o‘zingda,
Toki bu dunyo
Tili burrolarga yor ekan,
Manmanlikdek tuzalmas savdo
Odamsot boshida bor ekan.
Toki boshliq zoti ekan haq,
Gapi gap-u so‘zi so‘z ekan,
To‘rdagilar hokimi mutlaq,
Pastdagilar yumuq ko‘z ekan:
Peshoningga bitilgan attang,
Yengilmoq bor doimo jangda.
Mudom sening qo‘lingda pattang,
Mudom sening to‘ning yelkangda.

1987



YO'QNI QANDOQ BOR ETAY?

Benajot ko'nglimni qandoq
So'z bilan izhor etay?
Qay iloj birlan ilojsiz
Holatim oshkor etay?

Necha zahmatlar chekib ham
Topmagach aql-u hushim,
Qilmangiz endi nasihat,
Yo'qni qandoq bor etay?

Oshinolar qochdi mendan,
Yuz o'girdi g'ofil el,
Ne edi, ayting, gunohim,
Men uni takror etay?

To'g'ri so'z tuqqanga yoqmas,
Haq ekan, e voh, netay,
Do'stni dushman qildim, endi,
Dushmanimni yor etay.

Bul uqubat maskanidan
Bosh olib ketmoq kerak,
O'zni dalli, boshpanamni
Gumbazi davvor etay.

1991

YANA QALAMGA

Bargi gul qog'ozim o'lsin,
Shohi gul – xoro qalam,
Lafzi bulbul birla qilsin
Ishq so'zin insho qalam.

Orazin tasvir etarda
Bargi gul chok-chok o'lib,
Qoshi ta'rifini aylab
Yig'lasin shaydo qalam.

Hajr tahririda giryon,
Jabr tahririda xun,
Vasl tasvirida bo'lsin
Bulbuligo'yo qalam.

Bejavob ishq dardini
Tunlar bayon etdik ikkov,
Bu azoblarni bilar
Yolg'iz men-u tanho qalam.

She'r ila shod o'lding, Erkin,
Qilmading dunyo havas,
Bor ekan ko'ksingda otash,
Sen uchun dunyo qalam.

1967



MUHARRIR

Nega hadeb menga tanbeh berasan,
Nega o'z holimga qo'ymarysan, axir!
Nega har so'zimdan ayb qidirasan,
Beomon, noinsof, qattol muharrir.

Har so'zim ma'nosin qirq xilda chaqib,
Goh nolali deysan, gohi tumtarop.
Aytgin, ey, kattakon ko'zoynak taqib,
Nimalar izlaysan she'rimdan, o'rtoq!

«Xolis» xizmatingni, birodar, qo'ygin,
Iltimos, kerakmas menga yordaming.
Ming xil taftishlardan, rost aytsam, to'ydym,
Jonga tegib bo'ldi qizil qalaming.

Qachon bu zulmdan bo'lurman ozod,
Qachon tugar ekan bedodlik, axir!
Afsuski, hech kimga deyolmayman dod,
Chunki, men o'zimman o'sha muharrir...

1980

GULLAR BAZMI

Gul fasli sanam
Sayr ila gulshanda bo'libdur,
G'uncha ko'z ochib,
Gul yuzida xanda bo'libdur.
Gullar ichida
Shohi o'zim, der edi lola,
Mag'rurligidan
Ul o'zi sharmanda bo'libdur.
Karnay gulining
Og'zi ochiq, vola-yu hayron,
Nargisning, ajab,
Ikki ko'zi sanda bo'libdur.
Saf-saf tizilib
Safsar oyog'ingga qo'yib sar,
Band-band uzilib,
Joni bilan banda bo'libdur.
Qirq boshlarimiz,
Qirq deya qirq og'a-ini gul,
Tig'ingga ular
Bari sarafkanda bo'libdur.
Yuz jilva bilan
Nozli xirom etsa pechakgul,
Shohigul aning
Raqsiga xonanda bo'libdur.
Qalqib keladir
Suvda nilufar senga peshvoz,
Oq shoxida hur
Sayr ila yelkanda bo'libdur.
Gulshanda kezib
Xo'p sara guldasta tuzibsan,
Erkinning esa
She'ri parokanda bo'libdur.

1968



GULCHEHRALAR

Gulchehra shoiralarga

Gul bo'lib, gul-gul yonib,
Gulshan aro Gulchehralar,
Gul uzib o'ynar, qo'yib
Gulga bino Gulchehralar.

Qay birisi qay biriga
Oshiq erkan, bilmadim,
Gulmi yo Gulchehralarga,
Gulga yo Gulchehralar.

Aytingiz, kim gul demas
Kirsa xiromon bog' aro
Labga ol surtib, qo'yib
Qo'lga xino Gulchehralar.

Kuyga lab ochsa ular
Gulshanda bulbul sayramas,
Bosh egib tinglar chaman
Tuzsa navo Gulchehralar.

Buncha ham oqil ekanlar,
Oldilar aql-u hushim,
Buncha ham dilga yaqin
Bu dirlrabo Gulchehralar.

Qay birin ortiq qo'yay,
Yo'q, teng ekan she'r bobida
Nodira, Mahzuna-yu
Zebuniso, Gulchehralar.

Bu chaman gullarga kondir,
Ochilib yashnang mudom,
Gul bo'lib, gul-gul yonib
Gulshan aro Gulchehralar.

YOLG'IZLIK ISTAGI

«Meni yolg'iz qo'ying, do'stlarim,
Charchaganman, orom olayin.
Bugun menga kerakmas hech kim,
O'zim bilan yolg'iz qolayin.

Istamayman, bezovta qilmang,
Mensiz o'tsin buguncha gurung.
Bir kungina qoshimga kelmang,
Bir kungina chaqirmay turing.

Toliqqanman tekkundek jonga
Ulfat, to'y-u tomoshalardan.
Charchaganman, meni mehmonga
Chaqirguvchi oshinolardan.

Kerak emas menga bu farah,
Bu kun menga kerakmas sharob.
Do'stlar aro ko'tarib qadah,
She'r o'qish ham men uchun azob.

Qo'ying, bugun qolay gashtakdan,
Bo'lolmasman siz bilan birga.
Bari bir men yayrab yurakdan,
Kulolmasman siz bilan birga.

Bugun menga sukunat kerak,
Sukunatki, yo'qlik qadar tinch.
Faqat jimlik tilaydi yurak,
Sizdan bugun birgina o'tinch:

Yolg'iz qo'ying meni, do'stlarim,
Charchaganman, orom olayin.
Bugun menga kerakmas hech kim,
O'zim bilan yolg'iz qolayin».



Ey do'stlarim, bir zamon kelib,
Shunday so'zlar uchsa labimdan,
Siz ishonmang soddalik qilib,
Chiqqan bo'lmas bu so'z qalbimdan.

Yur, deng meni o'shanday damda,
Qulq solmang, so'zlarim yolg'on.
Yolvorsam-da, faryod qilsam-da,
Yolg'iz qo'y mang meni hech qachon.

Toki hech vaqt eshikka tanho
Termulmasin ma'yus ko'zlarim.
Mayli, meni o'ldiring, ammo
Yolg'iz qo'y mang sira, do'stlarim.

1977



OTA TILAGI

Taajjub, deyman-u yoqa tutaman,
 Murg'ak bola edim kecha-ku o'zim.
 Bugun qarabsizki, men ham otaman,
 Mening ham o'g'lim bor – umid yulduzim.

Qalbim urmoqda shu mushtdek yurakda,
 Yangidan o'smoqda kichkina jismim.
 Demakki, hayotim davom etmoqda,
 Demakki, olamda qolmoqda ismim.

Nima bor men uchun uningdek aziz? –
 Arzir bir so'ziga jon fido etsam.
 Jahonda nimaki bo'lsa eng laziz,
 Faqat uning uchun muhayyo etsam.

Kiprigiga zarra qo'nmasa qayg'u,
 Baxti komil bo'lsa, toleyi bekam.
 Ko'rsa men ko'rman shodliklarni u,
 Yetsa men yetmagan niyatlarga ham.

Ammo u bir umr bo'lmay oshino
 Tiriklik deganning zahmat, dardiga,
 Bila olarmikin nadir bu dunyo,
 Yeta olarmikin hayot qadriga?!

O'g'lim, ey, umidim bog'ida nihol,
 Yorug' peshonangni o'pib silayman.
 Shu aziz boshingga eng nurli xayol,
 Qalbingga eng toza hislar tilayman.

Ulg'ayarsan, yigit bo'larsan bir kun,
 Ortda qolar yoshlik, o'yin, ermaklar.
 Olamni yelkada ko'tarmoq uchun
 Dunyoga keladi, bilsang, erkaklar.



Ertangi kuningni o'ylab shu paytdan
Borliqni quvonchim bilan o'rayman.
Seni menga bergen bu tabiatdan
Sening yuragingga olov so'rayman.

Mayli, mushkul bo'lsin sen tanlagan yo'l,
Tole ham, mayliga, kelmasin oson.
Faqat odam qadrim bilar odam bo'l,
Bo'l inson dardini bilguvchi inson!..

1976

TUSHUNGAN ODAM

Kimga hasrat qilsam bag'rimni o'yib,
Kimdan yuragimga tilasam malham,
Ohista yelkamga qo'lini qo'yib,
Yupatar: sen o'zing tushungan odam.

Gohida alamim sig'may ko'nglimga,
She'r bo'lib to'kilar va lekin ey voh,
Qayga borsam she'rim qaytar qo'limga,
Tushungan odamsan, dunyodan ogoh...

Hayhot, deyman, adling shumi, ey Xudo,
Shundoq chizilganmi tarxingda olam?
Nogoh falakdan ham qaytar aks sado,
Axir sen tushungan odamsan, bolam.

1991

G'AZALNI SEVGAN QIZ

Sen kulib turibsan,
 Har qanday shoir
 Ko'zlarining o'tida erib ketadi.
 Hofizi Sheroziy tirilib hozir,
 Xolingga dunyoni berib ketadi.
 Noto'kis olamning to'kis va tugal
 Ijodi senmisan, mo'jiziy tal'at?
 Seni paydo etib buncha mukammal,
 Hayrat qilmasmikin o'zi tabiat.
 O'lmas shoirlarning o'lmas qalami
 O'lmas baytlar bitsa sen uchun, joiz.
 Ammo she'riyatning tashbeh olami
 Kamoling oldida naqadar ojiz.
 G'azalni sevibsan.
 Senga munosib
 G'azal bor ekanmi yorug' dunyoda?
 Shoir baxtli edi bir tashbeh topib,
 Shu kulib turganing qilsa ifoda.
 Ming yil balki seni qildilar ta'rif,
 Gohi oy dedilar, gohida quyosh.
 Olam kitobini ko'rdim axtarib,
 Hech shoir qalbingga topmabdi qiyos.
 Qoshingga yoy nisbat, sochingga zanjir,
 Parilarga nisbat jodu va sehring.
 Bayt yo'qdir olamda qilg'uvchi tasvir
 Oddiygina mehring, fidoyi mehring.
 G'azalni xushlabsan,
 Singlim, tashakkur,
 Har ko'ngil senigdek ishqiboz bo'lsin.
 Senga biror satrim bo'lolsa manzur,
 Oyog'ing ostiga moyandoz bo'lsin.

1982



SAYR

Rahmatulloga

Qilmadim bir bor o'shal
Gul yuzli zebo birla sayr,
Qonmagay dil, aylasam
Ming bitta Laylo birla sayr.

Ne bo'lur bir lahza kezsam
Husn shohi birla men,
Etmaganmu sayd chog'i
Qul shahanshoh birla sayr.

Badniyatlar davrasida
Shod-u xandon ul nigor,
Goh qilur Yetti qaroqchi
Sho'x Surayyo birla sayr.

Yor bilan sayr etmog'imga
Hech umidim qolmadi,
Men o'zim Majnun kabi
Aylaymi sahro birla sayr.

Sayr etarman ko'cha-ko'yda
Yor xayoli birla shod,
Qilmagay hech kim yonida
Shuncha tillo birla sayr.

Men-ku yor ishqiga g'arqmen,
Sayr istarman yana,
Tosh ham orzular ekan
Qilmoqni daryo birla sayr.

Bu zamon ko'nglingda, Erkin,
Qolmagay zarra g'ubor,
Aylasang bir bor do'sting
Rahmatullo birla sayr.

1968



Qizim, baxtli kunda dunyoga kelib,
Umrim osmonini bezagan mohim.
Quvonchim, erta-kech niyatlar qilib,
Dedim, to'ylaringni ko'ray, ilohim.

Tetapoya yurgan chog'laringda ham
Mehr to'la ko'zim tikib bo'yingga,
Dedim, yuragimda qolmas edi g'am
Qizalog'im, yetsam baxtli to'yingga.

Shukrkim, niyatim bo'ldi-yu yo'ldosh,
Iqbol shundoq kunni nasibim etdi.
To'yingga yetdim-u, voh, shashqator yosh
Ko'zimdan duvillab to'kilib ketdi.

Qiz o'stirgan ota toleyi shudir,
Mehri rishtasini bog'lab joningga –
Ardoqlab, erkalab ulg'aytgach oxir
Mehmon bo'lib qolar xonadoningga.

Ko'narman, ne iloj, umringga oq yo'l,
Ko'zlarim sevinchning yoshiga to'lsin.
Duoga qo'l ochdim, erkam, baxtli bo'l,
Yangi xonadoning muborak bo'lsin.

1990



QORXAT

Shoira qizlarga

Qor yog'ar – osmonda oqqushlar uchar,
Qor yog'ar – osmondan oq ukpar tushar.
Qor yog'ar yer-u falakni to'ldirib,
Bizlar ersak issiq uyda oltirib,
Tark etolmay xalqimizning odatin
Yozamiz do'stlarga do'stlik qorxatin.
Qorxat asli qorday oppoq dil xati,
Oq ko'ngilning mehri, tafti, hurmati.
Oshinolik, chin vafo izhori ul,
Gohi pinhon sevgining iqrori ul.

Qor yog'ar, qorxat ila, xullas kalom,
Shoira qizlarga yo'llaymiz salom.
Sizga, ey Gulchehra qizlar, E'tibor,
Aytamiz ko'ngilda orzu neki bor.
Oy Halima, ham Malika, Tursunoy,
Ey chiroy-u fayzga boy-u she'ri soy,
Sizga dildan eng samimiy ehtirom,
Yangi yilning tabrigi ham assalom!

Endi kelsak so'zning indallosiga,
Ya'ni qorxatning asl ma'nosiga:
Yangi yilda davra tuzmoq farz bo'lur,
Kim yutilsa, bir ziyofat qarz bo'lur.
Qorxat eltgan elchimizni tutsangiz,
Tan berurmiz, qarz bo'lurmiz, yutsangiz.

Yo'qsa o'zni katta ishga chog'langiz,
Shu bugundan pesh etakni bog'langiz.
Bermangiz Gulchehralarga zarra dam,
Biryo'la yuvgay mukofotlarni ham.
Yeng shimarsin Mo'tabar, Oydin bukun,
Qarz ular bulturgi dostonlar uchun.

Tutdi bir qo'lda gazet, bir qo'lda tor,
 «Lirika»ni yuvmadi lek E'tibor.
 Bibisora ham Sanobar qaydadir,
 Bitta she'ri bir ziyofatga tatir.

Xullas, endi barchangiz hamdam bo'ling,
 Xuddi «Qizlar davrasi»dek jam bo'ling.
 She'r yozar chog'idagidek yoningiz,
 Bunda dasturxoningiz – dostoningiz.
 O'zingiz aylang tovus yanglig' xirom,
 She'riyatday totli bo'lsin har taom.
 Ol yanog'ingiz kabi olma, anor,
 Ko'zlarizingizdek charos boqsin xumor.
 Eslatib ham pistalar xandoningiz,
 Yuzingizdek kulta shirmoy noningiz.
 Bo'lsa bodomlar qabog'ingiz kabi,
 Ham murabbolar dudog'ingiz kabi.
 Lag'mon eshib tola-tola sochingiz,
 Misli yoyib tashlaganday sochingiz.
 Sochdag'i bargakdayin ko'k bodiring,
 Ham xino yanglig' patinjon oldiring.
 Tarvuz-u qovunni ham serob qiling,
 Xuddi oshiqlarni tilganday tiling.
 Har uzum bo'lsin dur-u marjon kabi,
 Yo Mukarram she'r o'qib turgan labi.
 Shabnamikimoy Nilufar xoliday,
 Ta'mi Oydin she'rlarining boliday.
 Tursa soz sizning g'azal yanglig' sharob,
 Kirsa boz bizning yurak yanglig' kabob.
 Ol anorni dilni ezzanday ezing,
 Sharbatini mayni suzganday suzing,
 Barcha ne'mat bir tomon-u she'r soz,
 She'r birlan bizni aylang sarafroz.
 O'ltilib oppoq sahardan toki shom
 Bo'lmasisin hech bahs-u she'rxonlik tamom.



Bu kabi suhbatga chin do'stilar aro
«Qilsa arzir yuz Saida jon fido».

Men bo'lay bir necha hamrohim bilan.
O'lmas-u Abdulla, Ibrohim bilan.
Borgumiz yutsak agar albatta biz,
Yo'qsa siz izzatda-yu xizmatda biz.
Shoyusuf obkashda tongdan suv tashir,
Ham Barot o'qlog' tutib yoygay xamir.
Chuchvara tukkay Muhammad cho'kkalab,
O't pudar Husniddin o'zdan o'pkalab.
Ne ajab, kuysa patir, yonsa qozon,
Tandir oldida Rauf, oshpaz – Omon.
«Hay» deb uf tortib Jamol yelpir kabob,
Topmayin chovlini Oxunjon xunob.
Shu mahalda bir latifa, shubhasiz,
To'lqin-u Anvarga so'ylaydur Aziz.
Oqibat mehmonxona qoq yer bo'lur,
Katta dasturxonda yolg'iz she'r bo'lur.
Bir tomonda siz pari ruxsoralar,
Bir tomonda biz g'arib bechoralar.
Kim qoshin kuydirgan-u do'ppini kim,
Bosh egarmiz, yolvorarmiz sizga jim...

Xat yozildi, endi biz omad talab,
Elchining chaqqonligida hamma gap.
Yo'llasak Ma'ruf Jalilni – ancha bo'sh,
Yoki Sayyormi? U bo'lmas, laqqa go'sht...
Xo'sh, kim elchi? Ha, bilib ishning ko'zin,
Elchi qildik mulla «Mushtum»ning o'zin.
Ushlab olmoqning sira imkonи yo'q,
Chunki u ketguvchi yer poyoni yo'q...
Qor yog'ar – osmonda oqqushlar uchar,
Qor yog'ar – osmondan oq ukpar tushar.
Qor yog'ar, qorxat ila xullas kalom,
Barcha oy qizlarga yo'llaymiz salom.

1973

DO‘STLARGA MAKTUB

Bukun derazamni ochdim-u sahar
 Yuzimga urildi salqin shabboda.
 Xayolchan shivirlab qizrimtir barglar
 Kuzak hikoyasin so‘ylardi bog‘da.

Ajab, bir kechada o‘zgarmish olam,
 Bir kechada borliq olmish o‘zga tus.
 Inson umri kabi tezdir fasl ham,
 Kecha yoz edi-ku, bukun, qarang, kuz.

Men ham kechagina o‘siprin edim,
 G‘ururli talaba edim, qaddi tik.
 Bizni ham chorlardi kuzakda terim,
 Gurpaklashib yurib paxta terardik.

Oq oydin dalalar, shiypon, oromgoh...
 Ko‘z oldimdan o‘tar hamma hammasi.
 U damlar shukuhin eslatdi nogoh
 Derazamdan kirgan kuzning nafasi.

Qaydasiz, qaydasiz, mening do‘stlarim,
 Sizni jon-jonimdan sog‘indim bukun.
 Qaydasiz, Anbara, Shokir-u Karim,
 Qayda to‘rt dugona – yuzlari gulgung?

Kecha emasmidi ul zavqli kuzak,
 Qarang-a, shuncha vaqt o‘tib ketibdi.
 Biz xayrashgan yil tug‘ilgan go‘dak
 Bugun rosa o‘n besh yoshga yetibdi.

Bizlar dorilfunun oshyonidan
 Uchirma qushlardek uchdik har tomon.
 Har kim makon tutdi o‘z bo‘stonidan,
 Bugun davra o‘zga, o‘zgadir davron.



Har kim o'z baxti, o'z dardi bilan band,
Tur mush qozonida qaynab yotamiz.
Kuni kecha edik o'zimiz farzand,
Bugun farzandlarga ona, otamiz.

Mana kuzak keldi, yellari sarin,
Yoshlikdagi kabi tiniq, beg'ubor.
Qayda bo'lsangiz, ey qadrdonlarim,
Talabalik davrin eslangiz bir bor.

Yangi do'stlar bilan dalaga borib,
Hordiq kunlarida paxta tergan on.
Eslab qo'ying oqshom chang bo'lib, horib,
Qo'shiq aytib qaytgan chog'imiz xandon.

Oppoq dalalarga zavq bilan qarang
Sharifa termilib qaragan kabi.
Bu chanoq -- intila-intila arang
Shoir bo'lgan bitta do'stingiz qalbi.

Hanuz talabamiz, hanuz yoshmiz, bas,
Shavq-u xayolotning bandalarimiz.
Dalaga sochilgan paxtalar emas,
Bizning yoshlikdagi xandalarimiz.

Ey, mening do'stlarim, kirom-u matlub,
Yoshlikning o'ziday aziz, yagona.
Sizni yodga olib yo'lladim maktub
Kuzak shabbodasi bo'ldi bahona.

Tilagim, bizlarga baxtdek yo'liqqan
Ilk tuyg'u, sevinchlar doim yor bo'lsin.
Umringiz biz ilk bor paxtaga chiqqan
O'sha pok fasldek beg'ubor bo'lsin.

HOZIRGI YOSHLAR

Qari tolga suyab
Irg'ay asoni,
Oqsoqol so'riga asta yonboshlar.
Xayoldan o'tkazar kori dunyoni:
«Eh, hozirgi yoshlar,
Hozirgi yoshlar!»

U asr tengdoshi,
Butun umr endi
Kecha ko'rgan tushday ko'zi oldida,
Yigirma yoshida amirni yengdi,
Vodiya suv ochdi o'ttiz oltida.
Yoshligini eslar,
Uf tortar sekin.
Salgina chimrilar oq tushgan qoshlar.
«Biz ham yosh bo'lganmiz bir mahal,
Lekin
Boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar».

U kolxoz tikladi,
Yangi yurt qurdi.
Bosmachiga qarshi ot surdi o'ktam.
Jang-u jadallarning barini ko'rdi.
Ko'rdi ochlikni ham,
Yupunlikni ham.
«Bizga xayol edi,
Tush edi faqat
To'kin dasturxon-u lazzatli oshlar.
Baxti boqiy bo'ssin,
Ammo bu jannat
Qadrin bilarmikin hozirgi yoshlar!»

Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil,
Maskov bo'sag'asi,



Achchiq qahraton.
Agar qulatmasa daydi o'q sabil,
Berlindan qaytardi bo'lib qahramon.
Eslar, har yon olov,
O't ichra dunyo.
Majruh gavdalar-u uzilgan boshlar...
«Yurt tinch bo'lsin,
Bir gap bo'lsa mabodo,
Bardosh berarmikin
Hozirgi yosqlar!»

Uy-joy qilib berdi mana, Turg'unga,
Tur mushga chiqardi Nazirasini.
Bukun esa o'ylar dorilfununga
Kirolmasdan qolgan nabirasini.
Domlasiga o'zi borsinmi sekin
Ordenlarni taqib,
Oqilni boshlab...
«Kim biladi deysiz, bo'shtobroqmikin,
Erkatoyroqmikin hozirgi yosqlar...»

Yana der:
«Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam
«Chordarvesh» o'qirdik qurshab tanchani.
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,
Erta-yu kech o'ylar kino, tansani.
Aqli kirarmikin bularning bir kun,
Kim biladi, qachon quyula boshlar!
Og'ir kun ko'rmadi.
Balki shuning-chun
Yengilroq o'sdimi hozirgi yosqlar!»

Tohirni halitdan tinch qo'ymas qizlar,
Yarim tunda qaytar uyga hamisha,
«Uncha bo'lmasak ham ilmda bizlar,

Ammo kuchli edi odob, andisha.
 Birovning qiziga sal qarab qo'ysak,
 Bizlar atalardik sho'x-u bebosqlar.
 Ba'zi kinolarmi buzmoqda andak,
 Kapalak mijozroq hozirgi yoshlar...»

To'ng'ich o'g'li u kun qizaloq ko'rgan,
 Nomini Sharlotta qo'yibdi, ajab.
 O'rta chasi tog'da yurgani-yurgan,
 Ba'zan uch oyda bir kelmaydi yo'qlab.
 Nahot otasidan bo'ssa azizroq
 Qaysidir tog'dagi qandaydir toshlar...
 «Bizning bordi-keldi odatdan yiroq,
 Bemehrroq o'sdi hozirgi yoshlar...»

«Kiyimlar-chi...
 Qiziq bularning didi.
 Ola-chipor ko'ylak...
 Nimasi ko'rkar?
 Rost aytsam unchalik yoqmagan edi
 Otalarga bizning charm kamzul ham.
 Baynalminal aytib, bayroq ko'tarib
 Ko'chaga chiqqanda o'ktam safdoshlar,
 Keksalar degandi yo'ldan qaytarib:
 Nega shumlik qilar hozirgi yoshlar?»

Endi bularga ham har qalay og'ir,
 Zamon shitobi tez, parvozi tikka.
 Kecha tili chiqqan Nargiza o'qir
 Birinchi sinfda matematika.
 Bizlar haftiyakdan boshlagan edik,
 Bular iks bilan igrikdan boshlar.
 Durust, zehni o'tkir, qadami tetik,
 O'zimizga tortdi hozirgi yoshlar.



Ginasi noo'rin,
Qarilik qursin.
Bekor yurmagandir tog'larda O'ktam,
Mana, kerak bo'lsa Rustamni ko'rsin,
Bolasidan a'lo jiyan bo'lsa ham.
O'zi qotmagina, niholday xipcha
Nari borsa o'ttiz, o'ttiz bir yoshlar...
Fan doktori bo'ldi Maskovda kecha...
Balo chiqib qoldi hozirgi yoshlar.

Baxti butun bo'lsin,
Toleyi bekam.
Shularning borligi mening iqbolim».
Chol ko'z yoshin artar,
Shu payt mening ham
Kelajak yillarga uchdi xayolim.
Zamonlar keladir
Yana ajoyib.
Balki paydo bo'lar sun'iy quyoshlar.
U paytlar, kim bilsin,
Qarib-qartayib,
Munkillab qolarmiz hozirgi yoshlar.

Shunda kelajakning bog'lari aro
Biz, ya'ni keksalar suhabat qurgan chog'
So'zlarmiz:
«Qarshi deb atalgan sahro
Bizning qo'llimizda bo'lgan edi bog'.
Esingdami Gazli,
Zilzilalar-chi?
Qayta shahar qurgan qardosh-qurdoshlar...
Biz yangi eradan bo'lgandik jarchi,
Nima ham ko'ribdi hozirgi yoshlar!

Qara,
Oq ko'ylakka gulstuk taqib,
Agregat yonida turishar bular.
Biz ishladik qo'lni moylarga tiqib,
Endi rohatini ko'rishar bular.
Fanda inqilobni biz qildik ilk bor,
Ilk bor parvoz qilgan bizning yo'doshlar.
Ko'kni obod qildik,
Yerni ham gulzor.
Eh, hozirgi yoshlari, hozirgi yoshlari!»

1973

QALB SHUNDAY UMMONKI

Qalb shunday ummonki, uning bag'rida,
Dahshatli dolg'alar silsilasi bor.
Qalb shunday zaminki, otash qa'rida,
Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.

U bir sayyoradir, yerdek shafaqgun,
U bir olamdirki, bilmas nihoya.
Uni mehvaridan chiqarmoq uchun,
Atom jangi emas, bir so'z kifoya.



DO'STI NODONDAN KO'RA

Bo'lmasa hushyor yor-u
Oqil-u sodiq jo'ra,
Yaxshidir idrokli dushman
Do'sti nodondan ko'ra.

Do'sti nodon do'stligidan
Ko'p jafo chekding, ko'ngil,
Yolborib do'stingdan endi
Bitta dushmanlik so'ra.

Do'st topishga xom etibdir
Bizni taqdiri azal,
G'o'r bo'lib dunyoga keldik,
Go'rga kirgaymiz g'o'ra.

Asli o'zdin o'zga yo'qdir,
Do'sti nodon, o'zga biz
Til bilan qo'ydik tuzoq,
Qazdik qalam birlan o'ra.

Gar meni do'st anglasang,
Achchiq tilimdan ranjima,
Menga dushman o'z tilim,
Lekin senga do'stdir, jo'ra.

Qil o'zingga do'stlik, Erkin,
Ruhingga ista najot,
Toza ko'ngilni muhabbat
Shu'iasi birlan o'ra.

1994

OTDOSHLARIMGA

Ismlarning tarixi uzoq,
Ismlarda asrlik qismat.
Ular bari orzudek porloq,
Pokizadir bamisli niyat.

Farzand asli umr davomi,
Tiriklikka egizak armon.
Armon bilan bolalar nomi
Nurxon bo'ldi, bo'ldi Shodmon.

O'g'lon ko'rib qildilar tilak,
Omon bo'ssin ofatdan bu bosh,
Balolarni yog'dirsa falak,
Ismi kabi bo'ssin Temir, Tosh.

Chaqaloqni yo'rgakka tugib,
«Yana holva», deganda doya,
Ota, endi o'g'il kerak, deb
Qiziga nom qo'ydi: Kifoya.

O'g'il bo'lsa – yurt ko'ksi baland,
O'g'il tutar ketmon-u o'q-yoy...
O'g'il bola orzusi bilan
Qizlar nomi bo'ldi O'g'iloy.

Ona farzand ko'rib to'rtovlon,
Qaro yerga bersa to'rtasin,
Tug'ilganda beshinchi o'g'lon
Umid bilan degan «To'xtasin».

Bo'lib taqdir qahridan malul,
Chekib falak jabridan ozor,
Farzandlarga nom qo'ydilar, qul –
Abduqahhor va Abdujabbor.



Zora tole belgisi bo'lsa,
Zora bo'lsa omad rivoji,
Bola qizil dog'lik tug'ilса,
Atadilar baxt uchun Toji.

Necha yuz ming avloddan qolgan
Armonli bu dunyoda yashar –
Farzandlarga haq Tilab olgan
Umrboqiy, Umruzoq bashar.

Bu kun yangi olam barobar
Nomlarda ham yangicha ma'no.
To'rt yigitning birisi Anvar,
Beshta qizning birisi Ra'no.

Boqib Erkin nomli o'g'longa
Ko'kka yetar sevinchdan boshim.
Qadam qo'ysam qay xonadonga
Ro'paramdan chiqar otdoshim.

Otdoshlarim,
Toleyimizga
Shunday ism baxt-u ko'rkimiz,
Egiz bo'ldi, esh bo'ldi bizga,
Ham e'tiqod bo'ldi erkimiz.

Nom qo'ydilar bizga otalar
Erkin ko'rmoq bo'lib dunyoni.
Mangu Erkin bo'lsin dedilar
Farzandlarning yuragi, joni.

Erkin bo'lsin hayot va mehnat,
Erkin bo'lsin muhabbat, ijod.
Yayrab o'ssin farzandim,
Faqat –

El g‘amidan bo‘lmasin ozod.
Qalbi kurash shavqiga to‘lsin,
Oshno bo‘lsin unga tug‘yonlar.
Erk yo‘lida fidoyi bo‘lsin
Erkin nomin olgan o‘g‘lonlar...

1977

QALAM HAQI VA OYLIK

– Shoir, nega ko‘nmasdan
She’rdan kelgan boylikka,
Erta-yu kech tinmasdan
Ishlayapsan oylikka?

– Chunki oylik hamxona
Yordek sodiq oshnodir.
Qalam haqi – jonona
Qizlardek bevafodir.

1977



KAMTARLIK HAQIDA

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

1956

BU KO'HNA HASRAT

«Yorab, qandoq kunga qoldik, bu nechuk savdo?
Odamlarda na shafqat bor, na mehr-u vafo.
Yigitlarda odob yo'qdir, qizlar hayosiz,
Xotin zoti kun o'tkazmas bir mojarosiz.
Qo'yib bersa el bir-birin o'yar ko'zini,
Ovboshilar esa faqat o'ylar o'zini...
Dunyo oxir, birodarlar, yo'q endi hayot.
Kuni kecha tamom bo'ldi oxirgi mamont...»
Qadim ajdod o'kinch bilan cho'kib soyaga,
Bu so'zlarni cho'kich bilan yozdi qoyaga.

1981

BEVAFO DO'STLARGA

Koshki, bo'lsaydim vafosiz
Oshinolardan bo'lak,
Oshinolar yo'q, netay, bu
Bevafolardan bo'lak.

Bitmadi peshonamizga
Do'sti sodiqkim, bu xil
Bizga beparvo, o'ziga
Mahliyolardan bo'lak.

Izladim, har necha, lekin,
Topmadim bir yangi do'st,
Eski ul insofsiz, ammo,
Beriyolardan bo'lak.

Do'st xato qilsin,
Qatoridan xato, lek, qilmasin,
Qilmadim bir ish agarchi,
Men xatolardan bo'lak.

Suhbatorolar, navolar
Qayda suhbatlar aro,
Gaplar ichra endi gap yo'q
Narx-navolardan bo'lak.

To bu dam devona ko'nglum
Ul vafosizlarni der,
Ne qilayki, oshno yo'q
Bevafolardan bo'lak.

1994



SHAHR ARO...

Shahr aro ko'zlardan o'zga
Dilkusho maskan topay,
Unda o'zni sen bilan
Bir jon ko'ray, bir tan topay.

Necha kundirkim, yo'qolmish
Dilda oromim, uni –
Bu kecha izlab sening
Jodu qarog'ingdan topay.

Tun qorong'usida men
Soching shabistonin ko'ray,
Tongotarda yuzlaringni
Tong kabi ravshan topay.

Men ko'ngil ko'yiga kirsam,
Bilmayin bossam tikan,
Tush bilib, ta'bir etingkim,
O'ngda bir gulshan topay.

Ayri til birlan riyo
Bersa menga yuz yaxshi do'st,
Do'st kerakmas, to'g'ri so'zlab
Bir halol dushman topay.

Neki maqsud bor ko'ngilda,
Pok ko'ngil birlan yetib,
Neki baxt topsam jahonda,
Bir o'zing birlan topay:

Bir umr Erkin muhabbat
Otashida yonmasam,
O'tga chulg'ansin vujudim,
Qatlima gulxan topay.

FURSATING

Fursating yetmaydi doim,
Hech qachon yetgan emas.
Mehnating bitmaydi doim,
Hech qachon bitgan emas.

Chun zamondek bepoyondir
Ko'ksing ichra orzu,
Fursat-u orzuni quvlab
Hech kishi yetgan emas.

Intilar borliqni inson
Barkamol etmoq uchun,
Ne ajab, insonni borliq
Barkamol etgan emas.

Menda na borliq xayoli,
Menda na yo'qliqqa g'am,
Manglayimga chunki she'r dan
O'zga zar bitgan emas.

Vaqt kelar, mehnat bitar,
Bo'lg'usi vaqt ham bemalol,
Chunki u dunyoga hech kim
Ish olib ketgan emas.

1976



TANGRI VA YAMOQCHI

Yamoqchi Tangriga derkan tinmayin:

– Ey Xudo!

Menga ham bir qayrilib boq!

Chorig'ing so'kilsa, tikib berayin,

Kavushing teshilsa,

Solayin yamoq.

Tangri debdi bir kun:

– Ol boqiy umr,

Farishta bo'lursan!

– Ey, qo'y, kerakmas!

Umr berma menga, ber ozroq ko'mir,

Ustiga bir chetan

Yantoq bo'lsa, bas.

Tangri debdi:

– Tun-kun sajdalar qilib

Shungamidi chekkan nola-yu ohing?

Nima qilar eding menga sig'inib,

Asli

Aravakash ekan

Ilohing.

1976



KIMDA IQTIDOR YO'QDIR...

Kimda iqtidor yo'qdir,
Ilm ila hunar zoye,
Iqtidor berurman deb
Chekma ranj, ketar zoye.

Kimda asli tole yo'q,
Naqdi ham ketar so'ldan,
Berganing bilan bo'lmas
Oltin-u guhar zoye.

Kimki behamiyatdir,
Chetdadir nazardin ham,
Chunki behamiyatga
Solganing nazar zoye.

Kimki muz yurak bo'lsa
O'ylama eritmakni,
Ming quyosh yoqib qo'ysang
Qilmagay asar, zoye.

Gar quyon yurakli er
Jazm etar bahodirlik,
Unga arg'umoq esiz,
Tilla naqsh kamar zoye.

Bu «nasihat»in Erkin
Yozdi bir sabab birlan.
Ko'nglida sezar, ammo
She'ri besamar, zoye.



KO'ZGU

Yormi ko'zguga boqqan
Yorga yo boqar ko'zgu,
Yor yuzini ko'rganda
Suv bo'lib oqar ko'zgu.

Oy jamolining aksi
Ko'zgu bag'riga tushdi,
Rashk o'tida bag'rimni
O'rtar-u yoqar ko'zgu.

To tirik ekan jonim,
Ko'zgudek do'st izlarman,
Oq ko'ngilligi birlan
Ko'nglima yoqar ko'zgu.

Qancha osma ko'zguni,
Qancha qoqma mix birlan,
Haq yuzing etib oshkor,
Mix qilib qoqar ko'zgu.

Ko'zgudek tiniq she'r yoz,
Ko'zgudek chin ayt, Erkin,
Shunda nazm marjoning
Dur qilib taqar ko'zgu.

PARISHONLIK

Doimo dedim, bo'lma
Oshino, parishonlik,
Bo'ldi oshino dilga
Doimo parishonlik.

Dilrabo xayolida,
Ne ajab, parishonmen,
Oshikor etar doim
Dilrabo parishonlik.

Men o'zimcha dilbarning
Yodi birla mag'rurmen,
Deydilar, qilur paydo
Kibr-havo parishonlik.

Kulsa el parishonlik
Odatimga, tong yo'qdir,
Ahli dilga albatta
Noravo parishonlik.

Bevafo nigor yodin
Tez unutmoq istarmen,
Lek menda yo'q bu xil
Bebaho parishonlik.

Hajr dardiga qilmas
Vaslidan shifo, endi
Bir davo xayoli-yu,
Bir davo parishonlik.

Yodi birla xud bo'lsam,
Jabri birla bexudmen,
Qildi sernavo yodi,
Benavo – parishonlik.



Zulfim-u parishonlik
Odat etdi, yo ko'nglim
Ayladi parishonhol
Bu qaro parishonlik.

Keldi qay kuni bu dard,
Xotirimga keltirmam,
Band etibdi Erkinni
Mutlaqo parishonlik.

1967

TUSH

Bir oy bo'ldi,
Takror-takror
Men bir xil tush ko'raman,
Tushlarimda mudrab yurgan
El ichida yuraman.

Ular bilan
Men ham mudrab,
Asta qadam sudrayman.
«Bu – tush» – deyman,
«Uyg'on!» – deyman,
Uyg'onolmay mudrayman.

Har tun shu hol,
Falak bergan
Bu ne balo, qiynoqdir?!
Ey, Xudoyim,
Ey, Xudoyim,
Kecha buncha uzoqdir!

EY KABUTAR

Ey kabutar, she'rim olib
Yor dilxohimga yet,
Yor mening ohimga yetmas,
Endi sen ohimga yet.

Oshiq ahli ichra tengsiz
Bir gadodanman deb ayt,
Husn mulki ichra hech bir
Tengi yo'q shohimga yet.

Gohi hudman, gohi behud,
Shavq-u dardim sharh qil,
Gohi ohimdan xabarsiz,
Gohi ogohimga yet.

Ko'rmasam bir dam jamolin
Mohi yo'q tundur u kun,
Baxtim osmonida kun-tun
Xurshid-u mohimga yet.

Ey kabutar, do'stlarimni
Sog'inib qoldim bukun,
Sen bu sog'inch she'rim olib
Do'stim Ibrohimga yet.



HIJRON YUKI

*Aylagin jondin judo
Etguncha jonondin judo.*

Alisher NAVOIY

Roziman tushguncha dilga
Nogahon hijron yuki,
Nogahon, mayli, tanimdan
Ayrub o'sin jon yuki.
Men bo'lay jondin judo
Bo'lguncha jonondin judo,
Ne kerak jon, ezsa jonim
Bir umr armon yuki.
Lahzayi hijron yukiga
Bistun ukparchadur,
Bir qadoqlik toshcha kelmas
Yer bilan osmon yuki.
Oftob hijronida tong
Sabzalarga qo'ndi nam,
O'ylakim, kipriklarimni
Egdi tong giryon yuki.
Hajrda o'tgan nafasni
Yil bilan o'lchar ko'ngil,
Ayrilikda she'r bitibman,
Unda bir devon yuki...

1967

O'ZIMGA SAVOL

(*Mustazod*)

Umrin o'tadir, sen na xayollar suradirsan,
Beg'am yuradirsan?
Maqsad ne, farog'at ko'yiga yo'l buradirsan,
Kimga jo'radirsan?
Ochilgali ko'z shartmi ekan toshga bosh urmak,
So'ng ko'zni yashurmak,
Ne o'y bila nodon toshiga bosh uradirsan,
Ne naf ko'radirsan?
Yillar ko'pi ketdi, ozi qoldi, ne qilolding,
Kim bo'la olding?
Qum ustiga sen bo'yla imorat quradirsan,
Ham aysh suradirsan.
Haddingni bilib chek qo'y o'yin, bazm, o'tirishga,
Ko'z och, o'tir ishga.
Ko'rsatmagay ul kunniki, sen oh uradirsan,
Hayron turadirsan.
Yig'lab keladir ushbu jahonga aziz inson,
Kulgay u ketar on.
Shoyadki, hayot qarzin uzib ulguradirsan,
Qah-qah uradirsan.

1983



HIJRON QUSHLARI

Tarki yurt etgan xazon
Faslidagi qushlarmikin?
Yo qirov tushgan boshim
Tashlab uchar hushlarmikin?
Qush kabi parvoz tilar ko'nglim,
Ki anda bir umid
Yor sayyodim sochini
Dom etib ushlarmikin?
Mulki hind og'ushhidir
Qushlar xayolida bu dam
Yo xayolimda qaro ko'z
Ochgan og'ushlarmikin?
To'ldirib osmonni hijron
Qushlari uchmoqdalar.
Voh, ular qushlarmikin,
Yo men ko'rар tushlarmikin?
Bosh olib mulki fanodin
Ketguchi jonlarmi yo
Tarki yurt etgan xazon
Faslidagi qushlarmikin?

1990

DO'STGA DEGANIM

Inson tilini
Til bilar inson tushunibdir.
Dil dilni va lek,
O'ylama, oson tushunibdir.
Rost so'zni dedim:
Jonne qo'yib o'rtaga, ammo
Jon do'st deganim
Vah, uni yolg'on tushunibdir.
Achchiq esa ham
Chinni demak sharti sadoqat,
Do'st anglamasa,
Yot buni qay on tushunibdir.
Mard mardni tanir,
Dardni bilar ko'ksida dard bor,
Jon sadqasini
Joni fido jon tushunibdir.
Isyonli dilim
Anglamagay g'ofil odamlar,
Ko'nglimni faqat
Sohibi isyon tushunibdir.
Erkin, g'azaling
Oqil-u nodon uqib oldi,
Oqil o'zicha,
O'zgacha nodon tushunibdir.

1991



KURASH O'YINI

Goh yengadi,
Goh yengiladi ulki, kurashgay,
Har kimga kurash
O'yini ma'qulki, kurashgay.
Kuch sharti bilan
Sher ila sher jang qilar, ammo
Hiyla yo'lida
Tulki bilan tulki kurashgay.
Goh o'rtar-u goh
G'arq etadir suv bila o'tdek,
Jonim talashib,
Aql-u ko'ngil mulki kurashgay.
O'z holim uchun
Bir kulaman, bir to'kaman yosh,
Shoir dilida
Nola bila kulgi kurashgay.
Bas, Erkin, xayol,
Qulni xayol o'dirar ermish,
O'lmaslik uchun
O'y bila bor qulki kurashgay.

1991

KERAK BO'LSA

Men bor, senga bir haqgo'y –
 Devona kerak bo'lsa,
 Yo'qman, tili qand nodo'st
 Parvona kerak bo'lsa.
 Istarmi safo ko'ngling,
 Bor unda saroylarga,
 Kel bunda, esang dardlik,
 G'amxona kerak bo'lsa,
 Hamdam o'zim, ey oshno,
 Malham so'zim, ey oshno,
 Ikki ko'zim, ey oshno,
 Hayrona kerak bo'lsa.
 Bergum na kerak senga,
 Jon senga, yurak senga,
 Zardobga to'lib ketgan
 Paymona kerak bo'lsa.
 Bog'imni makon etgan
 Ey siz gala boyqushlar,
 Ko'ksimga qo'ning, Sizga
 Vayrona kerak bo'lsa.
 Vayron chamanim vodiy,
 Ko'ksimda uning dodi,
 Faryodga qulog'ing och,
 Farg'ona kerak bo'lsa.
 Naylay, bu og'ir so'zlar,
 Quvmang meni, ey do'stlar,
 Oqillar aro bitta
 Devona kerak bo'lsa.

1991



DUR BO'LIB TOMGAYMI SO'Z...

Dur bo'lib tomgaymi so'z
Kiprikka yosh inmay turib,
Marvarid bermas sadaf,
Sinmay turib, sinmay turib?!

El aro topgaymi qadrin
So'z ko'ngil ummonida
Marvarid tutgan sadafdek
Oncha berkinmay turib?!

Bu zamon daryosi tezdir,
Ahli she'r istar zulol,
So'z netib ruhbaxsh bo'lur,
Dilkosada tinmay turib.

Qalb bu ohanglar o'chog'i,
Unda so'z so'zonadir,
Qayda keskir bo'ldi shamshir,
O'tga solinmay turib.

Ahli so'z, g'aflat elin siz
Uyg'oting bongso'z ila,
Kemangizga so'nggi yo'lning
Bongi chalinmay turib.

1991

DENGIZ TASHLAB KETGAN KEMALAR

Kuni kecha edi,
 To'lqinlarin
 Qirg'oqqa urib,
 Mast tuyadek hayqirib,
 Kuyiklar sochib
 Ko'kka sapchir edi
 Bu yerda Orol.
 O'zim ko'rgan edim,
 Kezib yurgan edim,
 Asov bu qudratdan
 Hayron turgan edim.
 Mana endi
 Qudrat o'rnila
 Hokim sukunatga,
 Oq qum bo'lib ko'ringan
 Oppoq uqubatga
 Termulaman lol.
 Nima qilib qo'ydik,
 Seni, ona dengiz,
 Nimalar bo'immoqda, o'zi,
 Nimalar?
 Sevgi tashlab ketgan yurakdek,
 Bolalikda bizlar ishongan,
 Keyin yolg'on chiqqan ertakdek
 Ona kaftidan ayru,
 Bola taftidan ayru
 O'ksik va g'arib belanchakdek
 Qum ustida yonboshlab yotar
 Dengiz tashlab ketgan kemalar.
 Bir uyga o't ketsa
 Aybdor izlanar,



Bir ko'zgu darz ketsa
Aybdor izlanar.
Bir jonga zarb yetsa
Aybdor izlanar.
Kuysa bundoq xonu monimiz,
Chil-chil bo'lsa qutlug' jomimiz
Bu gunohning so'rog'i bormi?
Bormi jallod hukmiga qonun?
So'rib bo'lsak daryolar qonin,
Sabil etsak zaminning jonin,
Oq baloning oppoq bo'roni
Qaro qilsa yurtning osmonin,
Kulfatlarning adog'i bormi?
Gunohimiz so'rog'i bormi?
Biz olmasak tabiat yonin,
Bizda bundoq bo'lmasa qonun,
U yaratgan beshafqat qonun
Mahkum qilg'ay bizni oqibat.
Asramasak Orolning jonin,
Chil-chil qilsak havo qalqonin,
Oq qum emas, qorlar bo'ronin
Hadja etsa bizningadolat –
Sir-ku yana to'lib oqadir,
Amu – Amu bo'lib oqadir
Orol yana dovul qoqadir,
Ammo inson! Ne qilar inson?
Paxta unmas bu tuproqda tek,
O'z-o'ziga saqlab o'kinch, kek,
Dengiz tashlab ketgan kemadek
Jim-jit cho'lda qoladir hayron.

1989

SHE'RIYAT

Sen ey umrim nahoridan
Aziz-u oshino menga,
Sahar cho'lponidek jozib
Sochibdirsan ziyo menga.

Hayot ichra hayot bo'lding,
Qanot bo'lding, najot bo'lding,
Keturding ham safo menga,
Yeturding ham jafo menga.

Sehrli may uzatding sen,
Dilim tinchin yo'qotding sen,
Meni o'tlarga otding sen,
Bu ne g'aybdin jazo menga.

Yoniq jonim aro jonlar
Qilur faryod-u afg'onlar,
Mudom ko'ksimda isyonlar
Bo'libdir yuz balo menga.

Dilim charchab xatolardan,
El ichra mojarolardan,
Qochar bo'lsam, nizolardan
Yana sen oshino menga.

Himoyatsiz zamon ichra
Xaloskor bo'l bu jon ichra,
Vafo qilmas jahon ichra
O'zing qilg'il vafo menga.

O'tar g'avg'oli bu onlar,
Kelar osuda davronlar,
Zakiy erkin g'azalxonlar
Berar bir kun baho menga.



VERGUL HAQIDA

Vergul o'zi qaydan kelgan?
Qing'ir-qiyshiq joydan kelgan.
Yangi chiqqan oydan kelgan,
Shovva bo'lgan soydan kelgan.
Mergan tortgan yoyga qarang,
Vergul o'sha yoydan kelgan.
Yoki bukur toyga qarang,
Yershov yozgan toydan kelgan.
Sizga ayondir hoynahoy
Hov kamalak tug'ilgan joy.
Vergul o'sha joydan kelgan.
Voy oyog'im, belginam-voy,
Deydi xassa tutgan boboy,
Vergul u boboydan kelgan.
Vergul ayni pilla qurti,
Ayting, qayda pilla yurti?
Vergul uzoq Xitoydan kelgan.
Yo'q, bir zamon afandining
Bir poy kavishi yo'qolgan,
Vergul o'sha bir poydan kelgan.

1991

SO'Z O'YINLARI

Ikkichivoy ikki oldi, jilmaydi.
Ikkinchi yil ikkinchidan jilmaydi.
Oq olma yoz tugamasdan tugadi,
Endi sho'rlik duvarak gul tugadi.
Hamma a'zodan burun
Eshikdan kirar burun.
Ayo do'stlar, shuning-chun
Burunning oti burun.
Bizda pashsha g'uj-g'uj, talay-talaydur,
Talay bo'lgach, ne qilardi, talaydur.
Cho'k deganda cho'kadigan tuyadir,
Chunki tuya tuyaligin tuyadir.
Sen gapimga qulinq solib qo'y, uka,
Tuya bo'lma, qo'ylikni ham qo'y, uka.
Qoradaryo qora bo'lib oqardi,
Norin bilan qo'shilgach, sal oqardi.
Sirdaryoning mana shunda siri bor,
Tiniqning loyqaga ta'siri bor.



Muxammaslar

*Kezib qishloq, shaharlarda,
Qizil gul bargida bulbul
Kabi sayrab saharlarda,
Yana shoir qilur takror,
Vatandin yaxshi yor bo'lmas.*



EL NETIB TOPG'AY MENI...

(*Navoiy g'azaliga muxammas*)

Ko'nglim aytur, sevgi domiga asir tayyoraman,
 Der ko'zim, hijron tuni zor yig'lamoqdin qoraman
 Jon degay, o't oraman, tan aytadir, ming poraman,
 To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman,
 Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoraman.
 Ul xazon faslidagi sargashta bir yaproq manam,
 Ayrilibdurman chamandan, maskanim dashti adam,
 Izlamang hargiz nishonim, topmagaysiz zarra ham,
 El netib topg'ay menikim, men o'zimni topmasam,
 Bo'yjakim ishq-u junun sahrosida ovoraman.
 Karbalo dashtida ko'rgan ohular birlan mani,
 Angladi Majnun bilan bir jon mani, bir tan mani.
 Yondi jon, bir laylivashning dardi kuydirgan mani,
 Oh dudi ichra bir uchqun kabi ko'rgan mani
 Bildikim, hijron tuniga kavkabi sayyoraman.
 Qoshlaring hijronida yoydek egilsam ne ajab,
 G'uncha la'ling ishqida bag'rimni tilsam ne ajab,
 Sham'i husning shavqida o'tga yoqilsam ne ajab,
 Kecha o'rtansam, sahar faryod qilsam ne ajab.
 Ishq aro parvona-yu bulbulga men hamkoraman.
 Xo'blar vasli g'animat, xizmatini ayla xo'b,
 Nuri diydang sham' etib tut, qomatingni ayla cho'b,
 Borida qadriga yet, ketganda tuprog'ini o'p,
 Ey Navoiy, bordi deb ahbob ta'zir etma ko'p,
 It kabi men ergashib ul korivonga boraman.

1995



FUZULIY G'AZALIGA MUXAMMAS

O'lmasam zor anga tarki oh-u zor etmasmidim,
Ishq koridan kechib bir o'zga kor etmasmidim,
Gar junun yor o'lmasa holimdan or etmasmidim,
Aql yor o'saydi tarki ishqil yor etmasmidim.
Ixtiyor o'saydi rohat ixtiyor etmasmidim.
Javr oyinini bir dam ko'rmoqqa o'saydi sabr
G'ayrini shod, do'stin purgam ko'rmoqqa o'saydi sabr,
Chashmi dilda bir dame nam ko'rmoqqa o'saydi sabr,
Yor ila ag'yorni hamdam ko'rmoqqa o'saydi sabr
Garki gurbat aylayub azmi diyor etmasmidim.
Ul ruhi bayzoligin savdoligimdan qil qiyos,
Ul dili xoroligin shaydoligimdan qil qiyos,
Zuhd eli taqvin mug'a oshnoligimdan qil qiyos,
Voizin kufrin banim raspoligimdan qil qiyos,
Anda sidq o'saydi ban taqvo shior etmasmidim.
Yo'q ajabkim dardlardin o'zga dardim bordur,
Bir davosi o'lmoq oning bir davosi yordur,
Dema jarroh nashtari bu, yor urgan xordur,
Dardimi olamda pinhon tutdig'im nochordir,
O'g'rasaydim bir gabiba oshkor etmasmidim.
Ezdi hijron-u malomat, javr-u kohish ko'nglimi,
Ovlamas dunyo ishiga zarra xohish ko'nglimi,
Ne qilay, Erkin, ikki o't ichra qolmish ko'nglimi,
Ey Fuzuliy, dog'i hijron ila yonmish ko'nglimi –
Lolalar ochsaydi sayri lolazor etmasmidim.



NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Ko'z ochar gulshanda g'uncha bulbul afgon aylagach,
Nega afg'on aylay ul gul yuzni tobon aylagach.
Misli oykim, ko'rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.
Nega ul kun sochlaringni anbar afshon aylading?
Ro'zigorim tiyra, ko'zim kavkabiston aylading?
Qo'lga qo'ygachmu xinolar yo dilim qon aylading,
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach
Mehr so'ndirgach dilida jonne so'zon ayladi,
Husnini obod etib, ko'nglimni vayron ayladi.
Sehr aylab oshikoro, bandi pinhon ayladi,
Oshikor aylab yuzin ko'zimni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko'ngil, ko'zimni hayron aylagach.
Men-ku sodiq mahram erdim ogzi mahkam, ko'ngli pok,
Ishq sirni etmasdim oshkor bo'lgunimcha toki xok,
Shafqat istab nola qildim, ont ichib yoqamni chok,
Jonda qo'yg'och naqdi ishqin qildi ko'nglimni halok,
Oldurur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.
Nola-yu afg'oning, Erkin, dilbaringga yetmadi.
Yetsa ham yo bemehr yor zarra parvo etmadi,
Bitdi ko'p zahming na lekin ishq zahmi bitmadi,
Ey Navoiy, ishq agar ko'nglingni majruh etmadi,
Bas, nedinkim qon kelur og'zingdin afg'on aylag'ach.



BOBUR G'AZALIGA MUXAMMAS

Yetolmay qomatim yodur
necha oykim, hilolingga,
Qaro ko'z mardumi yig'lab
tikilmoq birla holingga,
Qachon ul totli kun kelgay,
yetarman lahza bolingga,
Qachon bo'lg'ay, musharraf
bo'lg'amen, jono, jamolingga,
Qutulg'aymen firoqingdan,
yetishgaymen visolingga?
Qaro bo'l mish, ne tongkim,
ro'zigorim qora ul ko'z din,
Qaro o'q otdi kipriklar,
ko'ngilda yora ul ko'z din,
O'zim sobitman ishqda,
ko'z yoshim sayyorá ul ko'z din,
Ko'z ochqil boqqanikim,
bo'l misham bechora ul ko'z din,
Lab ochqil so'rg'alikim, tashna
bo'l mishman zilolingga.
Salomim yetkur, ey xurshid,
nigorim ko'yidan o'tsang,
G'uborin ko'zga sur ostonasiga
bosh urib yetsang,
Bo'l ogohkim, yuzin ko'rgach
ajab yo'qdir kuyib ketsang,
Ul oyning yuzi birlan to'sh urib
da'voysi husn etsang,
Yaqin bo'ldi bukunkim, ey quyosh,
yetting zavolingga.
Netar mendan borib, bulbul,
anga sharhi ko'ngil etsang,

O'zing ko'nglim bo'lib borsang,
anining ko'nglini gul etsang,
Kerakmas, g'amlarim so'ylab
agar ko'nglin malul etsang,
Kabutar, eltasan xatim,
ne bo'lg'ay gar qabul etsang,
Ko'ngulni bog'lasam ul noma
yanglig' paru bolingga.
Asiri bandi zulfingman,
demam Erkinni ozod et,
Kuyibman dog'i jabringdan,
demasman tarki bedod et,
Meni band et, menga jabr et,
hayotim mayli barbod et,
Belingdin kim xayolidur,
yiroqdurman, meni yod et,
Umidim borki Boburdin,
yetishgaymen xayolingga.

1968



VATANDIN YAXSHI YOR BO'LMAS

(Qozoq shoiri Jumakent Najmiddinov
g'azaliga muxammas)

Jahonda men tug'ilgan
Olkadek hech bir diyor bo'lmas,
Bu yanglig' bog'-u gulshan
Ham bu yanglig' guluzor bo'lmas,
Vatan sevmakdin ortiq
Menga olamda shior bo'lmas.
Vatan ishqida yongan qalb,
Bilingki, asti xor bo'lmas,
Vatan sevgan murodiga
Yetur, hech dilda zor bo'lmas.
Saodatga makondir
Qay chamanga sen qadam qo'ysang,
O'zingni baxtli bil yurtda
Yashashning zavqini tuysang,
Chin odamsan, chin o'glonsan
Yurakdan elni chin suysang,
Vatan sevmoq saodatdir,
Agar naslingga sen kuysang,
Vatanni sevmagan inson
Jahonda baxtiyor bo'lmas.
To'yib boqqil bu yurt husnigakim,
Ko'nglingni chog' etgin,
Bu elning o'g'liman, deb
Qil g'urur, ko'ksingni tog' etgin.
Vatan har zarra tuprog'in
Ko'zingga sen qarog' etgin,
Bobolar maskan etgan
Bu aziz tuproqni bog' etgin,
Yarashgay iftixor etsangki,
Ortiq iftixor bo'lmas.

Zuloli ta'mini topmam
Sira bol-u shakarlarda.
Vatan yodi erur qalbimda
Bo'lsam men safarlarda,
Jamoliga to'yolmasman
Kezib qishloq, shaharlarda,
Qizil gul bargida bulbul
Kabi sayrab saharlarda,
Yana shoir qilur takror,
Vatandin yaxshi yor bo'lmas.

1968



Dostonlar

*Shoir bo'lsang,
Qalb chirog'ing
Yonib tursa to abad.
Bu dunyodan ketar chog'ing
Yig'lab qolsa she'riyat.
O'z bag'riga olsa quchib
Seni ona makoning...
Gar shu baxtlar bo'lsa nasib
Yo'q dunyoda armoning.*



NIDO

Bag'ishlov

Hayqiraman,
 Tog'lar bag'ridan
 Gumburlagan sado keladi,
 Ona-Yerning otash qa'ridan
 «O'g'lim!» degan nido keladi.
 «O'g'lim!»
 Vujudimni chulg'ar alanga,
 Bo'g'zimga tiqilar hayajon.
 – Mana, men o'g'lingiz,
 Dardli olamga
 Sizdan tanho yodgor,
 So'ylang otajon!
 So'ylang, bir daqiqa quloq solayin,
 Ovozingiz tinglab to'ylomaganman.
 Bir marta yo'qotib topolmaganman,
 Xayolimda tiklab olayin.

Otajon!

Men axir qutlug' bu so'zni
 Yigirma yil olmadim tilga,
 Yigirma yil saqladim dilda.
 Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,
 So'ylang, eshitaman.
 Vujudim tilka,
 Yuragimni yoqar o'tli iztirob,
 Ammo yuragimda bir tomchi yosh yo'q.
 Bag'rim o'yib,
 Bu kun menga bermoqda azob
 Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q.
 Silqib oqayotir
 Ko'kragimda qon.



Qalbim o'rtamoqda so'ngsiz armonim...
Yurak qonim bilan bitgan dostonim
Sizga bag'ishladim,
Otajon!

* * *

Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko'z o'ngimda charx urayotir.
Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg'usiga bo'lмаган oshno,
Qah-qah urayotir,
Barq urayotir.
Bilmas, boshi uzra bulutli samo
Chaqmoq chaqayotir,
Guldurayotir.
Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo
Qasos so'rayotir,
Bong urayotir...

Qadamlar,
Qadamlar,
Og'ir qadamlar...
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?
Nahotki, yo'llari shunchalar yiroq!
– Ana, ko'ryapsanmi?
Mening dadamlar!
Dada!!!
Ovozim hech chiqmaydi biroq.
Yuguraman – ortga ketar qadamlar,
Yig'layman – ko'zimga kelmaydi namlar,
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!
Bo'g'zimda alamlar,

Achchiq alamlar,
 Yo'lning o'rtasida turibman.
 Shu choq –
 Poyezd qichqiradi,
 To'xtang, odamlar!
 Qayga ketmoqdasiz?
 Qani dadamlar?!
 Tepamda yonadi zangori chiroq...

Cho'chib uyg'onaman,
 Onam qoshimda.
 Mehribon qo'llari
 Otash boshimda:
 – Nega yig'layapsan,
 Yolg'izim, qo'zim?
 Tun uzoq, u xlabel qol,
 Ko'zlariningni yum.
 Orom ol, men senga
 Allalar aytay.
 Tongda peshonangdan
 O'pib uyg'otay.
 Ana, derazangga
 Qo'nibdi hilol.
 Boshingga egilib
 So'rmoqchi savol.
 Sening kiprizingga
 Sochmoq bo'lib zar,
 Hilol tegrasida
 O'ynar yulduzlar.
 Men sening baxtingman
 Deganday go'yo
 Imlab chorlamoqda
 Yoqut surayyo.
 Senikidir bular,
 Seniki bari.



Seniki osmonning
Zar qandillari.
Somonchining yo'lli –
Sening yo'llaring,
Uzatsang Zuhroga,
Yetar qo'llaring
Ulg'ay bolajonim,
Ulg'aygin tezroq.
Sening yo'llaringga
Yulduzlar mushtoq.
Hozircha orom ol,
Yolg'izim, qo'zim.
Tun uzoq, uxlay qol,
Ko'zlariningni yum.

Olis sohillarda,
Ufqdan nari
O'lim sochmoqdadir
Yov quzg'unlari.
O'lim sochmoqdadir
Elga beayov.
Shahar, qishloqlarni
Yutmoqda olov.
O'sha olis yurtda
Qon kechib hozir
Otang hayot uchun
Jang qilayotir.
Ellarning erk degan
Sof tilagi deb,
Jahonning nurafshon
Kelajagi deb,
Ofat solmasin deb
Olamga qotil,
Otang uzoq yurtda
Jang qilayotir.

Sen uchun, men uchun,
 O'z uchun emas,
 Faqat o'zbek va yo
 Rus uchun emas,
 Butun Yer – undagi
 Bor avlod uchun,
 Dunyoda eng qutlug'
 E'tiqod uchun
 Uzoq o'lkalarda
 Qon kechib hozir
 Otang hayot uchun
 Jang qilayotir.
 Sen, uxla, yolg'izim.
 Sen uxla, qo'zim,
 Bir nafas orom ol,
 Ko'zlariningni yum.

Bu kunlar albatta
 O'tib ketadi.
 Bashar jarohati
 Bitib ketadi.
 Ona-Yer qaytadan
 Yashharar bir kun.
 Olam nur qo'ynida
 Yashnar lolagun.
 Jang-u jadallarga
 Kelur intiho,
 Bizning dunyo bo'lur
 Urushsiz dunyo.
 Bu kunlardan qolur
 Faqat xotira.
 Ammo xalq jafoni
 Unutmas sira.
 Bu kunlar ketar-u,
 G'am, dog'i qolur.
 Yuraklarga solgan



Firog'i qolur.
Avlod-avlodlarga
Zamon-zamonga
Abadiy, adabiy
Sabog'i qolur.
Sen ham unutmassan,
Yuragim, qo'zim.
Hozircha tinch uxla,
Ko'zlariningni yum.
Vaqt kelar, ulg'ayib,
Odam bo'larsan.
Ilm olib sohibi
Olam bo'larsan.
Sen bizlar ko'rganni
Ko'rmagaysan hech,
G'urbat yo'llaridan
Yurmagaysan hech.
Olam to'la quyosh,
Qalbing to'la nur,
Oydin bir zamonda
Yashaysan masrur.

Bizlar ham o'tamiz
Vaqt kelib bir kun.
Sizlarga qoladi
Muqaddas zamin.
Siz uni avaylab
Kaftda tutasiz,
Sharaf yo'llaridan
Olib o'tasiz.
Otash alangaga
Tutmaysiz uni,
Dahshat ummoniga
Otmaysiz uni.
Zamin tegrasiga
Oltin kamalak

O'raydi yetti xil
 Nurdan chambarak.
 Siz uning bag'rini
 Pora qilmaysiz,
 Otalar xokini
 Saqlab muborak.
 Sen shunday davronda
 Yashaysan qo'zim.
 Hozircha orom ol,
 Ko'zlarining yum...
 Boshimizda otashin falak,
 Poyimizda otashin tuproq,
 Qo'limizda yog'och kamalak,
 Ostimizda yog'och arg'umоq,
 Oppoq changdir engil-boshimiz,
 Oppoq changdir ko'z-u qoshimiz.
 Ko'r-u karmiz,
 Beshdan oltiga
 Endigina o'tgan yoshimiz,
 Ko'cha-ko'yda ko'tarib suron
 Yuguramiz saharden to kech,
 Olam uzra kezar zo'r bo'ron,
 Biz bu haqda o'ylamaymiz hech.

«Urush-urush» o'yin bo'lsa bas,
 Titratamiz ko'k-u zaminni.
 Kim o'yabdi deysiz u nafas
 Bu urushning rostakamini.
 Burchaklardan bir-birimizni
 Yog'och miltiq bilan otamiz,
 Biz bilmaymiz:
 Qay birimizning
 O'qqa uchdi bu vaqt otamiz.
 Ko'ksimizni ushlagancha
 Yiqilamiz,



O'lgan bo'lamiz,
Biz dunyoda rostakam o'lim
Borligini qaydan bilamiz?!

Dahshat solib kezarkan u dam
Uzoqlarda jang guldurosi,
Bizning qishloq ko'chasida ham
Yangrar edi
Aksi sadosi.

* * *

Quyosh botar,
Oqshom cho'kar ko'cha-ko'yga,
Tarqalamiz uy-uyga-yu tepe to'yga,
Tun boshlanar,
Menga charchoq bilinmaydi,
Kiprigimga uyqu sira ilinmaydi.
Murg'ak fikrim yetaklaydi xayollarga,
Onam qo'ynin to'ldiraman savollarga.
«Ayting, aya, mening dadam qahramonmi?
Tog'larni ham qulatguvchi pahlavonmi?
To'pponchasi bormi uning cho'ntagida?
Ordenlari juda ko'pmi ko'kragida?
Mening dadam samolyotda uchadimi?
Osmonlardan parashutda tushadimi?
O'tkir po'lat qilichini qo'lga olib,
Dushmanlarning yuragiga qo'rquv solib,
Katta jangga kiradimi yolg'iz o'zi?
Yelkasida yonadimi besh yulduzi?
Ayting, dadam meni yaxshi ko'radimi?
Kelganida toycha olib beradimi?
Ko'chalarda toychog'imni yetaklatib,
Qo'llarimdan ushlab olib yuradimi?
O'sha kunlar tezroqqina bo'la qolsin?
Ayting, dadam hayallamay kela qolsin».

44-yil

Sentabr tongi otdi.

Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi.

Ko'k jildimda alifbe va bir burda non,

Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tomon.

O'yinlardan ancha erta to'yan edim,

Kitoblarga barvaqt havas qo'yan edim.

Yod bilardim alifbening harflarini,

O'qir edim informbyuro xabarini.

Juman «pochta» dadamdan xat keltirgan kun

Katta bayram yuz hijjalab, yuz tutilib.

Takrorlardim yirtilguncha xat titilib.

Yayrar edim ma'nosini uqarkanman,

Dadam xatin o'qib savod chiqarganman.

Bu kun yana xat olganmiz,

Ajoyib xat,

Gospitaldan chiqqan emish sog'-salomat,

Boshidagi jarohati bitgan emish,

Hatto o'rni bilinmasdan ketgan emish.

Berlin tomon tushar endi yo'llim? debdi.

Xat so'nggida yaxshi o'qi, o'g'lim, debdi.

Shu kun tunda uch chiziqli daftaringa,

Oro berib katta-katta harflaringa,

Xira chiroq yorug'ida ko'z ishqalab –

Dadamga xat yozmoq uchun surdim qalam:

«Dadajon!»

Men sizni juda sog'indim.

Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin,

Ayam shunday dedi,

Rostmi shu, ayting?!

Dada,

U kun sizni tushimda ko'rdim.



Oq otda keldingiz,
So'radingiz suv.
Men buni ayamga gapirib berdim.
Dadang keladi, deb aytди,
Rostmi shu?..

Rustamning akasi urushdan qaytdi,
Qo'lтиqtayog'i bor,
Bir oyog'i yo'q,
Rustam aytib berdi:
Ataka payti
Tizzasidan olib ketgan emish o'q...
Hol aka qaytgandi uyg'a to'satdan,
O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi.
Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,
Tik turgan joyida yig'layveribdi.
Darsga kelmay qoldi
Tunov kun Tal'at,
Muallim urishsa turaverdi jim.
Dadasidan kelgan ekan qora xat.
Hammamiz yig'ladik,
Hatto muallim...
Dadajon!
Sizga o'q tegmasin hecham,
Men uchun ham tezroq qayting salomat,
Buvim aytgan,
Agar men tilak qilsam,
Tilagim bo'larmish doim ijobat.
Rost aytaman,
Sizni juda sog'indim,
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng,
Kelib qolasizmi, ertami-indin?
Kutaman,
Dadajon,
Albatta keling».

Hijron kechalari g'oyatda uzun,
 Ayriliq yo'llari oils nihoyat.
 Ko'chaga chiqaman yuz bora har kun,
 Ko'zlarim nigoron,
 Kelarmikan xat?
 Tongda turganda ham,
 Kun botganda ham,
 Hatto kechalari qilolmay toqat,
 Eshikka qarayman,
 Chekaman alam.
 Intizor bo'laman,
 Kelarmikan xat?
 Men qaydan bilibman,
 Yo'l bosar ekan
 Mening murg'ak xatim bekatma-bekat.

U yoqdan,
 Xuddi u borar manzildan
 Yo'nga chiqqan edi mash'um qora xat.

Qosh, ko'zlarining otangga o'xshar.
 Deyishadi bilganlar doim.
 So'ng xo'rsiniň qo'shib qo'yishar:
 O'xshamasin umring, iloyim.
 Otam tutgan mash'alni ushlab,
 O'sha yo'ldan boraman men ham.
 Mayli edi
 Otamdek yashab,
 To so'nggi dam
 Unga o'xshasam.

Bobolarning hikmati
 Hayotga yorug' yo'ldir.
 Otang bolasi bo'lma,
 Odam bolasi bo'l, der.



Bu so'zni ilk bor menga
O'rgatgan otam edi.
Men otam farzandiman,
U esa odam edi.
Qirq birinchi yillarning
Dahshati ko'z oldimda,
Go'dak edim, otamni
Kuzatgandim yodimda.
U ko'plar baxti uchun
Kirar ekan zo'r jangga
Onam boshimni silab,
O'xsha, degan otangga.
Mening mardlik maktabim
Jonfido otam edi.
Men otam farzandiman,
U esa odam edi.
Men otam bosib o'tgan
Qonli yo'lni o'tmasman.
Ammo shonli hayotni
Bir umr unutmasman.
Ona-Vatan ko'ksiga
Qalqon bo'lgan otamning,
Ko'plar baxti yo'lida
Qurbon bo'lgan otamning –
Aziz nomin qalbimda
Vijdonimdek saqladim.
Uning o'lmas ruhini
Shod etmoqlik maqsadim.
Umrimni fido etay
U jon bergen Vatanga.
El mendan rozi bo'lsin
O'xshabsan, deb otangga.

* * *

Quzg'unning qanotiday
 Qaro edi o'sha tun.
 Na milt etgan yulduz bor,
 Na yilt etgan bir uchqun.
 Kech kuz edi,
 Tund kecha,
 Yer-ko'k mungli, borliq g'ash,
 Qor ezilib yog'ardi
 Yomg'ir bilan aralash.
 Sukunat.
 Jang tin olar,
 Faqat gohi-gohida
 Mushak uchib so'nadi
 Dushman qarorgohida.
 Yarim tun zulmatida
 Tepalikni qoralab
 To'rt soya emaklardi
 Chakalakzor oralab.
 Har zamon to'xtab-to'xtab
 Hordiq olishar edi,
 Jim qolib sukunatga
 Qulq solishar edi.
 Mana, ular o'rmonning
 Chekkasida o'tdilar
 Va nihoyat daryoning
 Sohiliga yetdilar.
 To'xtadilar, bir nafas
 Ko'z tikdilar yiroqqa.
 Atrof jim,
 Faqat daryo
 Urilardi qirg'oqqa.
 Sirli tun, butun borliq
 Sehrlangan singari.



Shunday kecha to'rtovlon
Yo'l olmishlar qay sari?

Qay manzilga shoshishar
Shu sovuqda, shu namda?
Go'yo qor bor,
Yomg'ir bor,
Tun bor faqat olamda...
Avtomatlar bosh uzra
Ko'tarildi tug'simon.
Birin-ketin daryodan
Suzib ketdi to'rtovlon.
Jim, sharpasiz suzishar,
Yaqin qoldi qirg'oqqa,
Yot, notanish tovushlar
Eshitilar quloqqa.
Mana sohil – tik qirg'oq,
Atrof yalang,
Narida
Ikki dushman soqchisi
Ko'rinar tun bag'rida.
Bir-birovga tikildi
Bir so'z demay to'rt juft ko'z.
Shu qarashning o'zida
Aytilgandi barcha so'z.
Tek qotdilar. Komandir
Imo qildi nohoyat,
Tun bag'riga emaklab
Kirib ketdi to'rt soya.

Nogahon o'q otildi,
O't chaqnadi ketma-ket.
Dushman sezdi,
Razvedka
Jangga kirdi betma-bet.

Granata portladi,
 Tilga kirdi avtomat.
 Bir yonda butun bir polk,
 Bir yonda to'rtta soldat.
 Ikki yondan o'q yog'ar,
 Olov yog'ar beshafqat,
 Bir tomonda tahlika,
 Bir tomonda jasorat.
 O'rtada tekis kenglik,
 O'rtada quyuq zulmat.
 Bir tomonda yovuzlik,
 Bir tomondaadolat.
 Qancha davom etdi jang
 Bilar faqat qaro tun,
 Bilar faqat tepalik,
 Ammo bular lol va gung.

Tongga yaqin qor tindi,
 Asta yorishdi osmon.
 Tepalikka ilk nurin
 Sochdi xurshidi jahon.
 Bunda yerni quchgancha
 Toshlarga qo'yib boshin,
 To'rt o'g'lon tinch uxlardi
 Ko'kragida qo'rg'oshin.
 Tungi og'ir jangdan so'ng
 Go'yo tin olar bari.
 Ona bag'rida yotgan
 Ma'sum go'dak singari.
 Shu tong sabo yig'ladi
 Boshin urib qirg'oqqa.
 Oq, momiq buiutlarning
 Bag'ri choc-chok so'kildi.
 Shu tong oftob nurlari
 Ko'z yosh bo'lib to'kildi.



O'rmonlar shovillagan
Olis yurtda hali ham
Nomsiz tepalik uzra
Uxlab yotibdi otam.

* * *

Tengdoshim,
Asrdosh birodar!
Kel, bir on jim o'yga cho'maylik.
Bu yerda

yotibdi
fidolar.

Kel, uni

gullarga
ko'maylik.

Bu yerda

baxt bo'ssin,
nur bo'ssin,

Bo'lmasin

qora tun
zulmati.

Bu yerda

yuraklar
hur bo'ssin.

Qaytmasin,

u kunlar
dahshati.

Tengdoshim,
asrdosh
birodar!

Uyg'oq bo'l,
hushyor boq
olamga.

Bu yerni
quchmasin
alanga,
Qabrida
tinch yotsin fidolar.

Eshit,
ingrayapti
Ona-Yer
Qo'lтиqtayoqlaring
zahmidan,
Bu tuproq
yuragi
poradir
Atom zontlarining
vahmidan.
Eshit, chorlayapti
Ona-Yer,
Ko'ksida
olovli
oh-faryod.

Asrdosh birodar, qo'lni ber,
Kel, Yerga qilaylik qasamyod:
Bo'lurmiz gal kelsa har birimizga
Tinchlik janggohining fidosi.
Bu senga
bu menga,
bu bizga
Yigirmanchi asr nidosi.

Yiroqlarda qoldi
Uqubatli yillar,
Yer ostida yotar topganlar zavol.
Qolganlar umrning
Sarhisobin qilar,
Soch oqiga boqib surarlar xayol.



Yillar o'tdi-ketdi
Dovulini qoqib.
Tuproqqa berildi ne-ne aziz jon.
Bizlar xayollarning
To'lqinida oqib,
U kunlar haqida to'qiyimiz doston.
Ammo o'lganlarga
She'r, doston ne naf,
Ne foyda yig'lashdan qalb dardin aytib.
Ming yil shon o'qisak,
Ming yil aytsak sharaf,
Ketganlar dunyoga kelmaydi qaytib.

Nega egilmasin
Odam ketsa odam,
Ustunga zo'r kelar qulasa ustun.
Bu tashvishli dunyo,
Sermashaqqat olam
Bizning yelkamizda qoldi-ku, do'stim!
Uni bo'ronlardan,
Quyoshli yo'llardan
Nurli istiqbolga olib o'tamiz.
Biz uni olganimiz
Tabarruk qo'llardan,
Tabarruk qo'llarga eltib tutamiz.
Avlodlar uchun ham
Qutlug' bo'lar albat
Yer uzra to'kilgan ko'z yosh, qon va ter.
Bepoyon kenglikda
Charx uradi abad
Ulkan yurak shaklidagi
Yer...

RUHLAR ISYONI

Doston

MUQADDIMA

Tug'ilgansan ozod, mudom

Ozod bo'lib qol!

Nazrul Islom

Bu dunyoning
Quvonchi kam,
Dard-u g'ami –
ziyoda,

Ammo

g'amdan qochmoqning ham

Tadbiri ko'p dunyoda.

Kimning dildosh

Bor ulfati,

Dardin

unga to'kadi.

Yolg'izlarning bor kulfati

Dil tubiga

cho'kadi.

Kim najotni

sokin tunning

Uyqusidan so'raydi,

Kim g'amini

Nikotinning –

Tutuniga o'raydi.

Dil zaxmiga malham topar

Kim habib,

Kim tabibdan.

Kim qochmoqqa

aylar safar



G'am atalgan
raqibdan.
Gar bularning
Yo'q imkoni,
So'nggi chora etmoq bor.
Kulfat to'la
bu dunyoni
Shartta tashlab ketmoq bor.
Lek olamda
bir dard borki
Unga sira najot yo'q.
Bu azobga
kim duchorki,
Unga kun yo'q,
Hayot yo'q.
Bu mashaqqat
Ichgan bilan
Dil tubiga
cho'kmaydi,
Uni hech kim
yuragidan
Hech kimsaga
To'kmaydi.
Xalos etmas
bitta arqon,
Nuqta qo'ymas
Bitta o'q.
Chidamoqqa
yo'qdir imkon,
Qochmoqqa ham
Chora yo'q.
U jon bilan
ketsa dildan,
Sukut qolsa
yurakda,



Odamzotning
Ruhi bilan
Yashayberar falakda.
Bu -

shoirning dilin ezgan
Istibdodning dardidir.
Yurakdan
qon bo'lib sizgan
Iste'dodning dardidir.
To'lg'og'ida bu alamning
Tanho ingroq -
xonish bor.

Abadiyat
Jahannamning
Otashida yonish bor.

Abadiyat haqida rivoyat

Roviy aytar:
Allazamon -
Allaqaysi ma'voda
Falokatga uchrab karvon
Poyoni yo'q sahroda,
Bu nogohon
Tasodifdan
Barcha o'tib dunyodan -
Shu tasodif amri
bilan
Omon qoldi
Bir odam.
Belbog'iga osganicha
Quruq ko'za -
suvdonni,
Kezdi necha
Kunduz-kecha



Bu dashti bepoyonni.

Keza-keza

oxir toldi,

Umid uzdi jonidan.

Bir payt

nogoh

chiqib qoldi

Bir chashmaning yonidan.

Yiqilgancha suvga

behol

Lab cho'zganda tashna tan,

To'lqinlandi

birdan zilol,

Sado chiqdi chashmadan:

«Shoshma, yo'lchi,

Ichursan, bas,

Muzdek,

tiniq,

to'laman.

Ammo bilki,

Oddiy suvmas,

Obihayot bo'laman.

Azob chekding ko'p

sahroda,

Mayli,

To'yib ichib ol.

Meni ichgan bu dunyoda

Mangu yashar bezavol.

Ol, ich,

Yasha davron surib

Abadiy bu dahr aro,

Ammo

Meni ichmay turib

Fikr qilgin avvalo.

Hayotga-ku,

to'ymas ko'zing,



Yashaysanmi umrbod?
 Mangu hayot uchun o'zing
 Yaraysanmi,
 Odamzot?
 Mangulik der
 odam nasli,
 Lek
 insoniy tafakkur –
 Abadiyat nadir asli
 Qila olmas tasavvur.
 Yo'lchi hayron,
 Yo'lchi sergak,
 Bu qandayin chashmadir?
 Ichay desa –
 cho'chir yurak,
 Ichmay desa –
 tashnadir.
 Uzoq-uzoq
 O'ya toldi,
 Suv labida oltirib,
 Oxir
 Obihayot oldi
 Ko'zasiga toldirib.
 O'ylay-o'ylay
 Nari ketdi –
 Ul sehrli buloqdan.
 Nogoh
 Xazin sas eshitdi –
 Sado keldi yiroqdan.
 Bordi,
 E, voh,
 yotar bir bosh
 Qum ustida
 benajot.
 Nola chekar,
 To'kar ko'z yosh,



«La'nat, –
 deydi, –
 ey, hayot!
O'sha suvdan ichdim nega
Afsus!» –
 der-u
 o'kinar.
Yo'lchiga u:
– Rahm et menga,
O'ldir, –
 deya o'tinar.
Ming yil avval
Shu buloqdan
Suv ichganman,
 cho'mganman.
Yashayverib,
Bu qiyonoqdan
O'zni qumga
 ko'mganman,
Umr ko'rdir
 haddan bisyor,
Hech toqatim
 qolmadi.
Yer yuzida
Mening biror –
Hamsuhbatim
 qolmadi,
Azob bormi
Bundan ulug',
Dahshat bormi
 ziyoda?!

Menga yerda
 tiriklik yo'q,
O'lim ham yo'q
 dunyoda.

Yo'lchi boqdi

Hayratda lol

Tirik inson qabriga.

So'ngra

qumga cho'kdi behol,

Rahmat aytди sabriga.

O'z holiga

ming shukr etdi,

Yig'ib so'nggi sabotni –

Qum ustiga

To'kib ketdi

Yo'lchi obihayotni.

Yo'lchi ketdi

Bo'lib xoli

Mangulikning g'amidan.

Totib qoldi

Cho'l niholi

Obihayot namidan,

Ildiziga uning alhol

Tomchi yetdi,

Shu faqat.

Yillar o'tib

o'sha nihol

Chinor bo'ldi oqibat.

Shundan chinor

Uzoq yashar,

Shundan chayir tanlari.

Mangulikdan kechib bashar

Foniy umr tanladi.

Kel, ey ko'nglim,

Bizning hayot

Emas ekan

jovidon,



Bu dunyoda
izla najot,
Yasha faqat
shodumon,
Bu hayotning
Yarmi rohat,
Yarmi g'amdir,
shukr qil.
Umring uzun bo'lsa –
rahmat,
Agar kamdir,
Shukr qil.
Shu oftob-u
Ming bir ohang,
Ming bir rangli bu dunyo
Senikidir,
Hayot esang,
Hayot esang avvalo.
Ham shavq bilan,
Ham dard bilan
O'tar ekan bu damlar.
Omon bo'lsin
Sen anglagan,
Seni anglar odamlar.

BIRINCHI FASL

Shoir qalbi

Tun bilan kun,
O't bilan suv
Bir-biriga zolimdir.
Koinotda
Azal,
Mangu

Isyon ruhi hokimdir.
Zamin uzra
 qor quyunin
Yog'dirganda
 charx-falak,
Qish qahriga
 egmay bo'yin
Isyon qilar
Boyc hechak.
Qora bulut
 zulumotga
Chulg'aganda samoni,
Chaqmoq –
 nursiz bu hayotga
Yorug'likning isyoni.
Tug'ilarkan,
 dod der go'dak,
Ko'ksi to'la fig'ondir.
Jajji mushti
Naq g'unchadak
Bu – o'limga isyondir.
Qaro qilgan
Ko'k daftarin
Qorong'ulik qasdiga
Tong yig'adi
 nur lashkarin
Shafaq tug'i ostiga.
Yer-u ummon,
Burjlar aro
Xohi oshkor,
 xoh pinhon,
Ibtidodan
 to intiho
Hukm surar g'alayon.
Sobir inson yuragida



Qanoatki barqaror,
Kosa yanglig‘
Sabr tagida
Otash yanglig‘
Isyon bor.
Kuy,
 g‘azali
 odamzotning
Darddir,
 ezgu armondir.
Yaralishdan,
Iste'dodning –
Tabiati –
 isyondir.
Shoir yurak –
Pok tilagi,
Imonidir basharning,
Armon to‘la
 yurakdag
Isyonidir basharning.

* * *

Nazrul Islom
Bu dunyoga
Shoir bo‘lib tug‘ildi.
Ilhom otli pok ziyoga
Go‘dak qalbi yo‘g‘rildi.
Nigohidan
Sehrli nur
Borliqqa nur taradi.
Koinotga
 u tahayyur
Ko‘zi bilan qaradi.
Tunlar unga berdi xayol,

Shavq atadi
kunduzlar.

Gullar
g'azal aytdi xushhol,

Ertak aytdi

Yulduzlar.

Ulg'aydi u,

O'smir bo'ldi,

Yetdi yigit yoshiga,

Ishq otli qush

kelib qo'ndi

Nazrulning ham boshiga.

U ham yondi bag'ri kabob,

Ham ochildi

chun bahor.

Hijron berdi

totli azob,

Visol etdi

baxtiyor.

Goh shodlik,

Goh alamidan

Dil chashmasi ochildi,

Uning hassos qalamidan

Ishqiy baytlar sochildi.

Bu dunyoga Nazrul Islom

Shoir bo'lib tug'ildi.

Ibtidodan

yoniq ilhom

Shu'lasiga yo'g'rildi.

Yetti asr avvalgidek

Bolsa edi zamonlar,

Balki

Xusrav Dehlaviyidek

Bitar edi dostonlar.

Tug'ilsaydi



Nazrul agar
Yarim ming yil ilgari,
Bitar edi
 ruboiylar
Mirzo Bobur singari.
Agar
Necha zamon o'tib
Kelmasa bu davronlar,
Bedilona g'azal bitib
Tuzar edi
 devonlar.
O'zga edi
 ammo fursat,
O'zga edi el dardi.
Zamon
 uning
 yonib turgan
Yuragini so'rardi.

* * *

Shoirni
 u tug'ilmasdan
Gado qilgan edilar,
O'z yurtida
O'z yurtidan
Judo qilgan edilar.
O'rab uning
 naq yurakdek
Ona Hindistonini
Zobitlar
 oq o'rgimchakdek
So'rardilar qonini.
Bir tomonda,
Yovni emas,

Bir-birini beomon –
So'yar edi
 taqvodan mast
Hindu bilan musulmon.
Bir tomonda
Na uy ko'rib,
Na bir to'shak,
 och,
 xarob.
Ko'chalarda hayot qurib
O'lim topgan behisob.
Ganga oqar
 ko'z yosh bo'lib,
Jamuna lim
 bo'lib qon.
Bori butun bardosh bo'lib
Najot kutar Hindiston.

* * *

Har nechakim zo'r iste'dod
Toshqin ilhom,
U nega,
Xalqing yotsa
 chekib faryod,
Yaramasang kuniga.
Shoir esang,
Shoir bo'lib
Nega kelding hayotga,
Eling yotsa
Dardga to'lib,
Kelolmasang najotga.
Ne shoirsan
Tashbehlarning,
Bormi asli keragi,



Bo'lmasa el g'ami –
darding,
Yuraging –
el yuragi.
Nazrul Islom
Hind xalqining
Zardobini yutardi.
Nazrul Islom
O'z qalbini
Bayroq qilib ko'tardi.
Yuragida
to so'nggi dam
Isyon o'ti so'nmadi.
Haqsizlikka ko'ndi olam,
Ammo
shoir
ko'nmadi.
Ko'rgilik bu,
dedi hindu,
Taqdir,
dedi musulmon.
Lekin
Zo'rlar zulmiga u
Tan bermadi hech qachon.
O'zni o'tga otdi aniq,
Joni borki,
kurashdi.
Umri uning
Mangu yoniq
Qo'shiqlarga tutashdi.

Isyon qo'shig'i

«So'yla, inson,
So'yla qadding
Ko'tarib baland.

Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand.
So'yla,
Sening poyingdadir
Bu ulug' zamin.
So'yla, otib zolim asr
Dard-u alamin.
Sen o'tmishni supurguvchi
Kuchli bo'ronsan,
Osmonlarga ot surguvchi
Sohibqironsan.
Sen chaqmoqsan,
Qaro zulmat
Bag'rini yoqqan.
Sen Indra,
Ko'kda ismat
Chirog'in yoqqan.
Sen Shivasan, koinotni
Barbod qilguvchi.
Sen Gangasan, bu hayotni
Obod qilguvchi.
Sen – Durganing tosh yuragi,
Shafqat bilmaysan.
Sen – Krishna qo'lidagi
Kuylagan naysan.
Izmingdadir cheksiz fazo,
Zamin-u zamon.
Bu olamga ega tanho
O'zingsan, inson!
Tangrilarni osmon qadar
Ko'targan ham sen.
Sajda qilgan,
Yana isyon
Ko'targan ham sen.
Ham shafqat,



Ham beozorlik
Yashar qoningda.
Ham fidoiy isyonkorlik
Yonar joningda.
So'yla, inson,
So'yla, qadding ko'tarib baland,
Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand.
Qullik senga ko'p maloldir,
Ammo ne uchun
Boshing egik,
Tiling loldir,
Qomating zabun?
Tangrilarga bo'ysunmagan,
Bermagan bardosh,
Bandasiga bugun nega
Egadirsan bosh?
Sababkormi yolg"iz taqdir
Holingga saning?
Bilasanmi do'sting kimir,
Kimir dushmaning?
Asriy g'aflat yetar endi,
Ey, mazlum inson!
Uyg'onmoqning vaqtি keldi,
Ko'targil isyon!
Bosh ko'targil,
Ming yil to'kkан
Ko'z during haqi.
Qo'zg'al,
Asriy qullik bukkan
G'ururing haqi.
Qo'zg'al,
Buyuk Tojmahalning
Shukuhi uchun.
Qo'zg'al,

Ulug' bobolarning
 Pok ruhi uchun.
 Erk bongin ur,
 Sen intiqom –
 Tablin baland chal.
 Tug'ilgansan ozod,
 mudom
 Ozod bo'lib qol.

* * *

Nazrul she'ri
 mushoira –
 Minbaridan yangradi.
 Kim dedi:
 Bu she'rmas sira,
 Kim
 dilidan angladi.
 Yurt og'zida bu she'r bahsi,
 El tilida bahosi,
 «Qani she'rda gullar raqsi?
 Qani bulbul navosi?»
 «Bu she'r
 Sharqqa xosdir nahot?
 Na ishqiy,
 na rindona...
 Bunday ash'or Sa'diyga yot
 Hofiz uchun begona».«
 «Qoida bor,
 Buzmoq abas,
 Isyon esa gunohdir.
 Kim shariat yo'lin tutmas,
 El bilarki,
 gumrohdir».
 «Ul kun Budda:



Mard agar sen
Dardni ichga yut, degan.
Ul yuzingga ursalar, sen
Bul yuzingni tut, degan».
«U dunyoda baxting ta'min,
Bu dunyoda cheksang g'am,
Shunday deya bergan ta'lim
Ul...

allayhi vassallam»,
Malomatga qoldi endi
Shoir bitib haq doston.
Hindu uni

«jobon» dedi,
«Kofir» dedi
musulmon.

«Bu isyonni,
bu nifoqni
Chiqarmoq ne zohirga.
Siyosat-la o'ynashmoqni
Kim qo'yibdi shoirga».

«U hali yosh
Hali go'dak,
Zarra parvo etmaydi.
Es-hushi yo'q hayiqgudek,
Jon qadriga yetmaydi».

«Ha, zulm bor,
Haqsizlik bor,
Barchaga bu ayondir,
Ammo buni zinhor-zinhor
Aytib bo'lmas zamondir».

«Hamma bilar,
Inson erkin –
Yashashi shart poyidor
Biz ham aytsak bo'lar
lekin
Uyda bola-chaqa bor...»

Fidoyilik to'g'risida rivoyat

Qadim zamon,

Ayol dini

Fidoyilik,

deganlar.

Eri o'lsa,

xotinini

Qo'shib ko'mar ekanlar.

O'tib

necha avlod umri,

O'tib

cheksiz ko'p zamon,

Hech bir davr

Bu udumni

Qilolmadi qatag'on.

Dahshat edi bu chinakam,

Bilar edi

odamlar.

Lek

odatga qarshi

ne ham

Qilar edi odamlar?

Ham ota,

Ham onayizor

Go'rga kirib barobar,

Qola berdi

chirqirab zor

Bola-chaqa

Darbadar.

Asli

o'sha zamonda ham

Donishmandlar bor edi.

Lekin

ular ichra

mard kam,



Ko'p –
ehtiyotkor edi.

Bosh ko'tarmas erlar,
Isyon –
Ayollar ham qilmasdi.
(Chunki ular eri qachon
O'lishini bilmasdi.)

O'tib ketdi
Ming yil fursat,
Qarshi qudrat yo'q edi.
Kimda shafqat,
Kimda himmat,
Kimda jur'at
yo'q edi.

Bir kun
Jangga keta turib
Bosh ko'tardi
bir o'g'lon.

Ot boshini shartta burib
Yeldi tikka
Shoh tomon.

Dedi:
«Ey, shoh!
Oldimda bor
Yo hayot-u, yo o'lim.
Qolayotir rafiqam zor,
Qizalog'im va o'g'lim.

Agar men bu jangda o'lsam
Sodiq qolib udumga,
Farzandlarim onasin ham
Hukm etarsan o'limga.
Men-ku,

ular erki deya
Jangga ketayotirman.
Farzandlarim mehri deya

Fidoyiman,
botirman.

O'lsam,
Ular onadan ham
Yetim qolsa banogoh,
Top-mor bo'lsin butun olam!
Bu ne vahshat!
Eshit, shoh!
Boqiysi yo'q
hech odamning,
Biz ketarmiz tamomiy.

Ammo ayol –
Bu olamning
Kelajagi,
davomi.

Shu-chun,
o'lsam kunim bitib,
Vasiyatim shu bo'lsin:
Yorim emas,
Hamroh etib
Jang qurolim ko'milsin».
Bu so'z
Misli ochiq kunda
Bo'ldi momoguldirak.

Keltirdilar
Bolta...
Kunda...
Bas,
Tafsilot ne kerak...
Bechoraning ochiq qolgan
Ko'zlarini yumdilar.

Mozoriga
O'zi bilan
Qilichini ko'mdilar.
Bo'lsin deya tavqi la'nat,



Avlodlarga ta'lilot
Qabri uzra
Yozdilar xat:
«Bunda yotar
manfur zot!
Ko'ring
bu kas holatini,
Yotar
misli
xor-u xas,
Bobolarning odatini
U bilmadi muqaddas.
His qilmadi
U yurakdan –
Ayol uchun dunyoda
Eri bilan ko'milmakdan
Saodat yo'q ziyoda!»
Qurban bo'ldi
Bitta yurak,
Qoldi tavqi la'natga.
Shundan ayol
O'lsa erkak
Qo'yilmadi lahadga.
Kel, ey ko'nglim,
Inson aslo
Yaralmagan sabrga.
Sig'inaylik
o'sha tanho
Tahqirlangan qabrga.
Haq uchun
Bosh tutgan tikka
Mardlar ruhi
yor bo'lsin.
Bu dunyoda
nohaqlikka

Ko'nmaganlar bor bo'lsin,
Zo'rlik ko'rsang,
Qilma toqat,
Har boshda bir o'lim bor,
Fidoyilar umri faqat
Bu dunyoda
poyidor!

IKKINCHI FASL

G'alayon

Kalkutta, 1926-yil

Kalkuttani
Quchdi g'ulu,
Bosh ko'tardi
olomon.
Qutlug' jang,
deb turdi hindu,
G'azot,
dedi
musulmon.
Barahmanlar
dovul qoqdi,
Fatvo berdi
Imomlar.
Ko'cha to'lib
qonlar oqdi
To'qnashganda imonlar.
Farzandidan ona ayru,
Otasidan –
qiz, o'g'lon.
Budda haqi,
Bos,
der hindu,



Alqasos, der
musulmon.
Hindu ishi tahqir bo'ldi,
Muslim ishi –
tahdidlar
Butxonalar vayron bo'ldi,
Yakson bo'ldi
Masjidlar.
Rikshami bu,
sohibmi bu,
Gadomi yo zodagon –
Farqsiz,
Faqtat –
Bir yon hindu,
Bir yon esa –
musulmon.
Sirtga chiqdi
Asrlik kin
Va ming yillik
kudurat.
Ikki jondosh el aro din
Yana soldi
adovat.
Aslida-ku
Hayot og'u,
Turmush o'zi –
zimiston.
Aybdor emas
bunga hindu,
Gunohkormas musulmon.
Aslida-ku...
Beiztirob
Ho'plab qora qahvoni,
Derazadan
oq tan janob

Kuzatar mojaroni.
U ko'p xursand,
Labda kulgu,
Ko'zi chaqnar
komiron.
Musulmonni so'qar hindu,
Hindni esa
musulmon.
Janob shodon,
Ushalmoqda
Niyatning eng ulug'i.
Hosil bo'ldi shu tuproqda
Ekkan nifoq urug'i.
Bo'lmasin deb
qilar orzu
Bu nizoga hech poyon.
Mayli,
Ko'proq o'lsin hindu,
Ko'p qirilsin
musulmon.
Nazrul
Johil olomonga
Qaradi-yu
oh chekib -
O'zni otdi tik
maydonga
Yoqasini chok etib.
Faryod qildi:
«Ne vahshat bu,
Bas, xaloyiq!
Al omon!
Qotillikni to'xtat,
Hindu,
G'azotni qo'y,
musulmon!



Hind, musulmon –
Birodarmiz,
Farzand Odam Atoga!
Haq oldida
 barobarmiz,
Ayting,
Ne bor nizoga!
Xunrezlik qil demagan-ku
Na Veda-yu
Na Qur'on!
Tig' uradi
 nega hindu,
Bosh kesadi
 musulmon?
Farq –
 kim mehrob,
 kimsa butga
Sig'inib bosh qo'yadir.
Shu farq uchun
Yoqib o'tga
El bir-birin so'yadir.
Bas, adovat!
Bas, endi kin,
Jangni qo'ying,
Odamlar!
Sizning asli yovingiz kim –
Bilib qo'ying,
Odamlar!
Ular
Uzoq yurtdan kelib,
Yerga bukib shonimiz,
Bizni bizga
Dushman qilib
So'rmoqdalar
 qonimiz.

Bosqinchining
Qadimdanoq –
Falsafasi ayondir.
El ichida
 bo'lsa nifoq,
Demak,
 zolim omondir.
Ular
Mazlum vatanida
Bo'lmasin der
 sobitlar.
Jaholatning gulxanida
Isinadi
 sobitlar.
Eldan omad ketsa,
 dastlab
Hamjihatlik yo'qolgay,
Bunday elni,
Sirtmoq tashlab
Har bosqinchi yiqolgay.
Bu adovat
Nahot mangu?
Nahot bitmas
 bu qiron?
Do'st bo'lolmas
Nahot,
 hindu –
Jigariga
 musulmon?
Sen hindmisan,
Muslimmi yo,
Birlik chog'i
 bu choqdir.
Bosqinchini
 eng avvalo



Hind bahriga uloqtir.
So'ng ushalgay
Barcha orzu,
Yashar ozod,
tinch,
omon
Vatanida ega hindu,
Yurtida bek –
musulmon».

* * *

Nazrul aytgan so'zlarin men
Undoq bayon qilmadim.
O'shal yoniq
nafasga teng
So'zlar topa bilmadim.
Tarjima ne?
Asl she'rning
Ma'nosi-yu
g'oyasi.
Ammo ul o't,
ul sehrning
Faqatgina soyasi.
Nazrul she'ri
Bangolaga
Qanot yozdi nogahon.
Alangali
bu nolaga
Qulog tutdi
Hindiston.
Keksa Tokur
shukr aytdi shod,
Oq soqolin siladi.
Yosh shoirga

Nurli ijod,
 Bezavollik tiladi.
 Bu dunyoga
 Nazrul, ammo
 Olov bo'lib kelgandi
 O'z o'tida yonib
 ado –
 Bo'lishini bilgandi.
 Asroldi
 na xalq,
 na Tokur,
 U sig'madi zamonga,
 Isyonkorlik
 Uni oxir
 Olib keldi
 zindonga.
 Shoir bo'sang,
 Bo'sin qalbing,
 Elga qurban bo'lgudek.
 Shoir bo'sang,
 Bo'sin xalqing
 Senga qalqon bo'lgudek.
 Shoir bo'sang,
 Seni eling
 Qalbi bilan tinglasa.
 Yod olmasa hamki she'ring
 Fidoliging
 anglasa.
 Shoir bo'sang,
 Yurda yasha
 Meniki deb aytgulik.
 Jannat yurtdan kechib o'sha
 Xarobaga qaytgulik.
 Shoir bo'sang,
 Qalamingni



Nayza qilib tutolsang.
Yurakdagi alamingni
Oq qog'ozga
 to'kolsang.
Shoir bo'sang,
Qalb chirog'ing
Yonib tursa to abad.
Bu dunyodan
 ketar chog'ing
Yig'lab qolsa she'riyat.
O'z bag'riga olsa quchib
Seni ona makoning...
Gar shu baxtlar bo'lsa nasib
Yo'q dunyoda armoning.

* * *

Nazrul Islom bo'ldi mahbus
Tunda uydan oldilar.
El ko'zidan uzoq, maxsus
Bir xonaga soldilar.
Ishi qiziq bu jahonning
Hakamlar hukm etdilar:
Shoirni ul g'alayonning
Sababkori, dedilar.
Aybnomani tinglang, hatto
Faryod qilar toshlar ham,
«Hindu bilan
 muslim aro
Qutqu solgan shul odam!»
Olis yurtdan kelgan birov
Ayb qo'ydi beandisha!
«Nazrul Islom –
Xalqiga yov,
Nifoq istar hamisha».

Bu dunyoda
 bor qabohat,
 Bu dunyoda
 bor yolg'on,
 Ammo bunday
 oshkor tuhmat
 Bo'magandi hech qachon.
 Nazrul Islom
 nomi oxir
 Ming baloga taqaldi.
 El uchun
 Jon tikkan shoir
 El dushmani
 ataldi.
 Hukm o'qildi:
 Bosh egib u
 Asta borar hibs tomon.
 Ajab!
 Soqchi –
 bir yon hindu
 Bir yon esa
 musulmon.
 Uni turtar
 musulmon ham,
 Siltaydi hind havoldor.
 – Qirpichoqda
 o'ldi akam,
 Senda ekan ayb,
 murdor!
 – Ko'p azoblar chekdi hindu,
 Ko'p qon to'kdi
 musulmon.
 Sen kabilar yo'qolsa-ku,
 Yashar edik
 Tinch, omon...



Asta

qadam tashlar
Nazrul,
O'ylaridan ogoh yo'q.
Soqchilardan
ranjimas ul,
Jaholatda gunoh yo'q.

Jaholat to'g'risida rivoyat

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatlik zamonda,
Bir donishmand
ulug' hakim
O'tgan ekan jahonda.
U kun bo'yи
Giyoh terib
Kezib tog'-u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga

ming bir mushkul dardning
Ayon bo'lib davosi,
Bora-bora
Odamlarning
Ortaverdi ixlosi.
Tabobatga
Qalban,
ruhan
Fido qilib o'zini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish
ko'rning ko'zini.

Rivoj topmish
 Sohib hikmat,
 Donish,
 mehnat madadkor,
Ammo
Qayda bo'lsa shuhrat
Yonboshida
Hasad bor.
Duoxonlar,
 parixonlar,
O'quvchilar chilyosin...
Xullas,
Yurtda bor nodonlar
Boshladilar ig'vosin.
Tinmay
Kecha-yu kunduzi
Topib
Nabi so'zidan
Dedilar: «Dard bergan
O'zi!
Davosi ham O'zidan!
Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir.
Demak,
Hakim ishi makr-u
Uning o'zi
Shaytondir».
Bu so'zlarni
 chin, deb bildi.
Nodon,
 johil olomon.
Donishmandni sazo qildi,
Kaltakladi
Beomon.
Cho'g' temirda



Ko'ksin dog'lab,
Dorga osmoq bo'ldilar.
So'ng bo'yning xarsang bog'lab
Suvga bosmoq bo'ldilar.
Keyin
Suvni,
 arqonni ham
Hayf bildilar
 «shaytonga».
«Yoqing, – dedi
Eng bosh hakam, –
Olib chiqib maydonga!»
Keng maydonga
Ko'mib ustun,
Bog'ladilar hakimni.
So'ng
 temirni o'tga qo'yib,
Dog'ladilar hakimni.
Buyurdilar:
«Yoqing, shitob
Azozilning oshnasin.
Kerak bolsa
Kimga savob,
Cho'p keltirib tashlasin».
Savob uchun
Birov o'tin,
Birov tashlar dona xas.
Hakim
Boshin baland tutib
Johil elga qaramas.
Bir payt
Gulxan sari bir chol
Asta kela boshladi.
Quchog'ida
Bir bog' poxol,

G'aram uzra tashladi.

Dedi:

«Asli tug'ilgandan
Basir edim men o'zim.

Sen

joduning tig'i bilan
Ochib qo'yding
ko'r ko'zim.

Tangri bilib
Yaratgan ko'r,
Davo qilding ne uchun?
So'roqda men –
manglayi sho'r –

Nima deyman
Mahshar kun?
Haq yo'lidan ozgan odam,
Ko'zim ochib
ne berding?

Meni bir yo'l
U dunyo
ham –

Bu dunyodan ayirding.

Ko'rligimda
Bu olamni
Tasavvurda ko'rardim.
Dunyodagi bor odamni
Mushfiq bilib yurardim.
Shafqat ila

Kim non-u
kim

Chaqqa tashlab ketardi.

Men ham
shunga ko'ngan edim,
Menga shu ham
yetardi.



Qornim to'ysa –
saodatim
Yo'q tuman xil tilaklar.
Hamsuhbatim,
Ham ulfatim
Jajji shirin go'daklar...
O'ylar edim:
Dunyoda bor
Musaffolik,
 soddalik
Ko'zim ochib
Ko'rdim ilk bor
Berahmlik,
Soxtalik.
O'g'riling-u fahshni ko'rib
Jim yurarkan odamlar
O'z do'stiga
Kulib turib,
Tig' urarkan odamlar.
Bir yonda aysh
Ko'kka chirmash.
Bir yonda,
 boq,
 oh-u voh...
Bukun mening
 ko'nglimda g'ash,
Imonimda –
 ishtiboh.
Derdim:
Yurtni bir bor ko'rsam.
Ko'rdim.
Orzum to'q endi.
Yo'lida yotgan
 ko'rchalik ham
E'tiborim yo'q endi.

Bu dunyodan
 To'ydim oxir,
 Ado bo'lsam mayliga.
 Yo qaytadan,
 O'sha basir,
 Gado bo'lsam mayliga!»
 Bu so'zlarni
 Eshitdi-yu,
 Faryod qildi donishmand.
 «Yoqing, –
 deya so'radi u, –
 Olov bo'lsin sarbaland.
 Tezroq ketay
 Bu dunyodan,
 Hech toqatim qolmadi.
 Mendar
 shifo oldi
 odam,
 Olam –
 shifo olmadi.
 Xurofotning zahri tekkan
 Nodon,
 johil,
 gumrohlar –
 Davosiga ojiz ekan
 Men kashf etgan giyohlar.
 Ko'r ko'zlarga
 Mehrgiyodek
 Nur baxsh etdi
 nashtarim.
 Qalblar ko'zin
 ochmoqqa
 lek
 Kamlik qildi
 Hunarim.



Odamlarga
men
yaxshilik –
Qilmoq bo'dim,
Netayin,
Manglayda
 shu ekan
 bitik,
Yoqing,
Kuyib ketayin!»
O't qo'ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo'ldi
 samovot.
Jaholatning
 hukmi bilan
Qurban bo'ldi
Buyuk zot.
Gulxan yondi
Ko'kka o'rlab.
Cho'g'i har yon
 sochildi.
Shu olovdan,
Elning,
 ajab,
Aql ko'zi
 ochildi.
O'kindilar,
Aza tutib
Yig'ladilar,
 kuydilar.
Donishmandga
Yillar o'tib
Oltin haykal
 qo'ydilar.

E, voh,
Olim ko'zi bilan
Ko'rsaydi bu
hurmatni...

Ammo
Hakim o'zi bilan
Olib ketdi
hikmatni.

Qo'y, ey ko'nglim,
Sen ul zamon
Dahshatin
kam o'ylagin.

Senga nasib bo'lgan davron
Sozin olib
Kuylagin.
Shukronalik
mayin ichib
Yayrab qolgin
bir nafas.

Bu olamdan
Bir kun kechib
Ketguvchi bir
biz emas.

Kel, ey ko'nglim,
Kel, muhabbat,
She'r zavqiga
qonaylik.
O'tda yonish bo'lsa,
faqat –
She'r o'tida
yonaylik.

Faqat
Bizga g'am-u kadar,
Qayg'u hasrat
yot bo'lsin.



To

biz uchun
jon bergenlar –
Ruhi mangu
shod bo'lsin.

UCHINCHI FASL

Tutqunlikda

«Onajonim,
Menga bu kun
Sendan o'zga dilxoh yo'q.
Zindondaman,
Bilmam, nechun,
Menda zarra gunoh yo'q.
Gunohkorman
 na Allohim,
Na vijdonim oldida.
Faqatgina...
Bir gunohim
Onajonim oldida.
Kechir, onam!
Ko'zingda g'am,
Azob bo'ldim joningda.
Bukun bayram,
Men bukun ham
Bo'lolmadim yoningda.
Odamlardek
Beozor, tek
Yashab yursam netardi.
Menga tole,
 senga tinchlik
Balki nasib etardi.
Bulbullarga,
 gullarga mast

Yozsam faqat g'azallar
 Balki meni
 mirshablarmas,
 Izlardi yosh go'zallar.
 Menga ham yor sokinlig-u
 Sening ham yo'q bu darding.
 Men – uylik,
 Sen – kelinlig-u
 Nabiralik bo'larding.
 Oh, u yo'l berk,
 Menda yo'q erk,
 Tirik umrim – aftoda.
 Ne qilayki,
 Odamlardek
 Yasholmadim dunyoda.
 Lek ko'nglimda nolish emas,
 Allanechuk dilshodlik.
 Garchi jismim
 Bandi qafas,
 Ruhimda bor ozodlik.
 Tug'ilishdan qul emasman,
 Qullik yot bu jonimga.
 Erk istagi
 Suting bilan
 Kirmish mening qonimga.
 Meni otash,
 girdoblarga
 Otgan o'shal istagim,
 Onajonim,
 Azoblarga
 Qo'ysi seni yuragim.
 Meni kechir,
 Faqat sendan
 Bukun uzr so'rayman.
 Uzr so'rab umid bilan



Xayolimni o'rayman.
Rozi bo'lgan
Gar o'g'loning
Yurak qo'rin asrolsa.
Bir kun
 ona Hindistonning
Xizmatiga yarolsa».

* * *

Vaqt kam bo'lsa
Undan odam
Ulgurgancha oladi.
Ko'p bo'lsa, ne qilarin ham
Bilolmasdan qoladi.
Nazrul qaynoq ish qo'ynida
Kun o'tganin bilmasdi.
Naq bir olam yuk bo'ynida
Kecha-kunduz tinmasdi.
Bo'sh vaqt bermas jarida ham,
Noshirlikning ishi ko'p.
Uyda,
 eldan narida ham
Tinch yo'q,
Yo'qlar kishi ko'p.
Bir tomonda bitilmagan
Dostonlari behisob,
Bir yon
Ko'rib yetolmagan
Yotar ming-ming jild kitob...
She'r ustida oltirmoqqa
Tanho bedor kecha bor.
U Xudodan
O'y surmoqqa
Vaqt so'rardi necha bor.

Mana fursat!
Bunda na g'am,
Na dunyoning tashvishi,
Na nozir,
 na ayg'oqchi ham,
Na xayrixoh bir kishi.

Mana fursat
Xayol uchun.
O'y sur, ko'kka havolan.
Kerak bo'lsa umring butun
Qayta yasha xayolan.

Ammo
 xayol, o'ydan ne naf,
Qo'lda qalam bo'lmasa,
Yurak ochmoq uchun so'ylab,
Dildosh odam bo'lmasa.
Qalam nadir,
Bo'lsa ayon
Ketmasligi bekorga,
Barmog'idan chiqarib qon
Yozar edi devorga.
Umid bo'lsa
Bir kimsaning
Kelishidan sadoga
Dildosh nadir,
U dil sasin
 yetkazardi samoga.

Ammo benaf.
Ko'z oldida
Faqtgina tosh devor.
Xayol esa...
 xayolida
Poyonsiz bir bo'shliq bor.



* * *

Nazrul Islom
Tor zindonning
Tuynugidan qaraydi.
Ko'rib zangor
sof osmonning –
Bir parchasin,
Yayraydi.
Unda
Erkin qanot qoqib
Qushlar uchib yuribdi.
Bunda
Shoir ko'kka boqib
Havas qilib turibdi.
Qushlar bilan uchay desa
Qani uning qanoti?
Bir olamdir
Orzu esa...
Yetarmikin hayoti?
Nazrul Islom
Tor zindonning
Tuynugidan qaraydi.
U falakdan
Hindistonning
Toleyini so'raydi.
«Mayliga,
Men tutqun bo'ssam.
Sen ozod bo'l,
Onajon!
Ming qiynoqda
Mayli o'lsam,
Yurtim,
bor bo'l,
Bo'l omon.

Umrим yetsа,
 Mehring tayanch,
 Seni yayrab kuylarman.
 Bu kun esa,
 Mushkul,
 ayanch
 Qismatingni o'ylarman.
 Nega ming yil
 Manglay tering
 To'kib yerga,
 qolding och.
 Sen olamga
 Ipak berib,
 O'zing o'tding,
 yalang'och.
 Bebaho –
 Fil suyaklarinɡ,
 Bahring aro –
 to'lа dur.
 G'avvos qilib go'daklarinɡ,
 Kelgindilar
 oladir,
 Yurtim,
 Bitmas matonating,
 Sen –
 mujassam bardoshsan.
 Fil singari
 Zo'r qudrating,
 Fil singari
 Yuvoshsan.
 Ona o'lkam,
 Bir kun seni
 Ozod ko'rgim keladi.
 Istibdodning zanjirini
 Barbod ko'rgim keladi.



Ko'tararsan
Sen ham qadding,
Yo'l olarsan
 erk sari.
Himolayning ortidagi
Ozod vatan singari».
Nazrul Islom
Zindonda band,
U zax yerni quchardi.
She'ri esa qushlar bilan
Osmonlarda uchardi.
Kengliklardan oshar edi
Qalb shukuhi shoirning,
El dilida
Yashar edi
Isyon ruhi shoirning.
O'z umrini qilgandi u
She'ri bilan jovidon.
O'qir edi
Uni hindu,
Yodlar edi
Musulmon.
Shoir bandi,
She'ri biroq
Uchar edi beto'siq
Himolaydan oshib
Uzoq -
Ketgan edi bu qo'shiq.
Dunyo bo'ylab
Dovruq soldi
Nazrul Islom erk sasi...
Hindistonda esib qoldi
Ozodlikning nafasi.

* * *

Qiynadilar uni

Uzoq –

Yurtdan kelgan janoblar.

Sindirmadi, ammo qyinoq,

Bukolmadi azoblar.

Umid unga sabot berdi,

Ishonch berdi

Matonat.

Yuragiga qanot berdi

Ona yurtga

Muhabbat.

Bu kunlar ham o'tib ketar,

Hayot oldda...

Hali yosh...

Ba'zan

Xayol surib ketar

Tosh devorga qo'yib bosh.

Yosh ko'ngliga qilar

Ta'sir

Falakning kaj xislati

Ko'z oldidan o'tar bir-bir

Shoirlarning qismati.

Bobokalon Rudakiy der:

«Qulq solgin so'zimga.

Adolat deb bitdim-u she'r

Nil tortdilar

Ko'zimga».

Tilga kirar Firdavsiy ham:

«La'nat, – deydi, – taqdirga.

Rustam, Zolni tanib olam

O'zim qoldim

Tahqirga...»

Navoiy der:



«Zulmat aro
Ko'p izladim yo'limni.
Men o'zimni qildim ado,
Yengolmadim zulmni».
O'xshar Nazrul faryodiga
Barchasining nidosi,
Oxir
Shoir ko'z oldiga
Kelar Bobur siymosi.
Deydi:
– Tingla ogoh bo'lib,
Gar sen bo'sang tutqunda,
Men bir yurtga podshoh bo'lib,
Umrim o'tdi quvg'inda.
O'n ikkimda
Taxtga mindim,
Yosh ochildi ko'zlarim.
Qondoshlarga yov ko'rindim,
Meni sotdi do'stlarim.
Najot istab
Men har nafas
Quyun kabi yelganman.
Yurtingga men
Shoh bo'libmas,
Panoh izlab kelganman.
«Tole yo'qki jonima balolig' bo'ldi,
Ne ishnikи ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yurtni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi».
Shoir bo'lib,
El ichida
Ruhim o'sdi shonimdan.
Shoh bo'lib,
Yov qilichida
Dog'lar qoldi qonimdan.

Men shoh bo'lib,
Alam bilan
Ko'rdim jang-u
suronni.
Shoir bo'lib
Qalam bilan
Oldim yarim jahonni.
Keltirdi ko'p balo, sitam
Tiriklikda taxt-u toj.
Yarim ming yil so'nggida ham
Yog'ar menga
Ta'na-tosh.
Yosh Nazrulga qilar
Ta'sir
Falakning
kaj xislati,
Ko'z oldidan
o'tar bir-bir
Shoirlarning qismati:
Pushkin she'ri
Qildi faryod,
O'qqa tutdi
o't qalbni.
Lermontovni otgan jallod
Dorga osdi
Mashrabni.
Shoirlarning –
Erkdir dini,
Erkka
sajda qildilar.
Erk kuychisi
Nasimiyni
Tovanidan shildilar...
Nazrul Islom
Surar xayol,



O'yi
ado bo'lmaydi.

Der:
Shoirda
bor bir iqbol,
Ya'ni,
shoir o'lmaydi.

Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat

Podsho odil bo'lmas, degan
Haqiqat bor –
O'ylaylik,
Keling,
shohlar zolim ekan
Bizlar odil bo'laylik.
Tojdorlardan bezdi dunyo
Ko'raverib zolimlar.
Shohlar aro
Bo'lgan ammo
Shoirlar-u olimlar.
Tarix ko'p yil tahqir bitar
Chingiz kabi jobirga,
Ammo
mangu ta'zim etar
Ulug'bekka,
Boburga.
Xullas...
Taxmin, Mirzo Bedil
Tirikligi vaqtida
Shohi Jahon o'ttiz bir yil
O'ltirdi Hind taxtida.
Neki qildi
Haq deb bildi,
Bildi shuniadolat,

Kimlargadir zulm qildi
 Kimlargadir –
 saxovat.
 O'z davrida
 davron surdi,
 Yodlasin deb asrlar –
 Necha-necha shahar qurdi,
 Shahar ichra –
 Qasrlar...
 May ham ichdi,
 Aysh ham qildi,
 G'uussasini o'ldirdi.
 Xazinani zar-u
 dilni
 Shodlik bilan to'ldirdi.
 Shohi Jahon
 jasur,
 dono,
 Ko'p hikmatga yor edi,
 Shohning ammo
 Bir bedavo
 Og'ir dardi bor edi.
 Har komiron odamning ham
 Bo'lganidek bir kami
 Shoh ko'ngliga
 Goh cho'kib g'am
 Qaro edi olami.
 Bu g'am na mulk,
 Na dardi shon,
 Na farzand,
 Na ishq dog'i.
 Nomsiz g'amki kelar oson
 Qiyin edi ketmog'i.
 Bunday chog'lar orom berur
 Na sayr-u na sayohat.



Ko'zlaridan qochardi nur,
Yuragidan halovat.
Zardob yutib g'uussasidan
Na suhbat,

na may talab –

Ulug' podsho go'shasidan
Chiqmas edi haftalab.

Ko'z yosh yuvar ko'zlarini,
Ko'ngil to'la tahlika...

Shunda

uning so'zlarini

Tinglar edi

malika.

Aytar edi shoh o'z dardin
Mumtoz Mahal xonimga:

«To'ydim toj-taxt,

Mulk – baridan,

Bari tegdi joninga.

Bu davlat,

Bu shon-u shavkat

Omonatga o'xshaydi,

Vazirlarning fikri faqat

Xiyonatga o'xshaydi.

Barchasining cho'ntagida

Shoh qasdiga pinhon o'q.

Farzandlarim yuragida

Menga zarra mehr yo'q.

Har bir sharpa

Menga qo'rqinch –

Holat bo'lib ko'rinar.

Umrin so'nggi –

to'la o'kinch,

Dahshat bo'lib ko'rinar.

Bo'lmay turib

Bir falokat,

Yo bir fitna qurboni,
Tark etsaydim
Bexosiyat,
Bevafo bu dunyoni».
Shunda
Go'zal Mumtoz Mahal
Tinglab shohning zorini,
O'qib har gal
Bitta g'azal
Ovutardi yorini.
Bedorlikda tunlar bilan
Ulanardi kunlari.
Ming bir kecha
Ertak aytgan
Shahrizoda singari.
Zulm-u fitna,
adovatning
Gunohligin o'qirdi.
Mangulikkaadolatning
Hamrohligin o'qirdi.
O'qir edi:
Odamki bor,
O'tmog'i bor jahondan.
Faqat ezgu ishlar yodgor
Qolg'usidir insondan.
Yuragiga shohning qanot –
Berar edi g'azallar.
Qanot nadir –
Qayta hayot
Berar edi g'azallar.
Lekin shohning
Qay gunohi,
Qay zulmiga intiqom –
Bir tong
ko'kka chiqdi ohi,



Qo'ldan tushib sindi jom.

Voh,

hech kimga
yo'qdir omon,

Yo'qdir omon
ajaldan.

Judo bo'ldi Shohi Jahon –
Qalbi Mumtoz Mahaldan.

Devonaga aylandi shoh,
Dardin elga so'zladi.

Majruh qushdek
To'lg'andi goh,
Goh bo'tadek
bo'zladi...

* * *

Kunlar o'tib
Shohi Jahon,
Tengsiz hajr azobida
Qurmoq uchun berdi farmon
Malikaga obida.

Dedi:

«Tiklang, shunday saroy,
Zarni qilmang hech hisob.
Havas qilsin kechalar oy,
Kunduzlari – oftob,
Yer yuzida uning aslo
Barobari bo'lmasin.
Mumtoz Mahal nomi dunyo
Turgunicha o'lmasin».
Ishga tushdi
Sonsiz asir,
Me'mor,
naqqosh,
sangtarosh,

Zanji qullar og'och tashir,
 Fillar tashir xarsang tosh.
 Yigirma yil
 Yigirma ming
 Jon jabridan bir amal –
 Mo'jizasi bu olamning
 Bino bo'ldi
 Tojmahal.

* * *

Yigirma yil...
 Vaqt – beshafqat,
 Ko'pni ko'rib dunyoda
 Shoh qaridi,
 Lek alpqomat
 Yigit bo'ldi shahzoda.
 Tilak qildi
 Shohi Jahon:
 «O'g'lim faqat shod bo'lsin.
 Mendagi bul dardi hijron,
 Hasratlarga yot bo'lsin».
 Oshno qildi
 o'yin, kulgu
 Ovga, cholg'u,
 san'atga.
 Xayolotni qildi mamnu,
 O'rgatdi shavq,
 g'ayratga.
 Yovqur,
 jasur,
 har bir ishga
 Qodir qilib o'stirdi.
 Tig' urishga,
 o'q otishga



Mohir qilib o'stirdi...
Fan bobida
Imlo ila
Shariatdan berdi dars.
Nutq san'ati,
 harbiy hiyla,
Siyosatdan berdi dars.
Lek, rahmat, deb
Darslar uchun,
Mana harbiy nayrang, deb,
Otasiga qarshi bir kun
Isyon qildi Avrangzeb.
Shoh qo'lida qilich sindi,
Nihoya, yo'q armonga.
Ota o'g'il taxtga mindi,
Ota tushdi zindonga.
Demang,
 bular rivoyatdir –
Xayolotda yetilgan.
Bu shafqatsiz haqiqatdir,
Tarixlarda bitilgan...
Vaqt yetib
Ming oltmisht to'qqiz
Yilning sha'bon oyiga,
Cho'ktirdilar otani tiz
O'z farzandi poyiga.

Avrangzeb

Taqdir ekan,
Ne dey o'zga.
Falak hukmiadolat.

Shoh jahon

Bas,
Hojat yo'q ortiq so'zga,
Sodir bo'ldi xiyonat.

Ters aylandi garduni dun,
So'zla,
nedir muroding?
Hukm – sening hukming bu kun,
Vojib – sening irodang.

Avrangzeb

Alamingga nihoya yo'q,
Ne taxtparast odamsan.
Sen shoh,
Senga himoya yo'q,
Ammo netay,
otamsan.
O'yla o'zing,
Gunoh kimda?
Kimdan oldim tarbiyat?
Sen uyg'otding yuragimda
Toj-u taxtga muhabbat.
Bu tuyg'uni berib,
nega
Qaro qilding baxtingni?
So'ng, qarib ham
Nechun menga
Bo'shatmading taxtingni?
Ha, ha!
Inson shohmi, gado
Odam sutin ichgandir.
Tiriklikda qaysi podsho
Toj-u taxtdan kechgandir?

Shohi jahon

Kelar bir kun senga ham gal,
Yoshsan,
vaqt bor sinovga
O'zingga ur tig'ni avval,



Og'rimasa –
birovga.
Shuhrat mayi g'oyat shirin,
Sarxush qilar odamni.
Sen bu baxtga yetding, lekin
Zabun qilib otangni,
Unutmaki,
Dohil bo'lding
Tojdorlikning shoniga
E, voh,
bo'yab ikki qo'ling
Ikki og'ang qoniga.
Bobur nasli
tarixida
Bu eng qaro bir varaq.
Bilki, inson taqdirida
«Alqasos-u minalhaql!»

Avrangzeb

«Haqdan qasos!»
Ayo Xurram!
Sen ham mendek bo'lgansan.
O'z otangga qarshi sen ham
Bir vaqt isyon qilgansan.
Yurishmadi
Lek omading,
Kelolmay taxt yoniga,
Qo'llaringni bo'yolmading
Buzrukворинг qoniga.

Shoh jahon

Ko'targanman isyon rostdan,
Makr emasdi u biroq.
Saltanatni inqirozdan
Lozim edi qutqarmoq.

Ayon etdi vaqt –
kim haqli,
Ko'rdi, bildi jahon ham.
Inson bilan inson farqli,
Isyon bilan isyon ham.

Avrangzeb

O'z qilmishin
Har bir tojdar
Adolat deb aytadir.
Bilur yolg'iz Parvardigor
Chin haqiqat qaydadir.
Men – ollomas,
Ne bilayin,
Lek qilichim kesgan payt.
Endi seni ne qilayin,
Padarimsan,
O'zing ayt.

Shoh jahon

Ajab,
meni padar deysan,
Lek mehr yo'q ko'zingda.
Ne qilay deb so'rma mendan,
Ixtiyoring o'zingda.
Lozim ko'rsang qay ajalni,
Buyur –
Xoh kes,
xohi os.
Iltimosim –
Tojmahalni
Vayron qilma,
shu xolos.
O'sha mendan yodgor tanho,
Uyg'oq ruhim,



Yuragim.
Jonimni ol,
ruhim, ammo
Xarob qilma.
So'ragum...

Avrangzeb

Vahshiylikka bormas qo'lim,
Tojmahalni buzmasman.
So'ramagil mendan o'lim,
Ota boshin uzmاسمان.
Padarkushlik shonin aslo
Ravo ko'rmam o'zimga.
Sen yasharsan
Mendan rizo,
Rizo bo'sang so'zimga.
Erta meni podsho qilib
Ko'tarurlar,
kelarsan,
Xalq oldida,
Rizoman deb
Meni duo qilarsan.
Qarib qolding,
Taxt g'amin qo'y,
Orom gashtin surib yot.
Huzurimda maslahatgo'y
Bo'lib qolgin umrbod.

Shoh jahon

«Maslahatgo'y bo'lib qolgin
Huzurimda umrbod...»
Sen dunyoga tug'ilgan kun
Men naqadar edim shod.
Yurganingda atak-chechak,
Minganingda ilk bor ot,
Kelin ko'rib,
So'ngra go'dak...
Men naqadar edim shod.
O'sha shodon damlar nechun
Men dunyodan o'tmadim.
Yo bolangga to'y qilgan kun
Senga aza tutmadim.
Ko'zlarimga butun dunyo
Hech oqarmas tun bu kun.
Sulolangdan,
Bobur mirzo,
Omad ketgan kun bu kun.
E, voh,
Ota-farzand aro
Ko'tarildi oqibat.
Bu – intiho!
Chin intiho –
Yetib keldi oqibat!

* * *

Tarix –

bir ming oltmishto'qqiz
Yilning sha'bon oyida
Toj sohibin
Qildilar hibs
O'zi suygan joyida.
Ya'ni arkli saroyida –



Sharqda shunday qoida-
Izzat-ikrom o'z joyida,
Qo'sh gilamlar poyida.
Faqatgina taxt-u toj yo'q,
Mashvarat yo'q,
Devon yo'q.
Xazinaga ehtiyoj yo'q,
Chunki qo'lda farmon yo'q.
Kecha Ajam, Rum, Xitoga
Larza solgan buyuk shoh
Qarab yotar keng dunyoga
Tor darchadan...
Ko'kda moh
Asta kezar,
 sochar xomush
Borliq uzra siymin hal.
Misli xayol,
Sehrli tush
Mag'rur turar Tojmahal...

* * *

Ey dil,
Qulq ber nidoga,
Toki yerda inson bor,
Na podshoga,
Ne gadoga
Alqasosdan omon bor.
«Jafo uchun,
Vafo uchun
Haqin oldi Shoh Jahon.
Biri uni qildi zabun
Biri esa – jovidon.
G'amli tarix ibrat bo'lsin,
Bo'lsin senga namuna...»

Deya, asta,
ma'yus, sokin
Oqib yotar Jamuna.

TO'RTINCHI FASL

Sharpalar

Insoniyat
Minglab qiyinoq –
O'ylab topgan
dunyoda.
Bu qiyonoqlar ichra biroq
Birisi
eng ziyoda.
Unga toqat yo'q
insonda,
Yo'q undan zo'r
dil dog'i.
Bu iztirob –
Tor zindonda
Tanhilikning qiynog'i.
Shoir qalbning
Dildoshi yo'q,
Qiynaladi
yosh joni,
Qutulmoqning
iloji yo'q,
Yo'q o'lmoqning
imkoni.
Nazrul
Xayol surib yotar
Shiftga boqib
Uzun kun.
Necha-necha tonglar otar,



Necha-necha cho'kar tun.

Goh

Ajib bir holat bo'lar.

Hayron bo'lar
o'ziga.

Allanechuk

Oq sharpalar

Ko'rinati

ko'ziga.

Ular kelib

Har zamonda:

«Yetar!

Nazrul!

Tur! – deydi. –

Oltirma bu

zax zindonda.

Bizlar bilan yur», – deydi.

«Yo'q, yo'q», – deya

Tutqun shoir

Sharpalarni quvadi.

Ko'zdan oqqan

Achchiq yoshi

Yuzlarini yuvadi.

She'r o'ylaydi

Nazrul Islom,

Izlab jonga halovat.

O'yda she'r yo'q,

Dilda ilhom,

Ruhda shavqi sinoat.

Nahot

Tamom bo'ldi shoir?

Nahot bitdi saboti?

Nahot

Qalbda tugadi she'r

Tugamasdan hayoti?

Axir unda
 Qancha orzu,
 Ishq bor edi,
 muddao!

Nahot bari tamom?

Nazrul

Qildi ko'kka

Iltijo:

«Ey, Xoliqi olam,
 Tilagimni qondir,
 Umrimga ber barham,
 Vujudimni yondir.

Holim bir senga ham

Bir menga ayondir,

Yaratibsan odam

Odamlilikcha qoldir.

Tugadi iroda,

Yo'q o'zga dil rozim,

Yetganim ma'voda

Bo'linsin ovozim.

Kim, avji navoda

Ushalsin bu sozim,

Eng olivy fazoda

Tugasin parvozim.

Shoирга dunyoda

Aslida shu lozim.

Ey, Xoliqi olam,

Tilagimni qondir,

Umrimga ber barham,

Vujudimni yondir.

Na jonda g'ayratim,

Na ko'zda hayratim,

Na dilda alam bor,

Na qo'lda qalam bor.

Na boshda fikratim,



Na kerak
Siyratim,
El uchun adoman,
Tugadim tamoman.
Sig'may keng jahonga,
Sig'dim tor zindonga.
Ey, Xoliqi olam,
Tilagimni qondir,
Umrimga ber barham,
Vujudimni yondir!»
Nazrul Islom
Qilgan nido
Yetdi

yuksak osmonga.

Oliy ruhlar
Uni ravo
Ko'rma dilar
zindonga.

Shoir ruhin
Olib mangu
Ko'kka

parvoz etdilar.

Tor zindonga
Faqat jon-u
Jismin tashlab ketdilar.
Nazrul Islom
Tor katakda
Devonavor turibdi.
Ruhi uning

keng falakda

Qanot yozib yuribdi.

Oliy ruhlar to'g'risida naql

Bolalikda eshitganim
Talay-talay ertakdan –

Xayolimda biri manim,
 Sira chiqmas yurakdan.
 Marhumlarning ruhi ko'kda
 Doim uchib yurarmish.
 Biz ularni ko'rmasak-da,
 Ular bizni ko'rarmish.
 Biz xayrli ishlar qilsak,
 Shodon bo'lar emishlar.
 Mabodo,
 Biz yomon bo'sak
 Nolon bo'lar emishlar.
 Do'st, qarindosh –
 urug'larning
 Ruhi – oddiy ruh emish
 Lek daholar,
 Ulug'larning
 Ruhi – oliv ruh emish.
 O'z arshidan
 Ular bizga
 Bo'larmishlar rahnamo,
 Ko'p ishlarni dilimizga
 Solarmishlar doimo.
 Yiroqda
 Dard ichra qolib
 Do'stimiz zor bo'lsa gar,
 Dilimizga g'ashlik solib
 Qilarmishlar
 Boxabar.
 Bizni kunduz
 Band etsa ish,
 Xoli topib uyquni,
 Ular bizga eslatarmish
 Ketganlarning ruhini.
 Shuning-chun ham
 Dilimizni –



Ko'marmishlar yog'duga.
Qilarmishlar oshno bizni
Mehr degan tuyg'uga.
Ofat kelsa
Bizga nogoh,
Bilguvchi ham ularmish.
Falokatdan bizni ogoh
Qilg'uvchi ham ularmish.
Ammo
Oliy ruhlar faqat –
Pok dillarga yor emish.
Qayda bo'lsa samimiyat –
O'sha yerda bor emish.
Ular yashar
Bizdan o'zga,
Benamoyon va besas.
Sharpalari hech bir ko'zga,
Hech qulqoqqa sezilmas.
Ular bizni
Ko'rib turar,
Buni sezmas nodonlar.
Ular bilan suhbat qurar
Faqat
Buyuk insonlar.
Ular borki – bizlar odam,
Haqiqat bor beomon.
Yaxshilik ham,
Yomonlik ham,
Qaytar bir kun begumon.
Biz mabodo,
 qilsak gunoh,
Har qanchaki xilvatda,
Oliy ruhlar
Bo'lur ogoh,
Jazo berar albatta.
Garchi

Bid'at yotdir menga,
Dahriy fikrat egadir.
Oliy ruhlar borligiga
Ishonaman negadir.
Lazzat shirin,
Davlat shirin,
Hech to'ymaslar odamlar.
Ruhlar borki,
 bir-birlarin
Yeb qo'ymaslar odamlar.
Kel, ey ko'nglim,
Ruhlarni sen
To borsanki, qilgin yod.
Kimlar uni vijdon desin,
Kimlar desin
E'tiqod.
Ammo ular
Dunyoda bor!
Shak keltira ko'rмагин,
Meni nopol yo'ldan
Zinhor,
Zinhor olib yurмагин.
Hatto o'zing qolsang yolg'iz,
Dema,
Mendan ogoh yo'q,
Yashamoqdan e'tiqodsiz
Ortiq yerda gunoh yo'q.

BESHINCHI FASL***Ozodlik***

Bayroq qilib,
El qo'zg'aldi –
Nazrul Islom ismini.
Tor zindondan uni oldi,



Ammo faqat
Jismini.
Nazrul Islom
Ozod,
Ammo
El qanoti qayrildi,
Yosh,
navqiron,
tirik siymo –
Shoiridan ayrildi.
Nazrul Islom
She'ri butun
Hindistonda yangrardi.
Ammo shoir
uni bugun
Na tinglar,
Na anglardi.
Shoirini qo'ymay –
Qolda –
El ko'tarib eltardi.
Na quvonar
Nazrul bundan
Va na parvo etardi.
Bir yonidan uchar hindu,
Bir yonidan musulmon.
Ammo
Hushdan ayrilgan u,
Unga yotdir bu jahon.
Tabriklaydi
Uni Tokur,
«Ozodliging muborak!»
Ro'znomalar qutlov yozur,
Bular unga ne kerak?
U na uyg'oq,
Va na uxlar,

Hissiz boqib turardi.
 Ruhi uning
 Oliy ruhlar
 Dargohida yurardi.
 Shoир topdi
 Erk chinakam,
 Ozod bo'ldi tamoman.
 Bir yo'l unga dardi olam
 Barbod bo'ldi tamoman.
 U bir yo'la
 Sho'rishlardan,
 Savdolardan qutuldi.
 Jabr-u jafo ko'rishlardan,
 Nizolardan qutuldi.
 Qutuldi
 U sig'olmagan,
 Sig'dirmagan jahondan,
 Xolis bo'ldi
 Ham zindondan,
 Ham zindondek zamondan.
 Ham tark etdi
 Bir yo'l uni
 El dardidek og'ir yuk.
 Bu dunyoda
 qoldi tani,
 Behush,
 beruh
 va buyuk.

* * *

Qirq yil o'tdi,
 Uzoq qirq yil.
 Bu dunyodan begona –
 Nazrul Islom
 Yashar bedil,



Yashar darvish,
Devona.
Qirq yil ichra
Nelar ko'rib
Nelar chekdi
Hindiston.
Ammo
 ko'zi
Ochiq turib,
G'ofil o'tdi
 yoniq jon.
Bosqinchilar
Yurtdan ketdi –
El g'azabi
Quvoldi.
Shoir
Buni
Na his etdi,
Na ko'rdi,
Na quvondi.
Nazrul Islom
Bu dunyoda
Yetmish besh yil
Yashadi.
Ammo
O'ttiz ikki yoshda
Bu dunyoni
Tashladi.
Shoir umri
Qoldi she'rda,
Qoldi
Yoniq dostonda.
Bitganlari uning –
 yerda
Ruhi esa
 osmonda.

Zohidlar va oriflar haqida hikoyat

Bu ming yillik hikoyatdir,
 Bayon etgan qosidlar.
 Tarki dunyo
 Saodatdir,
 Deb aytdilar zohidlar.
 Tiriklikda
 Ular o'lim
 Sharobini totdilar.
 Bu olamdan ayru bo'lib,
 G'orga kirib yotdilar.
 Ahli zuhud bandalarni
 Darveshlikka chorladi.
 Lek kiymadi jandalarni,
 Orif inson
 Bormadi.
 Zohid so'zi:
 Kech jahondin,
 Tinglagil shayx maqolin.
 Orif so'zi:
 Alloh zamin
 Uzra sochgan jamolin.
 Zohid aytdi:
 Sharob harom,
 Osiy erur mayparast.
 Lekin shoir Umar Xayyom
 Ishq mayiga bo'ldi mast.
 Zohid dedi:
 Hur-u g'ilmon,
 Orif dedi, jonona.
 Qays Laylining ishqiga bilan
 Majnun bo'ldi devona.
 Tun borki,
 Tong bor unga zid,



Suv bordirki – alanga.
Tug'ilganda
Yerda zohid,
Orif keldi olamga.
Vah dedi dunyoni buzib
To'la ichib,
Shavqqa to'ldi shoirlar.
Zohidlarga qarshi chiqib,
Orif bo'ldi shoirlar.
To dunyoga kelmish bashar,
Bir jabhadak yelib duch.
Birga yashar,
Ham kurashar
Inson aro ikki kuch.
Boshlar boshqa-boshqa yo'ldan
Boshqa-boshqa tilagi –
Zohid yanglig' aqli bilan,
Orif yanglig' yuragi.
Biri tutib
Aysh yo'lin berk,
Tiyilmoqqa undaydi.
Biri esa shaloladek
Quyilmoqqa undaydi.
Men ham bitta sargashta jon,
O'rta yo'lda tururman.
Ular aro ikki jahon
Ovorasi erurman.
She'r, ishq faslin
Ilk onidan
Rahnamodir qalb menga.
Balki she'rning osmonidan
Tushmoq chog'i zaminga...
Ey ko'ngil, bo'l sodiq habib,
Meni zinhor tashlama.
Habibim bo'l, ammo hadeb

O'z ko'yingga boshlama.
 Yolg'iz manim desa fikrat,
 Yo'q, manim, deb da'vo qil.
 Lekin gohi,
 Yetdi fursat,
 Fikratga ham oshno qil.
 Tutma menga ishq yo'lin berk,
 Mayli, toshgin, quyilgin.
 Ammo o'zga berma ko'p erk
 Qirqni ko'rding, quyilgin.
 Bas, o'y surma, senga dunyo –
 Asrорidan ne g'am bor?
 Bu dunyoda
 Odil tanho
 Vaqt atalgan hakam bor!

Nihoya

Dehli. 20-mart, 1979-yil

O't balosi,
 Suv balosi,
 Ortiq yerda balo yo'q.
 Lek ofatning yo'q davosi
 Bosh ko'tarsa
 Xaloyiq.
 O't-u suvgaga tadbir bordir,
 El g'azabi – beomon,
 O't nochordir,
 Suv nochordir
 Qo'zg'alsaga och olomon.
 Shunday deyman
 To'xtab qolgan
 Avtobusda o'ladirib.
 Namoyishga el qo'zg'algan,
 Ko'chalarni to'dirib
 Oqib kelar yalangoyoq –



Dehqon,
 kosib,
 koranda,
Ikki yuz ming
Qo'li qadoq,
Ikki yuz ming
Och banda.
«Bering bizga yer bilan suv,
Mehnat bering,
Bering non»,
Bosh ko'targan
 Tamilnadu,
Bosh ko'targan Rajaston.
«Bu tuproqda,
Ayting,
 inson –
Nega buncha beqadr?
Bizda ham bor orzu,
 armon,
Gunohimiz nimadir?
Yo aybimiz –
Bizning maskan –
Shu jafokash vatanda?
Qarolik yo o't tutashgan
Qaro ko'zda,
Badanda?
Nega kimda har narsa bor,
Bizda esa...
Nega biz –
Faqat chayir,
 ammo nochor
Qo'l gagina egamiz?
Yaralishda
Ham Mahsharda
Tengmiz,
Inson bo'lamiz.

Ne uchun biz ko'chalarda
 Tug'ilamiz,
 O'lamiz?
 Asli qismat
 Yo asirlik,
 Iztirob, ko'z yoshmidi?
 Sharq chindan ham ming asrlik
 Qotib qolgan toshmidi?»
 El oqimi qator-qator,
 Yo'q,
 Shashqator –
 ko'zdan dur,
 Oqib kelar Panjob,
 Bihor,
 Maysur,
 Assom,
 Manipur...
 Oqib kelar ufq tagidan
 So'ngsiz qora olomon.
 Bu –
 Hindiston yuragidan
 Silqib oqqan
 Qora qon.
 Men bu fursat
 Ishtiroksiz
 Derazadan qarayman,
 Ne qilayki,
 Bunda yolg'iz
 Tomoshaga yarayman.
 Negaki,
 Men o'zga eldan,
 Balki o'zga zamondan.
 Balki bunda uchib kelgan
 Yiroq yulduz tomondan –
 Bir mehmonman.



Hayrat ko'zin
Mash'al qilib boqaman.
Xayolan
Shul mavjli to'lqin
Quchog'ida oqaman.
Jisman chetda,
Ammo ruhan
G'alayonda men ham bor.
Nazrul Islom
Ruhi bilan
Bormoqdaman bir qator.
Men ham alvon
Tug' ko'tardim.
Shu el dog'i dog'imdir.
Dardi uning –
Mening dardim,
Ohi – mening ohimdir.

* * *

Ko'tarolmay
Dardlar yukin,
Zamin qalqib turibdi.
Nazrul Islom
Ruhi bukun
Olam kezib yuribdi.
Ilhom chog'i
Dil zamindan
Ko'k toqiga o'rlaydi.
Nazrul Islom
Ruhi mendan
Shunda hisob so'raydi.
Shoir bo'lib
Elga bukun
Darkormisan,
der menga.

Fidolikka xalqing uchun
Tayyormisan,
der menga,

Der:

«Shoirlik – yurakda qon –
Silkib turgan jarohat.

Tilamasman senga, o'g'lon,
Osuda baxt,

Farog'at.

Tilamasman bir zum orom,
To tiriksan,
Bedor bo'l.

Azob bersin senga ilhom,
She'r dardida bermor bo'l.

Taqdiringdan senga dunyo
Rohatlarin so'rmasman.

O'z qismatim

Senga ammo

Sira ravo ko'rmasman».

«Saqla,—

deydi,—

yurak qo'ring.

Dil otashing so'nmasin.

Umrинг ado bo'lmay turib
Cho'g'ing ado bo'lmasin».



TUSHLIK TANAFFUS

Sokingina yashar edi u,
Na shodligi ayon, na dardi,
Tongda to'gri ishga borar u,
Oqshom to'gri uyga qaytardi.

Ulfati yo'q, ko'cha kezmagan,
Maishat ne bilmagan odam.
Birov sezib, birov sezmagan,
Borligi-yu, yo'qligini ham.

Bir mo'minga doir bir qotil,
Esh bo'lganday yorug' dunyoda,
Manglayiga bitgandi xotin,
Azozildan ming bor ziyoda.

Cho'ntagiga arning to'r xalta,
Qulog'iga solib olam gap,
Ro'yxat qog'oz bilan albatta,
Kuzatardi har kun ertalab.

Sodda, noshud, oriq, kichkina;
Har kun uyda o'tirib oqshom,
Gazetdan ko'z olmay tinchgina,
Eshitardi xotindan dashnom.

Tiriklikning tashvishi, g'ami,
Hammani ham qilgandek ado,
O'chdi bir kun umrining shami,
Bu olamdan ketdi benavo.

Xotin ko'zni ochib g'aflatdan.
Bildi: tayanch tog'i yo'qoldi.
Shaddod xotin shunda daf'atan,
Mushtiparga aylandi, qoldi.

Shudir asli hayot qonuni,
Ne yo'qlsa – aziz, mukarram.
Sham ko'tarib
Arafa kuni
Qabristonga yo'l oldi u ham.

Qudrat tilang uning sabriga,
Uni kutar bunda turfa hol:
Qotib qoldil!
Eri qabriga...
Sham yoqardi o'zga bir ayol.

Lol qotdi u.
To'plab nihoyat
Bor makri-yu irodasini,
Yashiroldi ko'zdagi hayrat,
Va hayajon ifodasini.

Ayol sari yurdi beparvo.
Salom berdi.
So'rab kechirim,
Dedi ko'ngil olgandek go'yo:
– Kim bo'ladi bu odam?
– Erim

«Erim» – bu so'z xotin ko'ksiga,
Olovli o'q bo'lib sanchildi,
Endi bildi, er uni nega,
Xush ko'rmasdi, ha endi bildi.

Nahot shunday beozor odam,
Nahot bo'lsa boshqa xotini,
Qani endi shundan keyin ham,
Oqlab ko'ring erkak zotini.



Qani endi go'rni ochsa-yu,
Bevafoni tutsa so'roqqa,
So'ng eriga qo'shib mana bu,
Megajinni ko'msa tuproqqa.

E, voh, ayol g'azabidan ham,
Makridan ham asra Xudoyim,
Yondirsa-da ichini alam,
Savol so'rар yana muloyim.

– Bolalarchi?
– Qolmadi yodgor,
Menga uning yodi kifoya,
G'ayri odat bu ishq – betakror,
Eshitsangiz qilay hikoya:

Men u bilan tushlik chog'ida,
Oshxonada dastlab ko'rishdim,
Men stolning narigi yog'ida,
U bu yoqda o'tirgancha jim.

Ovqatlandik.
Ertasiga ham,
Indiniga shu bo'ldi takror,
Yettinchi kun deganda ilk bor,
«Yaxshimisiz», – dedi bu odam.

Tanishuv kun bo'ldi bu bizga,
Salomlashib yurdik necha kun...
Kechirasiz, ne bo'ldi sizga?
Titrayapsiz, singiljon, nechun?»

– Hechqisi yo'q, sovqotdim biroz,
Davom eting.

Xullasi kalom,
Bir-birovga o'rgandik oz-oz,
Bir-birovga bog'landik tamom.

Shunday ekan qismat xohishi,
Men ham edim dunyoda tanho,
U, kamina beozor kishi,
Dardlarimga bo'ldi oshino.

Men-ku yolg'iz edim: na otam,
Na onam bor, na oilam bor.
Yolg'iz ekan dunyoda u ham:
Farzandlar g'o'r, xotin – dilozor.

Sodda, noshud, ko'rimsiz, ammo
Qalbi uning bir olam edi,
Teran fikrat, hislar musaffo,
Fidoiylik jamuljam edi,

E, voh, qadrin bilmadi dunyo,
Tuproqdag'i dur edi bu zot,
Mening zulmat hayotim aro,
«Yarq» etgan bir nur edi bu zot.

Dardlashardik bechora bilan,
Ikkimizda nadomat-afsus,
G'am-anduhlar izhori bilan,
O'tar edi tushlik tanaffus.

U so'zlardi, men tinglar edim,
Men so'zlardim, kuyardi u ham.
Gohi uzoq o'tirardik jim...
Ko'zimizga cho'kib tubsiz g'am.

Mening ko'zim derdi: «Ey, aziz,
Qayda eding o'ttiz yil avval?»



Uning ko'zi derdi: «Foydasiz.
Bu dunyoda baxt yo'q mukammal».

Mening ko'zim derdi: «Men muhtoj
Qidirgandim seni bir umr».
Uning ko'zi derdi: «Na iloj.
Kech bo'lsa ham ko'rishdik, shukr».

So'rsalarki: «Qay vaqt saodat,
Bo'lgan sening umringga oshno?»
Derdim: «Besh yil, har kun bir soat,
Faqat tushlik tanaffus aro».

O'zga makon, o'zga zamonda.
Paydo bo'lgan olis yulduzlar,
El ko'zidan pinhon osmonda.
Ko'rishgandik faqat kunduzlar –

Biz ham shunday yashadik besh yil
Bu ham turmush...
Mana, nihoyat,
Judo bo'ldik...
Bor gap shu singil,
Tamom bo'ldi dardli hikoyat...»

Oqshom cho'kar,
Tushar qorong'u,
Xazonlarni supurar shamol.
Yarimta oy surgancha xayol
Sokingina taratar yog'du.

Qabristonda qolmagan odam,
Huvillagan sukunat aro –
Bir qabr uzra yonar ikki sham,
Ikki ayol yig'lar besado...

1982



Hajviyalar

*Ko'p ajibdur dunyo ishi,
Na so'ngi bor, na boshi bor.
On sakkiz ming olam bo'lsa,
Barining o'z quyoshi bor.*



SHAHARMI BU, QISHLOQMI BU?..*(Voqeiy she'r)*

Ko'p ajibdur dunyo ishi,
Na so'ngi bor, na boshi bor.
O'n sakkiz ming olam bo'lsa,
Barining o'z quyoshi bor.
Har bir farzand – bir otadan,
Bir daraxtdan – har bir meva.
Lek olamda bir ko'cha bor
Karvoni yo'q yolg'iz teva.
Yo u yoqmas, yo bu yoqmas,
Yo shaharmas, yo qishloqmas.
Yonboshida dorilfunun.
Muz maydoni – ulkan saroy.
Shahrimizning naq o'zida
Bir orol bor – egasiz joy.
Shaharda ham, qishloqda ham
Hech bir son-u sanoqda yo'q.
Hujjatlarni titkilaymiz,
Hayron bo'l mang, hech yoqda yo'q.
Ajab makon, hech kim boqmas,
Yo shaharmas, yo qishloqmas.
Qayerdamiz – bilolmasdan
Har og'izga boqar bo'ldik.
Birov aytar – qishloqdamiz,
Birov aytar – shahar bo'ldik.
Yana birov bu gap xato,
Haqiqatda bundoq deydi:
Juft son uylar shahar bo'lur,
Toq son uylar qishloq deydi.
Men juftmidim yo toqmidim,
Shaharmidim, qishloqmidim.



Anov qo'shnim shaharlikdir,
Ro'paramda turadi u.
Menga ba'zan hazil qilib
«Qishloqi» deb yuradi u.
Na u yoqda, na bu yoqda,
Hech kim bizga parvo qilmas.
Shahar bizdan yuz o'girgan,
Kolxoz esa a'zo qilmas.
Mag'izmidik, po'stloqmidik,
Shaharmidik, qishloqmidik!
Ko'cha cheti katta maydon,
Necha yilki, qo'l urilmas.
Qishloq bo'lib, ekilmas don,
Shahar bo'lib, uy qurilmas.
Hamma boshliq yelka qisar,
Nega demang, negasi yo'q.
Keng olamning egasi bor,
Bu maydonning egasi yo'q.
Shaharmi bu, qishloqmi bu,
Yo daxlsiz qirg'oqmi bu!
Bu atrofda bog'cha bormi?
Bog'cha qani – Hirotdadir!
Shahar bilan qishloq aro
Bu ish da'vo, isbotdadir.
Senda pul ko'p desa shahar,
Qishloq aytar, senda kuch ko'p.
O'rta yo'lda bola-chaqa,
Erta-yu kech xaylala-xo'p.
Yarmi balchiq, yarmi tuproq,
Yarmi shahar, yarmi qishloq.
Bilmadik, bu ishkal ishni
Qachon qilgan qaysi xo'ja:
Bir general nomi bilan
Bordir bunda ikki ko'cha.

O'n besh hovli birinchi uy,
 O'n sakkizta uchinchi son.
 Manzilini topolmasdan
 Shahar bo'ylab xatlar sarson.
 Asli shunday chatoqmi bu,
 Shaharmi bu, qishloqmi bu?
 Pochtamiz bor, qo'shni, lekin
 Qishloqsan deb qaramaydi.
 Qishloq aytar, uzoq yo'lga
 Velosiped yaramaydi.
 Gazet kelmas biz tomonga,
 Kimsasi yo'q oroldamiz.
 Dodimizni tinglar osmon,
 Robinzondek ahvoldamiz.
 Eldan shuncha yiroqmi biz?
 Shaharmi biz, qishloqmi biz?
 Uraldan ham o'tib ketdi
 Buxorodan chiqqan olov.
 Chor atrofdan bo'y taratar
 Zangor o'tda pishgan palov.
 O'n qadamdan o'tgan quvur
 Bizning uyga kelolmaydi.
 Chunkim bu joy qishloq emas,
 Lekin shahar bo'lolmaydi.
 Yo asfaltmas, yo toshloqmas,
 Yo shaharmas, yo qishloqmas.
 Qishloq desa, na bog'-rog'-u
 Ekin-tikin, mol-holi bor.
 Xalqining na poda boqib,
 Yer chopgudek ahvoli bor.
 Manov qo'shnim – fan doktori,
 Chorvadorga o'xshamaydi.
 Bu qo'shnimning vaqtি bo'lmas,
 Rahbarlikdan bo'shamaydi.



Shaharmi bu, qishloqmi bu
Arosat bir tuproqmi bu?..
Bilolmaymiz, qay mamlakat,
Qay o'lkaning mulkidurmiz.
Qishloq borsak – masxaramiz,
Shahar kelsak – kulgidirmiz.
Do'stlar, bizga ko'mak bering,
Bizning ko'cha qay yondadir!
Yoki falak azmi bilan
Manzilimiz osmondadir!
Biz sutmidik, pishloqmidik,
Shaharmidik, qishloqmidik!

1976

QUMURSQALAR JANGI

Bir tup olma uzra kecha
 Juda katta jang bo'ldi,
 Boshlar ketdi necha-necha,
 Necha oyoq lang bo'ldi.

Hasharotlar urushgani
 Dahshat ekan,
 Qaradim.
 Oxir bitta qumursqani
 Ushlab olib so'radim:

– So'yla,
 Nечун бу мояро?
 Нимадандир бу нифоқ?
 Кумурсқалар ахли аро
 Зо'r edi-ku ittifoq?

Qumursqavoy dushmanidan
 Uzib olgan oyoqni –
 Tuflab,
 Odam tili bilan
 Tushuntirdi nifoqni.

«Asli bizlar
 Bir tan, bir jon,
 Bir uyadan chiqqanmiz.
 Bir cho'p topsak,
 Ko'rsak bir don,
 Bir kavakka yiqqanmiz.

Shu paytgacha bir saf bo'lib,
 Ne ish qilsak teng qildik.



Bugun bir ish sabab bo'lib,
Uch guruhga ayrildik.

Kecha bir gap topdi bizning
Tungi soqchi – tingchimiz.
Eshitdig-u hammamizning
Barbod bo'ldi tinchimiz.

U tun bo'yи bedor bo'lib
Ko'kka qarab yuribdi.
Unda sonsiz don sochilib
Yotganini ko'ribdi.

Qumursqalar bugun tongda
Eshitib bu xabarni,
Yo'lga chiqdik o'sha onda
Kechiktirmay safarni.

Ahd qilganga yor deya baxt,
Tuproq oshdik,
Qum oshdik,
Nihoyat, shu katta daraxt
Tanasiga tirmashdik.

Maqsadimiz shu narvondan
Yetmoq edi osmonga...
Ammo bir yo'l
Nogihondan
Bo'lindi uch tomonga.

Bir saf yo'lni o'ngga burdi,
Boshqa yo'lga boqmadi.
Bir saf esa chapga yurdi,
O'ng ularga yoqmadni.

Men tanladim o'rta shoxni,
 Eng to'g'ri yo'l menga shul.
 Ergashtirib ming hamrohni,
 Tik osmonga soldim yo'l.

Alhol qanot qoqdi darg'a,
 G'azab bilan bong urdi.
 O'ng-u so'ldan ketganlarga,
 Qayting, deya buyurdi.

So'ng dedi:
 «Biz qumursqalar
 To'g'ri yo'ldan yuramiz.
 Kim shu yo'ldan yurmasa gar,
 Bitta qo'ymay qiramiz.

Burg'u chaldi bizning podshoh,
 Jangga kirdik barobar.
 Shundan daraxt bo'ldi janggoh,
 Mozor bo'ldi sarosar».

Diqqatimni tortdi shu payt
 Qanotli shoh qumursqa.
 Uchib-qo'nib, u paydar-pay
 Chorlar edi urushga.

Qarab turdim bir nafas tek,
 So'zi qiziq ko'rindi,
 Yaqin borsam,
 Temuchindek
 Ko'zi qisiq ko'rindi.

Uzoq-yaqin tarixlarga
 Meni xayol uchirdi.



Ko'p dahshatni mitti darg'a
Xotiramga tushirdi.

Chidolmadim.
Chertki solib
Yo'qotdim bu badbaxtni.
So'ng
Supurgi, ohak olib
Oqlab qo'ydim daraxtni.

1977

BO'RI CHAQIRGAN MAJLIS VA BEODOB OT HAQIDA LATIFA

Bo'rining qorni to'ydi,
Go'sht ham tegdi joniga.
Echki, quyon, ot, qo'yni
Chaqirdi u yoniga.

Dedi: hozir to'q paytim,
Foydalanib qolinglar.
Menga dashnomlar aytib,
Taqnid qilib olinglar.

Qani, boshla, quyonboy,
Bir eshitay so'zingni.
Botirsan-ku, biyronboy,
Ko'rsatib qo'y o'zingni.

O'rtaga chiqdi quyon,
Avaylab o'z jonini.
Oltirar bo'ri polvon
Qashlagancha qornini.

Quyon dedi: «Ming rahmat,
Menda hech shikoyat yo'q.
Sizdek oliy marhamat
Sohibi inoyat yo'q.

Men qulingiz na derdim,
Sizga fidodir jonim...»
Bo'ri xursand hayqirdi:
– Barakalla, Quyonim.

Buncha shirinsan, oqil,
Chidash qiyin, ne deyman.



Hozir to'qman, tongda kel,
Nahorga seni yeypman.

Quyon ketdi bosh egib,
Mung'aygancha dilxasta.
So'ng qo'yga navbat tegib
Minbarga chiqdi asta.

Dedi: «Hech vaqt hech bo'ri
Bizdan hol so'rgan emas.
Minbar berib, joy to'rin
Munosib ko'rgan emas.

Bu obro', bu hurmatdan
Men terimga sig'madim.
Bunday zo'r marhamatdan
Ta'sirlanib yig'ladim.

Bizlar mo'min, ma'qul el,
Rahm et, o'zga ne deyman».
Bo'ri dedi: «Indin kel,
Seni tushlikka yeypman».

Qo'y ko'z yosh to'kdi ba'rab,
Isyon qilmadi lekin.
Ketarkan ma'yus qarab,
«Rahmat» deb qo'ydi sekin.

U ketgach keldi navbat
Uzunsoqol echkiga.
Unga tegdi taklif xat
Payshanba kun kechkiga.

Nihoyat oxirgi gap
Navbati otga yetdi,

U bo'rini mo'ljallab
Jag'iga chunon tepdi.

Olov sachrab ko'zidan
Bo'rida jon qolmadi.
Ketganicha o'zidan
Qaytib turaolmadi.

Hamon unutmas otning
Bu ishin va der har vaqt:
– Mendek demokratning
Padariga ming la'nat!

Bema'ni majlisga men
Ikki dunyo qaytmayman.
Ot – bedob, ot o'lsin,
Ziyofatga aytmayman.

Lekin unga tan berib,
Ichida «qoyil» dedi.
Quyon, echki va qo'yni
Aytgan vaqtida yedi.

1989



TANDIR HAQIDA ERTAK

Mo'jaz hovli,
Pastgina devol,
Pastakkina tandiri bilan:
Yashar edi kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.
Yashardilar kamtar va halol,
Osoyishta taqdiri bilan.
Pichoq charxlar ermak uchun chol,
Kampiri band xamiri bilan.
Nafaqa bor,
Chol-kampir mamnun,
Daraxt ham bor – bir tup olucha.
Lekin shu tor hovlidan bir kun
O'tar bo'ldi kattakon ko'cha.
Ular bu gap tarqagan kundan
Mung'ayishib so'lib qoldilar.
Bamisoli ini buzilgan
Musichadek bo'lib qoldilar.
O'z boshidan kechirgan bilar,
O'ylab ko'ring, osonmas, axir,
Shu hovlida turgan edilar
Naq oltmish yil chol bilan kampir.
Ular bunda ko'rди go'shang,
Ikki o'g'il boqdilar o'ktam.
Kuzatdilar ikkovicin jangga,
Qaytgani yo'q, ammo biri ham.
Mana,
Uy ham buzilar endi,
Tan berdilar yana taqdirga.
Faqat ular o'rgangan edi
Parcha yerga, pastak tandirga.
Boshqarmaga qatnamadi chol,
«Raysovets»ga yurmadi kampir.

Peshonada borini alhol
 Yurt qatori ko'rarmiz, axir.
 Ne qillardik,
 Ko'pga kelgan to'y,
 Nolish bizga yarashiq ishmas,
 Tegar axir bizga ham bir uy,
 Ko'cha-ko'yga haydab qo'yishmas.
 Shunday bo'ldi,
 Berdilar uy ham,
 Ko'chirdilar ko'rsatib hurmat.
 Biram yorug',
 Ozoda, shinam,
 Hammadan ham... bиринчи qават!
 Kampir cholni chimchilab kulta,
 Xush keladi cholga qilig'i.
 Bir jo'mrakdan sovuq suv kelsa,
 Bir jo'mrakdan kelar ilig'i.
 Oppoq vanna,
 Gazxona... rohat,
 Hatto po'choq tashlashga paqir...
 Hamma narsa joyida,
 Faqat...
 Faqat bunda yo'q ekan tandir.
 Busiz ular bir kun turolmas,
 Tatimaydi bersa jahonni,
 Chol qurmag'ur orziga olmas
 Gaz o'choqda pishirgan nonni.
 Boshqarmaga arzga bordi chol,
 Raysovetga qatnadi kampir.
 «Qanday kechar tandirsiz ahvol,
 Uy kerakmas bizga betandir».
 Boshqarmada yelka qisdilar,
 «Raysovet»da bo'ldilar hayron.
 «Jilkontor»da shartta kesdilar:
 «Yo'q, bo'lmaydi tandirga imkon».
 «Hech bir yerga qo'ndirib bo'lmas



Gap shu, – dedi JEKning rahbari. –
Hamma ruxsat bersa ham, ko'nmas
O't uchirish tashkilotlari.
Boshda hech kim qilmagan xayol,
Proyektga qo'shmagan, axir...»
Sabablarni tushunmadi chol,
Dalillarga ko'nmadni kampir.
Ikkovin ham tegdi tishiga
«Ammo», «Lekin», «Ha», «Albatta»lar.
Xullas kalom, tandir ishiga
Aralashdi oxir kattalar.
Boshqarmada dedilar mumkin,
JEKdagilar topdilar tadbir.
Baland uyning yonida bir kun
Chol-kampirga qurdilar tandir.
Qo'shnilar ham qarab turmadi,
Kim g'isht tergan,
Kimdir qorgan loy...
Tushmadi ham JEKning hurmati,
Topildi ham tandirga mos joy.
Tandir bitdi
Va o'sha-o'sha
Tong yorishar chog'ida har kun
Osmon bo'yli tomlardan osha
Ko'kka o'rilar ingichka tutun.
O'sha-o'sha, bizga beshikdan
Tanish xush bo'y taralar har yon.
Tongda har bir ochiq eshikdan
Rizqdek kirar bir juft issiq non.
Shunday yashar –
Sokin, bezavol
Pastakkina tandiri bilan
Katta uyda kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.

SHUM BOLA

Shundoq dedi, qulluq qilib,
Gapni qo'yib joyiga
Yangi zamon Shum bolasi
Yangi zamon Boyiga:

«Qoshingizga yana keldim,
Qulq soling, Boy ota,
Sidqi dildan xizmat qilay,
Ishga oling, Boy ota.

Fazilatim ko'pdir, yana
Aybimni ham aytganman.
Lekin endi yangi zamon,
Men yolg'ondan qaytganman.

Chunki endi yolg'onni hech
Aybgina deb bo'lmaydi.
Aldaganni balo urmas,
Aldangan ham o'lmaydi.

Shart emas Shum bola bo'lish,
Yolg'on bukun osondir.
Gazet to'la, kitob to'la,
Majlis to'la yolg'ondir.

Bitta yig'in – Kotibiyat,
Bitta yig'in – Rayosat.
Yolg'on endi davlat ishi,
Yolg'on endi Siyosat.

Innaykeyin demay turing,
Qulq soling, Boy ota.



Sidqi dildan xizmat etay,
Ishga oling, Boy ota.

O'n kishilik mehnat qilib,
Parcha nonga to'yaman,
Bir aybim bor, faqat ba'zan...
Rost gapirib qo'yaman».

Boy otaning jahli chiqdi,
Dedi, ko'nglim zormidi?
Yolg'oningga chidab edim,
Rost gaping ham bormidi?

Yo'qol, seni ishga olsam
Xonavayron bo'laman.
Yolg'oningdan omon qoldim,
Rost gapingdan o'laman!

G'azab bilan hassasini
Qo'lga oldi Boy ota.
Yangi zamon Shum bolasin
Quvib soldi Boy ota.

1991

BIR YOLG'ONDAN QIRQ YOLG'ON

Kaminayi kamtarin –
Falonchiyev Falonchi.
Men bir o'zim rostgo'yman,
Qolgan hamma – yolg'onchi.

Yoshimni so'rasangiz,
Yuz oylik chaqaloqman.
Qotmadan kelgan daroz,
Pakana baqaloqman.

Xush ko'rghanim muzqaymoq,
Hammomga tushib yeymen,
Ustiga murch sepib,
Sho'r bodring qo'shib yeymen.

Dimlab yesang – soz uzum,
Xom yemakka sholg'omdir.
Teskarisin aytsalar,
Ishonmanglar, yolg'ondir.

Yana bir suyganim – ov,
Amakim bilan birga
Har yakshanba chiqamiz
Baliq oviga qirga.

Qo'shtig'li miltiq bilan
Sazanlarni otamiz.
Tunab qolsak, laylakning
Uyasida yotamiz.

Derlar: o'g'lon yoshidan,
Menga haqiqat doya.



Umrin ni bir boshidan
Qilay sizga hikoya.

Kelishim bo'lganda shart
Men kamina olamga
Onamning vaqtি bo'lmay
Yalinibdi xolamga.

Xolam buvimga aytib,
Buvim yangamga aytib,
Yangam ammamga aytib,
Ammam hammaga aytib.

Hammaning vaqtি bo'lmay,
O'rtada chiqib janjal,
Omadim kelmasa sal -
Qolar edim tug'ilmay.

Otam sho'rlik ayrilib
Cho'ntakdagи boridan,
Meni sotib olibdi
Chorshanba bozoridan.

Xola, holingiz qalay?
Alam qilsin, ammavoy!
Tug'masangiz, tug'ilmay
Qolarmidi Jumavoy?

Bilib qo'yisin el-u yurt,
Men dunyoga kelgan kun
O'ttiz birinchi fevral,
Soat ikki kechqurun.

Beshikda yotganimda
Bir voqeа yuz bergan.

Aytib beray,
Jumavoy
Rost aytishga so'z bergan.

So'rg'ichim so'rib yotsam,
Eshikni ochib to'g'ri
Men yotgan uyga kirdi
Qora barzangi o'g'ri.

Taxlangan ko'rpalarni
Bir-bir olib tashladi.
Bisot sandiqni ochib,
Shoshmay tita boshladi.

Sho'rlikning xabari yo'q
Qarab turgan kishidan.
Men kuzatib turibman
Govrapesh tirqishidan.

Qulay fursat kelishin
Mo'jallayman uzoqdan.
Asta-sekin qo'limni
Bo'shataman qo'lbog'dan.

Sandiqni titib bo'lib
Kelgach beshik qoshiga.
Sumak bilan tushirdim
O'g'rining qoq boshiga.

Barzangi gurs yiqildi,
So'ng turib qochib qoldi.
Shoshganidan eshik ham,
Sandiq ham ochiq qoldi.



– Ey, nomard, – deb qichqirdim, –
Qochsang urib shataloq,
Eshikni yopib ket-da,
Shamollaydi chaqaloq...

Bu birinchi hikoyam,
Qurbaningiz bo'layin.
Sizni bir bor aldasam,
Til tortmasdan o'layin.

So'zga bering e'tibor,
«Bir bor» dedim, «ming bor»mas.
Meni aqli butunlar
Yolg'onchiga chiqarmas.

Ichim to'la hikoya,
Qirqtasini aytaman.
Dam olinglar, hozircha
So'zimni to'xtataman.

1991

DIAGNOZ

Qishloq doktorining aytganlari

Hamma bilar:

Tibbiy ilmda

Ovro'podan ancha yiroqmiz.

Hamma balo, mening nazdimda,

Diagnoz qo'yishga no'noqmiz.

Deylik,

Bemor boshida og'riq,

Bu – charchoqdan.

Kim der: dam olgin.

Yuboramiz, tekshirmay ortiq,

Dumbasidan to'rtta analgin.

Kasal ko'rib,

Aytamiz – buyrak!

Naq Luqmonning o'zi singari.

O'ligini so'ng yorib ko'rsak,

Ilma-teshik chiqar jigari.

E, jigarning ishi ko'p nozik,

Qishloqda yo'q, asli, sog' odam.

Deylik,

To'g'ri diagnoz qo'ydik,

Tepki yeymiz raykoin tog'adan.

«Siyosiy ong qani, – deydi u,

Dehqon – sog'lom!

Dehqon – chavandoz!

Dalada yo'q zaharlik doru,

Diagnozi shamollash, deb yoz!

Sariq kasal ko'pmi? Kamaytir,

Chorani men aytmay o'zing top.

Men emas, sen doktorsan, axir,

O'qish kerak gazet va kitob».

Ne yozilgan anov shiorda?



«Paxtazor – bu janggoh», bo'lsin yod!
Janggoh bo'lgach, qurban ham bor-da
Bor zotiljam, zaharlanish, bod...
Shundoq.
Bizlar tibbiy ilmda,
Ovro'podan ancha yiroqmiz.
Hamma balo, mening nazdimda,
Diagnoz qo'yishga no'noqmiz.
Holimiz shu,
Ne uzrimiz bor?
Bizning xato zavol degan so'z.
Aslida-ku jamiyat bemor,
Kimlar qo'yar unga diagnoz?
Uni davo qilguvchi kimlar?
Ne savdolar bordir boshida –
Biz singari noshud hakimlar,
Zo'r tag'olar tursa qoshida.
Kelajakning jarrohi bir kun
Aytmasin-da, o'tib zamonlar:
– Bu yurt dardi boshqa edi-ku,
Hayf sizlarga, johil luqmonlar!

1988

SOF HAVONING FOYDASI

Qirq yil hayot qurdik
Xotinjon bilan.
Qirq yil bir-birovga
Yondosh, mehribon.
Uni «jonim» desam
Hayajon bilan.
U meni ataydi
Hanuz «akajon».
Oltmis besh yoshimda
«Akajon» desa –
Ne ajab, men hamon
Yoshlikka oshno.
Yoshlikning bir siri
Ahillik esa,
Ikkinchisi – sayr,
Musaffo havo.
Faqat o'zimizga
Ayon sirimiz,
Kelishib olganmiz
Go'shangadayoq –
Jahldan junbishga
Kelsak birimiz,
Havoga chiqamiz
Boshqamiz shu choq.
Tanga davo ekan
Sof havo, bilsam,
Necha qor, yomg'irda
Ividim, qotdim.
Xotin bilan qirq yil
Yashagan bo'lsam,
Qirq yil sof havoda
Kechdi hayotim.



Shundoq umr ko'rdik
Xotinjon bilan,
U meni asradi
Sog'lom, navqiron.
Uni «jonim» desam
Hayajon bilan,
U meni ataydi
Hanuz «akajon».

1981

NAYNING QISMATI

Nay dastavval navo bo'lib
 Kirdi dil-u o'ylarga.
 Hamma unga shaydo bo'lib,
 Olib ketdi to'ylarga.

To'ylarda u qildi nola,
 El undan zavq simirdi.
 Vaqt o'tib nay –
 Kamtar bola
 O'zni qo'ydi, semirdi.

Bora-bora avvalgidek
 Yonishlari qolmadi.
 Muxlislarning har galgidek
 Olqishlari qolmadi.

Lekin taqdir uni oshno –
 Qilgan edi kuylarga.
 Sur nay nomin oldi,
 Ammo
 Boraberdi to'ylarga.

Tug'ilsa qay uyda go'dak,
 Xabar topib beshikdan,
 Aytmasa ham aytilgandak,
 Kelaverdi eshikdan.

Xotin-xalaj chuvvos qilib,
 Bolalar shod zerikmay,
 Goh g'iyqillab,
 Goh bo'g'ilib,
 Kuylayberdi sobiq nay.



Oxiri u qarib qoldi,
Bo'g'ildi-yu tomog'i,
Ham ovoz,
Ham ko'zdan qoldi,
Bitdi tamom qulog'i.

Lek, baribir,
Yoshliqdagi
Iste'dodi uchun ham,
Halol xizmat,
Pok yuragi,
Pok ijodi uchun ham –
Saqlar uni el nazarda
Hurmat qilib qo'yadi,
Kar nay katta sayllarda
G'at-g'at qilib qo'yadi.

1977

YELIM AYTAR...

Yelim aytar qari daraxtga:
– To'nka bo'lgur, nodon, ilmsiz,
Men yetkazdim seni davlatga,
Ne kechardi holing yelimsiz?!
Sen-ku, o'tin bo'larsan bir kun,
Meni kutar yorqin kelajak.
Chunki har bir amaldor uchun,
Muhr kerak, demak, men kerak.
Menga to'shab baxmallar hali,
Necha po'lat sandiqlar zordir.
U yuksakka yetib borgani
Faqat yelim bo'lmoq darkordir.
Har narsadan aziz, baobro'
Parcha qog'oz bo'lgan dunyoda –
Ishonch qadri bir pul bo'lar-u,
Muhr qadri bo'lar ziyoda.
Men zarb ursam, olimdir nodon,
Zarb urmasam, insonmas inson.
Yashay olar juftlar mehrsiz,
Qovusholmas, ammo muhrsiz.
Zo'r donishlar kirar so'zimga.
Mard qalblarga titroq solaman...
O'shanda kel, seni o'zimga –
Dasta qilib ishga olaman.

1981



Tarjimalar

*Oy o'rtanar, ko'zlarida yosh,
Ko'ksi dog'-u yuragi qiyma.
Der: «Ey falak, men edim quyosh,
Nega meni qilding tarjima?»*



ABU ALI IBN SINO

RUBOIJ

Mening kufrimni ayblarga
muhakkak sizda imkon yo‘q,
Bu olamda mening pokiza
imonimdek imon yo‘q.
Zamon ahli aro tanho
musulmon men edim, e voh,
Agar kofir esam men ham,
bu dunyoda musulmon yo‘q.



* * *

Yorim qo'liga qadahki olgay,
Bozori sanam kasodga qolgay.
Har kimki, ko'zini ko'rsa deydi:
«Bu mast, qani muxtasib, tutolgay».
Ashk bahri aro baliq bo'libman,
Qarmog'ini yor-chun suvgaga solgay.
Zor ila ayog'iga yiqildim,
Umid etamen, qo'lidan olgay.
Hofiz kabi xurram ul kishikim,
Jomi azalini no'sh etolgay.

* * *

Kecha doston bo'ldi oshiq davrada gisularing,
To yarim tun bahsga bois bo'ldi anbar molaring.
Kipriging novaklaridin qonga aylandi ko'ngil,
Vah, yana qo'msar, ajabkim, ul kamon abro'laring.
Avfillohhkim, sabo keltirmasa sendan xabar,
Hech nasib bo'lmasdi ko'rmaq bizga ko'cha-ko'ylaring.
Bexabar erdi jahon avvalda ishq oshubidin,
Qoldi g'avg'oga u ko'rgach g'amzayi jodularing.
Men ham avvallar edim dardi junundin bexabar,
Qo'ydi domin yo'llarimga kokili hindularing.
Tugmalarni yechgil-u dil mushkuln ayla kushod,
Kim, yechilmog'imga bois dilkusho kulgularing.
Kel vafo aylab, qadam qo'y Hofizingning xokiga,
Kim bu olamdan olib ketmish meni orzularing.

BEDIL

Bo'lubdir g'amga oshyon maskani dil,
Shu bois g'am kelur, so'rsam: qani, dil?
Ko'zim Maqsudi vasling-u, qani ko'z,
Dilim yodi g'aming, ammo qani dil?
Adashgan korivonga qo'ng'iroqman,
Na kuylar kuylamasdan nolani dil?
Kishi yo'qdir kishiga zor-u muhtoj,
Vale dil tutganidir domani dil.
Qadam qo'yganda xoki turbatimga
Bo'l ogohkim, oyog'ing bosgani dil.
Agarchi suvratim Bedildir, ammo
Qilur boshdin-oyoq ashkim mani dil.

Zahm o'ldi yana, chashmi purob o'ldi bizim dil,
Jom ichra to'la qonli sharob o'ldi bizim dil.
Gulbog'-u chaman faslida tosh o'lsa u ko'ngil,
Dasht uzra g'ubor o'lsa-da, ob o'ldi bizim dil.
Vasl anjumani ichra hayo jom bo'libdir,
Ob o'lsa agar bodayi nob o'ldi bizim dil.
Ne hosil, ayo nola, bul otash nafasingdan,
Qon bo'l, seni deb bo'yla kabob o'ldi bizim dil.
Bir chashma-ku to'foni xayol ichra bu olam,
Bedil, na iloj, emdi sarob o'ldi bizim dil.



* * *

Parishon xotirim deb g'am yaralmish,
Yana chashmim tufayli nam yaralmish.
Qilur mavj gavhar-u oina javhar,
Ajab, beorzu dil kam yaralmish.
Atarlar g'uncha poymolini gul deb,
Ne hol, shodlik aro motam yaralmish.
Sabo to'zg'itgudek bir kaft tuproq
Qo'shilgach qon ila, odam yaralmish.
Qoshimga kelsa gar farmoni taslim,
Egilgum, qoshim asli xam yaralmish.
Agar xeshlik uchun paydo bu olam,
Mening ko'nglimga ko'nglim ham yaralmish.
Diling dardiga yo'qdir chora, Bedil,
Bo'lib sohibmuhr Hotam yaralmish.

MIRZO G'OLIB

* * *

Desam, G'olib, yerim – pok xoki Turon,
Asil zotim bilan bag'rim farahmand.
O'zim turkzoda-yu naslim-da turkzod,
Buyuklar qavmi birla asli payvand.
Urug' bo'l mish menga oybeklar aslan,
Kamolan oyga nisbat, balki o'nchand.
Otam kasbin desam dehqonchilikdir,
Bobom bo'l mish zamindori Samarqand.
O'zim haq fayziga shogird erurman,
Erurman fozil insonlarga farzand.
Yonishda hamnafasman barq ila men,
Saxovatda bulutlar birla monand.
G'am-u anduhki bor, shodman alardin,
Farah, baxt yo'qki anga dog'i xursand.
Hama xeshlarki o't mish, yig'lagaymen,
Tiriklikdan kularman bo'yla xushxand.

* * *

Qoshi yosi qatlma tadbirdir,
Ne ajab, uy toqida shamshirdir.
Sevgida bemorligimni so'r magil,
Ul Iso ko'zgusida tasvirdir.
Men junun dashtida sargardon esam,
G'am dilimning poyida zanjirdir.
Bu ko'ngil vayronadir, favvora – ko'z,
Sel siniq bu uyga ne ta'mirdir.
Vah, qalamning yoqasin yirtdi Asad,
Chok dil inshosi bu tahrirdir.



* * *

Muhabbat tuxmin ekdim jonima, anduh samar bo'ldi,
Umidim shuki, qosid, yorga holimdan xabar bo'ldi.
Yog'ib charxi falakdan bu jafokash boshima toshlar,
Urushdi toshga tosh-u misli guldasta sharar bo'ldi.
Ko'ngil dardi ko'rinsa ko'zguda yuz rang bilan, denglar
Xazon-u sog'ar-u dil qoni-yu zahmi jigar bo'ldi.
Nigohim bo'ldi ovora seni izlab va lek oxir
Qorong'u bo'ldi olam senga, dil sohibnazar bo'ldi.
Junun aqlini zohid ayb etar bo'lsa ajab yo'qdir,
Junun zanjiri zuhdning eshigiga bandi dar bo'ldi.
Asad, gar g'uncha gulning shafqatiga borgoh bo'lsa,
Diling Bedil yo'liga gul sochib, satring guhar bo'ldi.

* * *

Parivash chehrasiga bersa oro,
Qilar hayrat bilan ko'zgu tamoshlo.
Ketar jonio olib karvonda yorim,
G'uborin ko'zlarimga ayladim jo.
Meni uyquga eltdi dardi hijron,
Xayoli kiprigimda bo'ldi paydo.
Kular gul yig'laganda bulbuli zor,
Men u gul xandasidan xor-u rasvo.
Firoq o'qin pari ko'ksimga otdi,
Ajab, g'am tog'i uzra undi ra'no.
Fano dashtin tutar maskan murodim,
Anga parvo yo'q-u menga tasallo.
Asad, ojizligingni angladingmi,
Nechun bilding o'zingni buncha dono?



Egam, ismingni aytmoq jur'atin bergil zabonimga,
Ko'ngil – xomush sadaf, dur jilvasin bergil bayonimga.
Tarahhum ayla mendek bedil-u mahzunga, lutf etgil,
Charog'i subh ber shomimga, gul faslin xazonimga.
Qilib nazzora jonimni olursan, ey pari paykar,
Qo'yarsan dast-u poyingga hino oluda qonimga.
Ko'rib ko'zguda ruhing aksini u chashmi mashshot
Bo'libdir xunfishon, bersin to'zim bu xasta jonimga.
Qilar kan tunda bulbul nola, tong uyqudan uyg'ongay,
Umidim tongi uyg'onmas nechun betin fig'onimga.
Kamina taqrib-u sidqin sinab ko'rmoqqa rahm aylab,
Yubording ming tuman ranj-u mashaqqat imtihonimga.
Jamolingdan saboh ravshan, guliston bo'yla zevardir,
Asadga tor qafas qurding, nazar sol bu makonimga.



SEN VA SIZ

Havoyi Siz o'rniga yanglish
Qiz nogahon Sen deya aytdi.
Shu dilbar so'z ko'nglimda yonish,
O'ylarimda orzu uyg'otdi.
Termulaman so'z derga ojiz,
Sehri tamom rom etgan meni.
Sirtda deyman: qanday yaxshisiz,
Qalbda esa: sevaman Seni.

HOFIZDAN

Jang shavqini dilda uyg'otma,
Yonma, yigit, zafar, shon bilan.
Qonli harbga o'zingni otma
Karabaxlik olomon bilan.
Balki seni o'ldirmas qotil,
Maydon aro, qilichlar aro.
Barnoliging ko'rgan Azroil
Yubormagay bemahal qazo.
Bir narsadan qo'rqaman faqat:
Oshno bo'lib jangda beboklik,
Senda qolmas dilbar nazokat,
Bu mayinlik, go'zallik, poklik.

EPIGRAMMA

Ta'na bilan jonimga tegding,
Javob senga muxtasar, oshnam.
Ha, men ishchan emasman, lekin
Sen omilsan yalqovlikda ham.



EPIGRAMMA

Illatlari haddan ziyoda,
Nopok yashab keldi bu odam.
Gunohlarin yoysa dunyoda
Joy qolmagay qo'ymoqqa qadam.
Insof kirdi unga nihoyat,
Asta-sekin yo'l topdi to'g'ri.
Mana endi durust, xayriyat,
Nomi bo'ldi qartaboz o'g'ri.

* * *

Kar karni kar qozining hukmiga to'g'riladi,
Kar dedi: Bu kar mening molimni o'g'irladi.
Kar karga javob berdi: Bekor aytibsan, ey kar,
Sen aytgan u qo'riqqa yetti pushtim don ekar.
Kar qozi hukm qildi, pok ish bo'ssin, bir yo'l bor,
Yigitni uylantiring, qiz bo'ssa ham gunohkor.



ONAMDAN MAKTUB

Endi ne ham o'ylab
Topadir xayol,
Javobni o'ylayman
Chakkamni tutib.
Stolim ustida
Yotar xafahol
Onaginam menga
Yo'llagan maktub.
«Ko'zimiz to'rt bo'ldi,
Bolam, kelaqol.
Yaxshiydi bayramga
Kelsang, har qalay.
Otangga ishtonlik,
Menga jun ro'mol
Olakel, bizlarda
Kamchilik talay.
Menga sira yoqmas
Shoirliging ham,
Janjalkashlik bilan
Topgan shuhrating.
Undan ko'ra omoch
Haydasang, bolam,
Obro' keltirardi
Halol mehnating.
Men ham qarib qoldim,
Hech yo'q darmonim.
Oh, sen bo'sang eding
Mening yonimda.
Kelinlik bo'lardim,
So'nggi armonim –

Nabira suyardim
 Asrab jonimda.
 Sen bola-chaqalik
 Bo'lmaiding, daydi.
 Yuragingni berding
 O'zgaga oson.
 Oilang bo'saydi,
 Do'sting bo'saydi,
 Senga mayxonalar
 Bo'lmasdi makon.
 Jonim bolaginam,
 Ne bo'ldi senga?
 Mo'min-qobil eding
 Bir vaqt naqadar.
 El-yurt havas bilan
 Aytardi menga:
 Aleksandr Yesenin —
 Baxtiyor padar.
 Afsus, niyatimiz
 Bo'lmadи hosil.
 Barbod bo'ldi so'nggi
 Umidimiz ham.
 Otang o'ylar edi —
 She'r yozib qoyil,
 Bir dunyo pul topib
 Keladi bolam.
 Ammo sendan bir so'm
 Kelmas, bolajon.
 O'kinchlarimizning
 Bosh sababi shul.
 Xomtama bo'libmiz,
 Holingdan ayon:
 To'lamas ekanlar
 She'r yozganga mo'l.
 Menga sira yoqmas



Shoirliging ham,
Janjalkashlik bilan
Topgan shuhrating.
Undan ko'ra omoch
Haydasang, bolam,
Obro' keltirardi
Halol mehnating.
Endi bo'lsa bizni
Ezdi g'am, alam.
Ot yo'q,
Pul yo'q, borib
Olsak naqd so'mga.
Uyda bo'sang eding,
U zehning bilan
Rais bo'lar eding
Volijroqo'mga.
Boshqacha bo'lardi
Bizning tiriklik,
Sarson yurmas eding
Sen ham yiroqda.
Xotining yonimda
Urchuq yigirib,
Sen birga qararding
Qarigan chog'da...»
Xatni g'ijimlayman,
So'z aytmoq qiyin,
Oh, bormi girdobdan
Chiqmoqqa imkon.
Yurak so'zlarimni
Aytaman keyin,
Javob maktubimda
Qilaman bayon.

JAVOB

Aziz onaginam,
Bo'lgin salomat.
Mehr-u shafqatingni
Sezib turibman.
Sen zarra tasavvur
Qilmassan faqat,
Nima deb dunyoda
Yashab yuribman.
Hozir siz yoqda qish,
Ayoz kechalar.
Deraza oldida
Surarsan xayol,
Osmonni to'dirib
Yog'ilar ukpar,
Kimdir oq sirenni
Silkitgan misol.
Onam!
Shunday tunda
Bo'lurmi uxlab,
Tarnov uzra shamol
Chiyillar betin.
Yotmoqchi bo'lursan,
Ko'zingga xona
Tobutdek ko'riniib
Seskanar eting.
Izg'irin yig'ichi
Xotinga o'xshar.
Mingta dyak bo'lib
Cho'zar badkirdor.
Qor yerga sochadir
Oppoq tangalar...
Tobut ortida bor



Na do'st va na yor...
Menga hammasidan
Ma'qul navbahor,
Ko'nglimga munosib
Toshqin shiddati.
Bunday payt xar bir cho'p
Bir kemacha bor.
Dala – cheksiz ummon,
Yo'q nihoyati.
Barcha ko'klamlardan
Men sevgan ko'klam –
Bashar dilidagi
Buyuk inqilob.
O'shangang intilib
Chekarman alam,
O'shani sevaman,
Chorlayman shitob.
Lekin bor muzlagan
Yer sayyorasi.
Shundan men nolalik
She'r ovorasi,
Shundan men serjanjal
Va oshuftahol.
Onajonim,
Kelar bizga ham fursat,
Keladir intizor
Kutganimiz dam.
Biz axir turibmiz
Jangga bo'lib taxt,
Kim zambarak tutib,
Kim tutib qalam.
Qo'y, puldan gapirma,
Mol-mulk na kerak.
Bu so'zlarni yozgan

Senmisan, yo Rab:
Nima, men molmidim
Va yoki eshak,
Qoziqdan yechmasa
Yotguvchi qarab.
Men o'zim boraman,
Vaqt kelar bir kun,
Muzlagan kurraga
To'p otilar chog' –
Boraman jun ro'mol
Olib sen uchun,
Cholga paytavalik...
Bo'lgin faqat sog'...
Hozircha izg'irin
So'fidek cho'zar,
Yig'ichiga o'xshab
Uvlar badkirdor.
Qor yerga sochadir
Oppoq tangalar,
Tobut ortida bor
Na do'st va na yor.



* * *

Tongda meni uyg'ot ertaroq,
Mehribonim, mushfiq onajon!
Men yo'llarga ko'z tutay mushtoq,
Bizning uyga kelmoqda mehmon.
O'rmon ichra bugun, onajon,
G'ildirakning izlarin ko'rdim.
Yellar uni aylab zar kamon,
Tortqilagan kezlarin ko'rdim.
Erta tongda mehmon keladi
Oy shapkasin boshga qo'yib dol.
Uchqur oti ravon yeladi,
Kokillari tovlanadi ol.
Meni sahar uyg'ot, onajon,
Chiroqlarni yoqib qo'y hozir.
Deydilarki, bo'lmosg'im ayon
Rossiyada shuhratli shoir.
She'r aytaman mehmonga ul dam,
Senga, onam, o'sgan yerimga.
Sahar turib soqqan suting ham
Quyiladi mening she'rimga.

* * *

Tong otadi beozor va jim,
 Tuman ichra bo'zarar osmon.
 Bugun yana seni esladim,
 Mehribonim, munis onajon!
 Avvalgidek yana, hoynahoy,
 Tepalikka chiqarsan har tun.
 Suv ustida halqib turgan oy
 Tasviriga boqarsan mahzun.
 Qaraysan-u o'yga cho'marsan,
 O'rtaguvchi dard ko'ksing aro,
 Xayolingda o'g'ling bemaskan,
 Vatanini o'yamas aslo.
 Qabristonga borasan asta,
 Toshga boqib ko'rasan kimni?
 Xo'rsinasan mayin va xasta,
 O'ylab aka-singillarimni.
 Garchi o'sdik bezori, chapan,
 Qizlar esa may gulisimon.
 Lekin xira ko'zlarining bilan
 Buncha g'amgin boqma, onajon!
 Yetar kulfat, yetar g'am, alam,
 Tushun hayot aldoqlarini.
 Ma'yus qolur hatto daraxt ham
 Yo'qtganda yaproqlarini.
 Noyoblik bor quvonchda, baxtda,
 Visoldan ko'p hayotda firoq.
 Chirigandan ko'ra daraxtda
 Shamollarda yongan yaxshiroq.



* * *

Bas! Bo'lar ish bo'ldi, kerakmas,
Qaytmas bo'ldim endi yurtimga.
Yaproqlari qanot teraklar
Soya solmas endi ustimga.
Pastak kulbam bunchalar mensiz,
O'lib bo'lgan qari itim ham.
Maskovning bir burchida, esiz,
Zavol topmoq chog'i nasibam.
Bu shaharga bo'ldim men shaydo,
Garchi ko'hna, ko'rimsiz makon.
Mudrab yotgan oltin Osiyo
Gumbazlarda bo'lur namoyon.
Tunda esa oy nur sochgan dam
Go'yo... bilmam, nima singari...
Bosh eggancha tashlayman qadam
O'sha tanish mayxona sari.
Meni kutar bu dahshat maskan,
Bunda tunni ulab saharga,
May ichaman o'g'rilar bilan,
She'r o'qiyman fohishalarga.
Kayf tumani chulg'aganda men
Faryod bilan ochaman ko'nglim:
«Men ham sizdek gumroh bandaman,
Mening ham yo'q, qaytarga yo'llim».
Pastak kulbam bukchayar mensiz,
O'lib bo'lgan qari itim ham.
Maskovning bir burchida, esiz,
Zavol topmoq chog'i nasibam.

MUNDARIJA

FAXRIYA

O'zbekistonim.....	4
O'zbegim.....	8
Vatan istagi	12
Vatan qadri.....	13
«Vatan, to tanda jonim bor...»	14
Vatan sog'inchi	15
Sadoqat	16
Turkiston bir, Vatan bir	17
16-Fevral 1999-yil	19
Ona tilim o'maydi.....	20
Ona tuproq.....	22
O'lka.....	23
Bahor mustazodi	24
Navro'z nashidasi.....	25
O'lkamda bahor	26
O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar	27
Kel, ey Bobur, Vatanga....	28
Boqiy xotira	29
Kuzatish	30
Bir nihol	31
Uzoqqa bormadik andisha bilan.....	32
«G'uncha ochilishin zor kutib, sahar...».....	32

**BARCHA SHODLIK
SENKA BO'LSIN**

Muhabbat birla.....	34
Sevgi otashi	35
Barcha shodlik senga bo'lsin.....	36
Jon tugamaydir	37
Gulnorini o'p.....	38

Biz anglamagan jahon ekan ishq.....	39
Menda bor ishq ichra g'am.....	40
Tola soch	41
Uyg'otmagil.....	42
Sevgi kelsa.....	43
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo.....	44
Sevgi shunday navbahorki...	46
Sevgi.....	47
Netay	48
Tun bilan yig'labdi bulbul...	49
Bir go'zalkim	50
Surma	51
Bir qadam.....	52
Samar bo'lg'ay	53
Rashkim	54
Shohigul	55
Firoq haqida	56
Qaro qoshing	57
Ishq istilosি	58
Dilda ishq daryochadir.....	59
Uzum.....	60
Na qilsin	61
Shirin	62
Ko'zing.....	63
Bandi zulf	64
Dostonga yoz	65
Visol sog'inchi.....	66
Lola sayli	67
Xayol	68
Quyosh.....	70
Yoshligim.....	71
Sevgini tortib bo'lurmu.....	72
Senga baxtdan taxt tilarman	73
Gulmidi, rayhonmidi, jambul	74
Dildorga noma yozdim	75



Sir aytar g'unchaga	
g'uncha.....	76
Oyning o'n beshi qorong'u....	77
Keksalik gashti	78
Muborakbod	79
«Siz mening osmonim, mohitobimsiz».....	80

INSON O'ZING

Inson	82
O'zbek Navoiyni o'qimay	
qo'ysa...	86
Do'st bilan obod uying	87
Yaxshidir achchiq haqiqat..	88
Do'stlarimga	89
Yoshligimda.....	90
Do'stga biz sog'ar uzatdik...	91
Qo'llar.....	92
Jon talash	94
«Ajab, yoshlikni ne qildim...»	95
Sakkizinchı mart	96
Bolalar.....	98
Hofizga	100
Bolalik	101
Yolg'on haqida	102

SHOIR QALBI

Debocha	104
Bag'ishlov	105
Samarqand	106
Tong lavhasi	107
«Men jilg'amani...».....	107
Tog' bilan suhbat.....	108
«Do'stlarimni hayron qoldirar...».....	109
«Tinglayman ko'p o'zbek so'zlarin...».....	109
Majnuntol	110
Qubbon ko'liga	113
Buloq.....	113

Po'lal	114
Yo'llar	114
Xayrli kech	115
«Kun tog' o'rakachiga tirmashar asta...».....	115
Yo'q, halovat istamayman	116
She'r kechasi	117
She'r haqida she'r.....	118
Yoshlik	120
«Aytib bo'ldim so'nggi qo'shiqni...».....	121
Olimlar va shoirlar	121
Teranlik	122
Shoira Saida	
Zunnunovaga	123
Qizaloq	124
Shoir umri	125
Samarqand kechasi	126
Surat	127
Kosmonavt va shoir	128
Asablar	129
Yurak va aql	130
May she'ri	132
«Oy fonusin ko'tardi osmon...»	134
Go'zallik	135
Chumoli	135
«She'r bitdi, ko'chirdim oqqa...»	136
Chashma qoshida	137
Kutish soatlari	138
Chirchiq	139
Olimlarning rafiqalariga ..	140
To'rtlik	141
Xotira	141
Kipriklarim	142
Daryo oqshomi	142
Xorazm qovuni	143
Bir tomchi yosh	144
Oyga	144
Bosh tebratar soat kafgiri....	145
Kun o'tganda	145
Inson va fursat	146

«Ko'cha o'tasida bir siniq shisha...»	147	Yo'jni qandoq bor etay? ...	189
«Balolarni shaytonlardan qo'rqtigmangiz...»	147	Yana qalamga	190
Jon shirinmi, qand shirin ..	148	Muharrir.....	191
Vokzalda.....	148	Gullar bazmi.....	192
«Fursat – oltin...»	149	Gulchehralar	193
Insoniyat tarixi	150	Yolg'izlik istagi	194
She'r va shaxmat	153	Ota tilagi.....	196
Yangi yil guldastasi.....	154	Tushungan odam.....	197
Uchi tuguk dastro'mol	156	G'azalni sevgan qiz.....	198
So'ngan yulduzlar	158	Sayr.....	199
G'uncha.....	159	«Qizim, baxtli kunda dunyoga kelib...»	200
Sarv.....	160	Qorxat	201
Kiprigingdan o'q uzib	161	Do'stlarga maktub	204
Kecha va kunduz	161	Hozirgi yoshlar.....	206
Kuy avjida uzilmasin tor ..	162	Qalb shunday ummonki ..	210
Yulduz.....	162	Do'sti nodondan ko'ra.....	211
Og'riqli savollar	163	Otdoshlarimga	212
Qalam.....	164	Qalam haqi va oylik	214
Barg	165	Kamtarlik haqida	215
Davron yuki	166	Bu ko'hna hasrat	215
O'chirg'ich	167	Bevafo do'stlarga.....	216
Dutorim tori ikkidur.....	168	Shahr aro.....	217
Shohlar orzusi	169	Fursating	218
She'r aziz olam aro.....	170	Tangri va yamoqchi.....	219
Hofizga	171	Kimda iqtidor yo'qdir.....	220
Yo'q emish orzuda ayb... .	172	Ko'zgu.....	221
Kerak bo'lsa	173	Parishonlik	222
Qilurman tavbalar	174	Tush.....	223
Shoirlik.....	175	Ey kabutar	224
Raqqosa.....	176	Hijron yuki	225
Yod eting	177	O'zimga savol.....	226
Yoshligimda	178	Hijron qushlari	227
Uch balodan saqlasin.....	179	Do'stga deganim	228
Uyatchanlik	180	Kurash o'yini	229
«Inson fe'lli ajabdan ajab...» ..	182	Kerak bo'lsa.....	230
Ko'rsatkich barmoq	183	Dur bo'lib tomgaymi so'z...	231
Tilak	184	Dengiz tashlab ketgan kemalar	232
Pushkin	185	She'riyat	234
Shoir	186	Vergul haqida	235
Shoir qalbi	187	So'z o'yinlari	236
Devona haqgo'y.....	188		

**MUXAMMASLAR**

El netib topg'ay meni....	238
Fuzuliy g'azaliga muxammas.....	239
Navoiy g'azaliga muxammas.....	240
Bobur g'azaliga muxammas.....	241
Vatandin yaxshi yor bo'lmas	243

DOSTONLAR

Nido.....	246
Ruhlar isyoni	264

HAJVITYALAR

Shaharmi bu, qishloqmi bu?.. (<i>Voqeiy she'r</i>).....	350
Qumursqalar jangi.....	354
Bo'ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa.....	358
Tandir haqida ertak	361
Shum bola	364
Bir yolg'ondan qirq yolg'on .	366
Diagnoz	370
Sof havoning foydasi	372
Nayning qismati	374
Yelim aytar	376

TARJIMALAR

<i>Abu Ali ibn Sino</i>	
Ruboiy.....	378
<i>Hofiz Sheroziy</i>	
«Yorim qo'liga qadahki olgay...».....	379
«Kecha doston bo'ldi oshiq davrada gisularing...»..	379

Bedil

«Bo'lubdir g'amga oshyon maskani dil...».....	380
«Zahm o'ldi yana, chashmi purob o'ldi bizim dil...» ..	380
«Parishon xotirim deb g'am yaralmish	381

Mirzo G'olib

«Desam, G'olib, yerim – pok xoki Turon...» ..	382
«Qoshi yosi qatlima tadbirdir...» ..	382
«Muhabbat tuxmin ekdim jonima, anduh samar bo'ldi...» ..	383
«Parivash chehrasiga bersa oro...» ..	383
«Egam, ismingni aytmoq jur'atin bergil zabonimga...» ..	384

A.S.Pushkin

Sen va siz	385
Hofizdan	385
Epigramma	385
Epigramma	386
«Kar karni kar qozining hukmiga to'g'riladi...» ..	386

Sergey Yesenin

Onamdan maktub.....	387
Javob.....	390
«Tongda meni uyg'ot ertaroq...».....	393
«Tong otadi beozor va jim...» ..	394
«Bas! Bo'lar ish bo'ldi, kerakmas...» ..	395

Adabiy-badiiy nashr

ERKIN VOHIDOV

O'ZBEGIM

*She'rlar, dostonlar, hajviyalar,
muxammaslar, tarjimalar*

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Musahhih
Sadoqat QARSHIBOYEVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir
Shohruh HOSHIMOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014 yil 02.10.da berilgan.
Bosishga 2017-yil 12.06.da ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 13,5. Sharqli bosma tabog'i 22,68.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 116.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72;
Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Erkin Vohidov

(1936 – 2016)

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni.

1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida tug'ilgan. ToshDU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetini tamomlagach, turli yillarda «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir, bosh muharrir, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir va bosh muharrir, direktor, «Yoshlik» jurnalni bosh muharriri bo'lib ishlagan.

Ilk she'riy to'plami – «Tong nafasi» 1961-yilda nashr etilgan. Shundan keyin «Qo'shiqlarim sizga», «Yurak va aql», «Mening yulduzim», «Yoshlik devoni», «Muhabbat», «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg'oq», «Kelajakka maktub», «Bedorlik», «Muhabbatnoma» va «Sadoqatnoma» (ikki jildli saylanma), «Kuy avjida uzilmastor», «Yaxshidir achchiq haqiqat» kitoblari chop etilgan.

«Oltin devor», «Istanbul fojiasi» kabi asarlari orqali dramaturg sifatida tanilgan. U.I.Gyotening «Faust» asarini, S.Yesenin, F.Shiller, Iqbol, Ulfat, R.Hamzatov, L.Ukrainka, A.Blok va boshqa turli xalqlar shoirlari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Erkin Vohidov 1997-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan. Atoqli shoir 2016-yilning 30-mayida 79 yoshida Toshkentda vafot etgan.

ISBN 978-9943-20-237-5



9 789943 202375



YANGI ASR AVLODI